

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks  
mexanizatsiyalash  
fanidan amaliy mashg'ulotlarni  
bajarishga**

**USLUBIY QO'LLANMA**

**TOSHKENT 2016**

“Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash” fanidan amaliy mashg‘ulotlarini bajarishga uslubiy qo‘llanma. Sagatov N.X.– Toshkent: ToshDTU, 2016 – 92 b.

Uslubiy qo‘llanma “Konchilik ishi” ta’lim yo‘nalishi “Foydali qazilma konlarini ochiq usulda va yer osti usulida qazib olish” ixtisosliklati bo‘yicha bakalavriat talabalarining “Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun tuzilgan. Amaliy mashg‘ulotlarning uslubiy qo‘llanmasida ochiq kon ishlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, kon jinslarini qazishga tayyorlash, kon jinslarini qazib olish va yuklash, karyer transporti, qoplama jins ag‘darmalarini hosil qilish, karyer maydoni va uni ochish, foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish tizimlari, gorizontal va yotiqlik konlarni qazib olish tizimlari, qiya va o‘ta qiya yotgan ruda konlarini qazib chiqarish tizimlari, foydali qazilmani qazib olish texnologiyasi bo‘limlari uchun masalalar va har bir masaladan keyin mustaqil yechish uchun misollar, turli jadvallar, rasmlar orqali tavsiya etiladi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi.

Taqrizchilar: Navoiy davlat konchilik instituti  
Olmaliq kon metallurgiya fakulteti  
dekani muovini - M.K. Shamaev

ToshDTU «Konchilik ishi» kafedrasи  
mudiri, t.f.d. - O‘.F. NASIROV

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2016

## Kirish

Mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini har tomonlama tezlatish uchun asosan og‘ir sanoatning butun xalq xo‘jaligini yanada yuksaltirishga yordam beradigan tarmoqlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Bunday tarmoqlardan biri konchilik sanoatidir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston konchilik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Shu bilan bir qatorda mamlakat zamirida hali sanoat ishlab chiqarishga jalb etilmagan juda katta va qimmatbaho mineral xomashyo resurslari mavjud. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimov ta’kidlashicha “O‘zbekiston zamirida mavjud bo‘lgan boyliklarga ega mamlakatlar jahon xaritasida ko‘p emas. Bu boyliklarning ko‘philigi hali ishga solinmagan”.

Ushbu uslubiy qo‘llanma «Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash» fani o‘quv dasturi asosida tuzilgan. Fanning amaliy mashg‘ulotlarini bajarish uchun tayyorlangan uslubiy qo‘llanmada konlarni ochiq usulda qazib olish jarayonlaridan: konlarni ochiq usulda qazib olish, karyer elementlari va ularning parametrlarini hisoblash, kon jinslarini qazishga tayyorlash, ularning usullarini va shu qatorda ularning burg‘ilanuvchanligini hisoblash, kon jinslarini qazib olish va yuklashga doir misollar, karyer transportini tanlash va qoplama jins ag‘darmalarini hosil qilish, karyer maydoni va uni ochish, foydali qazilma konlarni ochiq usulda qazib olish tizimlari, gorizontal va yotiqlik konlarni qazib olish tizimlari, qiya va o‘ta qiya yotgan ruda konlarni qazib chiqarish tizimlari, foydali qazilmani qazib olish texnologiyasiga doir misol va masalalar keltirilgan. Har bir masalaning ishlanish yo‘llari, shu masalaga doir mustaqil yechish uchun misollar va nazorat savollari berilgan.


«Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash» fanini o‘zlashtirishda amaliy mashg‘ulotlarni yuqori saviyada o‘tkazish muhim o‘rin egallaydi.

Uslubiy qo‘llanmadan konchilik ishi ta’lim yo‘nalishidagi foydali qazilmalarni ochiq usulda va yer osti usulida qazib olish ixtisosligida o‘qiyotgan talabalar foydalanishlari mumkin.

# 1- amaliy mashg‘ulot

## Karyerning ishchi va ishlamaydigan yonbag‘ri qiyalik burchaklari aniqlansin

Bevosita yer yuzida turib foydali qazilmalarni qazib olish uchun bajariladigan kon qazish ishlari majmui ochiq kon ishlari deb yuritiladi. Ochiq kon ishlari ikkita asosiy ishlardan, ya’ni qoplama jinslarni qazib olish (kon yotqizig‘i ustini ochish) va bevosita usti ochilgan foydali qazilmani qazib olish ishlaridan tashkil topadi. Konni ochiq usulda qazib olish uchun xizmat qiladigan ochiq kon lahimlari majmui kayer deyiladi (ko‘mir konlarida esa razrez deyiladi).



1-rasm. Karyerning ko‘ndalang qirqimda (a) va planda (b) ko‘rinishi: 1 - karyerning oxirgi chegarasi; 2- karyerning ishchi bortining qiyalik chizig‘i; 3-qazish pog‘onasi; 4 – ishchi qoplama jins pog‘onalari; 5 – ishlamaydigan qoplama jins pog‘onalari; 6- muhofaza bermalari; 7- transport bermasi; 8-ishchi maydoncha; 9- kayer tubi; 10-foydali qazilma;  $\beta_{ish}$  - kayer ishlamaydigan bortining qiyalik burchagi;  $\beta_o$  - kayer ishchi bortining qiyalik burchagi; H<sub>k.j.</sub> – karyerning joriy chuqurligi; H<sub>ko</sub> – karyerning oxirgi chuqurligi.

Kayer tepasi yer yuzi bilan chegaralanadi. Yon tomonlaridagi karyerni chegaralovchi pog‘onasimon tekisliklar kayer yonbag‘ri (borti), karyerni chuqurlik bo‘yicha chegaralovchi tekislik esa kayer

asosi (tubi) deyiladi. Karyer yonbag‘rining yer yuzi bilan kesishish chizig‘i karyerning ustki chegarasi, asosi bilan kesishish chizig‘i esa ostki chegarasi deb yuritiladi. Karyer ustki va ostki chegaralari orqali o‘tkazilgan shartli tekislik karyer yonbag‘ri qiyaligi, uning gorizontal tekislik bilan kesishishidan hosil bo‘lgan burchak esa karyer yonbag‘ri qiyalik burchagi deyiladi.

Kon qazish ishlari olib boriladigan karyer yonbag‘ri ishchi yonbag‘ir, faqat transport vositalari harakatlanishiga xizmat qiluvchi yonbag‘ri esa ishlaymaydigan yonbag‘ir deb yuritiladi. Karyer asosi (tubi) bilan usti o‘rtasidagi o‘rtacha masofa karyer chuqurligini tashkil qiladi. Konlarni ochiq usulda qazib olishda kon yotqizig‘i va qoplama jinslar gorizontal qatlamlarga ajratib qazib olinadi. Bunda ustki qatlamni ostki qatlamdan o‘zdirib qaziladi. Shu sababli karyer yonbag‘ri pog‘onasimon ko‘rinishga ega bo‘ladi (1-rasm).

Karyer maydonidan qazib olinadigan kon massasi hajmi, karyer chuqurligi, karyer tubi o‘lchamlari, yonbag‘ir qiyalik burchagi, karyer maydonidagi foydali qazilma zaxirasi, qoplama jinslar hajmi, karyerning yer yuzi bo‘yicha o‘lchamlari kabi ko‘rsatkichlar karyerning asosiy parametrlari hisoblanadi.

**Berilgan:**  $H_k = 90 \text{ m}$  – karyer chuqurligi, bir bortli bo‘ylama qazish tizimi qo‘llanadi;  $H_p = 15 \text{ m}$  - pog‘ona balandligi; ishlaydigani bort pog‘onasining qiyalik burchagi  $\alpha_i = 75^\circ$ ; ishlaydigani bort pog‘onasining qiyalik burchagi  $\alpha_{ish} = 60^\circ$ ; temir yo‘l transporti qo‘llanadi; pog‘ona ishchi maydoni kengligi  $Sh_{i.m.} = 60 \text{ m}$ ; ishlaydigani bortning har bir pog‘onasidagi transport bermasi  $B_t = 12 \text{ m}$ .

**Yechish:** 1) qazib olinadigan pog‘onalar sonini aniqlaymiz:

$$n = \frac{H_k}{H_p} = \frac{90}{15} = 6$$

2) ishchi bort qiyalik burchagini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} tg\gamma &= \frac{H_k}{(n-1) \cdot Sh_{i.m.} + n \cdot H_p \cdot ctg\alpha_i} = \\ &= \frac{90}{(6-1) \cdot 60 + 6 \cdot 15 \cdot ctg75^\circ} = 0,28; \quad \gamma = 16^\circ \end{aligned}$$

$\gamma$  – karyer ishchi bortining qiyalik burchagi, grad.

3) ishlaydigani bort qiyalik burchagini aniqlaymiz:

$$tg\beta = \frac{H_{\kappa}}{(n-1) \cdot \epsilon_T + H_p ctg\alpha_{ish}} =$$

$$\frac{90}{(6-1) \cdot 12 + 6 \cdot 15 ctg 60^\circ} = 0,8; \quad \beta = 39^\circ.$$

### Mustaqil yechish uchun misollar

Masala tartibi	Qazish tizimi va qo'llanila-digan transport vositasi	Karyer chuqurligi, m	Pog'ona balandligi, m	Ishchi bort pog'onasi qiyalik burchagi, grad	Ishlamaydigan bort pog'ona qiyalik burchagi, grad	Pog'ona ishchi maydoni kengligi, m	Ishlamaydigan bort pog'ona orasidagi berma kengligi, m
1	Bir bortli bo'ylama. Temir yo'l transporti	$H_k = 110$	$H_p = 16$	$\alpha_i = 70$	$\alpha_{ish} = 60$	$Sh_{i.m.} = 65$	$B_k = 12$
2	Ikki bortli bo'ylama. Avtomobil transporti	$H_k = 120$	$H_p = 18$	$\alpha_i = 75$	$\alpha_{ish} = 75$	$Sh_{i.m.} = 55$	-
3	Bir bortli bo'ylama. Konveyer transporti	$H_k = 100$	$H_p = 15$	$\alpha_i = 75$	$\alpha_{ish} = 60$	$Sh_{i.m.} = 45$	$B_k = 12$

Nazorat savollari:


1. Ochiq kon ishlari ta'rifi va rivojlanish yo'nalişlarini so'zlab bering.
2. O'zbekistonda konchilik sohasining holatini yoriting.
3. Ochiq kon ishlari nechta asosiy ishlardan tashkil topgan?
4. Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish sxemasini tushuntiring.
5. Karyer (razrez)ning asosiy elementlariga nimalar kiradi?

6. Konning ochish koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz? Uning turlari va aniqlash usullarini tavsiflab bering.

## 2- amaliy mashg‘ulot

### O‘ta qiya kon yotqiziqlarini ochiq usulda qazib olishda ishchi zonaning maksimal balandligi – $H_{i.z}$ ni aniqlash

Og‘ish burchagi bo‘yicha foydali qazilma yotqiziqlari gorizontal, yotiqliq, qiya va o‘ta qiya bo‘ladi. Og‘ish burchagi  $10^0$  gacha bo‘lgan yotqiziqlar yotiqliq deb yuritiladi. Gorizontal va yotiqliq kon yotqiziqlarini qazib olishda qazishdan bo‘shagan maydonlardan qoplama jinslarni joylashtirish uchun foydalananiladi (2 – rasm, a).




2- rasm. Karyerning ko‘ndalang kesimi sxemalari.

Og‘ish burchagi  $10-30^0$  bo‘lgan yotqiziqlar qiya kon deyiladi. Bunday konlarni qazib olishda yotqiziqning yotish yoni karyerning ishlamaydigan yonbag‘rini tashkil qiladi va qazishdan bo‘shagan maydonga qoplama jinslar to‘kilmaydi. Og‘ish burchagi  $30^0$  dan katta bo‘lgan yotqiziqlar o‘ta qiya konlar deb ataladi va yotqiziqning har ikkala yonini tashkil qilgan qoplama jinslar qazib olinib, foydali qazilma zaxirasi qazishga tayyorlanadi, bunday konlarni qazib olishda qazishdan bo‘shagan maydonga qoplama jinslar to‘kilmaydi (2-rasm, b,d).

Kon yotqiziqlari juda qalin, qalin, o‘rtacha qalin, yupqa va juda yupqa bo‘lishi mumkin. Yotqiziqning qalinligiga qarab uni qazib olish usuli tanlab olinadi. Gorizontal va yotiqliq yotqiziqlar vertikal (normal) qalinlik, qiya va o‘ta qiya yotqiziqlar esa gorizontal qalinlik bo‘yicha tavsiflanadi.

Juda kichik qalinlikdagi (2-3 m) yotqiziqlarni yuklagich va shnekburg‘i mashinalari bilan qazib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kichik qalinlikdagi (4-20 m) yotiqliq konlarni bitta pog‘ona bilan, o‘rtacha qalinlikdagilarni (15-40 m) ikkita pog‘ona bilan, katta

qalinlikdagi konlarni esa uchta va undan ko‘p pog‘onalar bilan qazib olinadi.



3- rasm. Qiya va tik joylashgan: a - juda kichik va kichik qalinlikka ega bo‘lgan; b – o‘rtacha qalinlikka ega bo‘lgan va d - qalin yotqiziqlarni qazib olish sxemalari;  $m_g$  – yotqiziqlarning horizontal qalinligi.

Juda yupqa (10-20 m) va yupqa (20-70 m) qalinlikka ega bo‘lgan qiya va o‘ta qiya konlarni qazib olishda navbatdagi qatlamni qazib olish ishlari uning ustidagi qatlam butkul qazib olingandan so‘nggina bajarilishi mumkin (3-rasm, a). O‘rtacha qalin (60-100 m) konlarda navbatdagi qatlamni qazib olish ishlari yuqoridagi qatlamni to‘la qazib olmasdan ham boshlanishi mumkin (3-rasm, b). Juda katta qalinlikka ega (100 - 150 m) konlarda esa bir vaqtning o‘zida bir necha qatlamlarni qazib olish mumkin bo‘ladi (3-rasm, d).

**Berilgan:** Karyer tubining kengligi  $Sh_t = 30$  m; karyer chuqurligi  $H_k = 240$  m; karyerni tugatish davridagi bortlarining qiyalik burchagi  $\beta = 40^0$ ; foydali qazilma yotqizig‘i ustki va ostki qiyalik burchaklari o‘zaro teng  $\gamma_u = \gamma_o = 18^0$ ; pog‘ona balandligi  $H_p = 15$  m.

**Yechish:** 1) Ishchi zonaning balandligini aniqlash:

$$H_{i.z} = \frac{B - Sh_t}{ctg\gamma_{osm} + ctg\gamma_{ust}}, \text{m}$$

bunda

B- karyerning yer yuzi bo‘yicha loyiha kengligi,m

$$\begin{aligned} 2) B &= Sh_t + 2H_k \cdot \text{stg } \beta = \\ &= 30 + 2 \cdot 240 \cdot \text{stg } 40^0 = 30 + 550 = 580 \text{ m}; \end{aligned}$$

$$3) H_{i.z.} = \frac{580 - 30}{3,08 + 3,08} = 90 \text{ m}$$

4) Ishchi pog‘onanng sonini aniqlash:

$$N_p = \frac{H_{i.z.}}{H_p} = \frac{90}{15} = 6 \text{ ta pog‘ona.}$$

## Mustaqil yechish uchun misollar

Masala tartibi	Karyer tubi kengligi, m	Karyer chuqurligi, m	Karyer borti so'nggi qiyalik burchagi, grad	Pog'ona balandligi, m	Qatlam yotish burchagi, grad	
					Ostki	Ustki
1	Sh <sub>t.</sub> = 40	H <sub>k</sub> = 230	β = 45	H <sub>p</sub> = 15	γ <sub>ost</sub> = 16	γ <sub>ust</sub> = 16
2	Sh <sub>t.</sub> = 35	H <sub>k</sub> = 250	β = 40	H <sub>p</sub> = 16	γ <sub>ost</sub> = 20	γ <sub>ust</sub> = 20
3	Sh <sub>t.</sub> = 45	H <sub>k</sub> = 220	β = 35	H <sub>p</sub> = 15	γ <sub>ost</sub> = 15	γ <sub>ust</sub> = 15
4	Sh <sub>t.</sub> = 30	H <sub>k</sub> = 230	β = 40	H <sub>p</sub> = 14	γ <sub>ost</sub> = 12	γ <sub>ust</sub> = 12

Nazorat savollari:

1. Ochiq kon ishlari to‘g‘risida qanday asosiy ma’lumotlarni bilasiz?
2. Konlarni ochiq usulda qazib olishning afzalllik va kamchiliklari haqida gapirib bering?
3. Ochiq usulda qazib olinadigan konlarning yotish sharoitlari haqida nima bilasiz?
4. Kon-texnik ma’lumotlar va karyer elementlarini tushuntirib bering.
5. Konlarni ochiq usulda qazib olish bosqichlari haqida ma’lumot bering.
6. Ochish koeffitsiyenti va uning turlari haqida bat afsil so‘zlab bering.

### 3 – amaliy mashg‘ulot

#### Karyerda kon ishlarining chuqurlashish tezligi (V<sub>chuq.</sub>) ni aniqlash

Gorizontal va yotiqlik konlarda ish fronti surilishining tezligi  $V_f$  foydali qazilmani qazib olishdagi ekskavatorlarning unum dorligi  $Q_{yil}$  bo‘yicha aniqlanishi mumkin.

$$V_f = \frac{Q_{yil}}{hL\sigma}$$

Bunda

$h$  – foydali qazilma pog‘onasi balandligi, m;  $L_b$  – foydali qazilmani qazib oladigan ekskavator blokining uzunligi, m.


Karyer chuqurlashish tezligi kesuvchi transheyani ochilayotgan foydali qazilma gorizontidan o'tish vaqtiga bog'liq bo'ladi (4 – rasm).

Kesuvchi transheyani bir tomonlama rivojlanib borishida karyerning chuqurlashish tezligi  $V_f$  quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V'_\phi = \frac{Q_{\text{yil}}}{L_\delta (\mathbf{B}_{\kappa.m} + B_\delta + L_{u.m} + 3hctg\alpha)}$$

Ikki tomonlama rivojlanganda esa

$$V''_\phi = \frac{Q_{\text{yil}}}{L_\delta (\mathbf{B}_{\kappa.m} + 2L_{u.m} + 4h)}$$



4 - rasm. Karyer konturida kon ishlaringin bir tomonlama (a), ikki tomonlama (b) rivojlanishida chuqurlashish tezligini va pog'onalar sonini aniqlash sxemasi.

Bunda:  $Q_{\text{yil}}$  – qiya va kesuvchi transheyalar o'tishdagi ekskavatorlarning yillik unumдорлиги,  $\text{m}^3/\text{yil}$ ;

$L_b$  – ekskavator bloki uzunligi, m;  $V_{k.t.}$  – kesuvchi transheya tubining kengligi, m;  $V_b$  – blok kengligi, m;  $L_{i.m.}$  – ish fronti uzunligi, m;  $h$  – ochilayotgan gorizont balandligi, m;  $\alpha$  – pog'ona qiyalik burchagi, gradus. Konchilik amaliyatida karyerning yillik chuqurlashish tezligi temir yo'l transporti qo'llanilganda 5 – 10 m/yilni, avtotransportdan foydalanilganda 15 – 20 m/yilni tashkil qiladi.

Gorizontal va yotiqlik konlarni qazib olishda karyerdagi ishchi pog'onalar soni qazish texnologiyasi va unda qo'llanayotgan qazib-

yuklash mashinalari parametrlari bo'yicha aniqlanadi, ularning soni karyer maydonidagi barcha zaxirani qazib olguncha qariyb o'zgarmaydi.

Qiya va o'ta qiya konlarni qazib olishda ishchi pog'onalar soni karyer maydonini plandagi o'lchamlariga bog'liq ishchi zonaning profildagi o'lchamlari va karyerning tugatilish vaqtidagi ishlaydigan yonbag'ri qiyalik burchagi bo'yicha aniqlanadi. Uning soni karyerning ishlaydigan yonbag'ri karyer chegarasi tomon maksimal surilib borishi mobaynida oshib boradi.

**Berilgan:** Karyerda ikki bortli bo'ylama qazish tizimi qo'llaniladi; pog'onadagi qazish frontining o'rtacha uzunligi  $L_f = 3000$  m; har bir pog'onada ikkita ekskavator ishlaydi ( $n_e = 2$ ), ularning yillik unumdarligi  $Q_{e.yil} = 2,0$  mln.m<sup>3</sup>; kesuvchi transheya tubining kengligi  $v_{kes.tr.} = 30$  m; pog'ona ishchi maydoni kengligi  $Sh_{ish.may.keng.} = 50$  m; qazib olinayotgan pog'ona balandligi  $H_p = 15$  m; ishchi bort pog'onalarining yotqiziq ustki va ostki yonlari bo'yicha qiyalik burchagi o'zaro teng  $\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 75^\circ$ ;

**Yechish:** Karyerda kon ishlarining chuqurlashish tezligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V_{chuq} = \frac{Q_{e.yil}}{L_f \cdot [v_{kes.tr.} + 2Sh_{ish.may.keng.} + 2H_p \cdot (\operatorname{ctg} \alpha_{u.q.} + \operatorname{ctg} \alpha_{o.q.})]} \quad \text{m}^3/\text{yil}$$

$$\frac{2000000}{1500 \cdot [30 + 2 \cdot 50 + 2 \cdot 50(\operatorname{ctg} 75^\circ + \operatorname{ctg} 75^\circ)]} \approx 9 \text{ m/yil}$$

Bunda:  $L_b$  – ekskavator bloki uzunligi, m.

$$L_b = \frac{L_f}{n_e} = \frac{3000}{2} = 1500 \text{ m}$$

## Mustaqil yechish uchun misollar

Masala tartib raqami	Ish fronti uzunligi,m	Ish frontida ishlaydigan ekskavatorlar soni	Ekskavator unumtdorligi, mln.m <sup>3</sup> /y	Kesuvchi transheya tubi kengligi, m	Pog‘ona ish maydoni kengligi, m	Pog‘ona balandligi, m	Yotqiziq ostki va ustki qiyalik burchagi, grad
1	$L_f = 4500$	3	$Q_{yil} = 2,0$	$V_{kes.tr.} = 40$	$SH_{ish.may.keng.} = 55$	$H_p = 15$	$\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 75$
2	$L_f = 3600$	2	$Q_{yil} = 1,8$	$V_{kes.tr.} = 30$	$SH_{ish.may.keng.} = 40$	$H_p = 15$	$\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 70$
3	$L_f = 3000$	2	$Q_{yil} = 1,5$	$V_{kes.tr.} = 35$	$SH_{ish.may.keng.} = 50$	$H_p = 12$	$\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 80$
4	$L_f = 2000$	1	$Q_{yil} = 1,0$	$V_{kes.tr.} = 25$	$SH_{ish.may.keng.} = 30$	$H_p = 11$	$\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 75$
5	$L_f = 5000$	3	$Q_{yil} = 2,5$	$V_{kes.tr.} = 50$	$SH_{ish.may.keng.} = 45$	$H_p = 18$	$\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 70$

Nazorat savollari:

1. Karyer maydoni deganda nimani tushunasiz?
2. Karyer maydonini ochish usullari, sxemalari va ularning qo‘llanish sharoitlarini so‘zlab bering.
3. Kapital transheyalarning asosiy elementlarini nimalar tashkil qiladi?
4. Pog‘ona kon ishlari frontining tiplari (turlari) va ulardan samarali foydalanishni tushuntiring.
5. Karyer maydonini ochishning nazariy asoslarini yaratishda xizmat ko‘rsatgan olimlar nazariyasi haqida tushuncha bering.

## 4 – amaliy mashg‘ulot

### Geometrik to‘g‘ri shakldagi konlar uchun chuqurligini analitik usulda aniqlash

Iqtisodiy jihatdan ochiq usulda kon qazish samaradorligini belgilovchi ochish koeffitsiyenti-chegaraviy ochish koeffitsiyenti deb ataladi va u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{\text{cheg}} = \frac{C_{\text{yer}} - C_{\text{ochiq}}}{C_{\text{qop.jins}}}$$

bunda  $C_{\text{yer}}$ - bir birlikdagi ( $t$  yoki  $m^3$ ) foydali qazilmani yer osti usulida qazib chiqarishga sarflanadigan xarajat (mahsulot tannarxi), so‘m;  $C_{\text{ochiq}}$ - bir birlikdagi foydali qazilmani ochiq usulda qazib chiqarishga sarflanadigan xarajat (mahsulot tannarxi), so‘m.

Konchilik amaliyotida bir birlikdagi foydali qazilmani yer osti usulida qazib olish tannarxi ochiq usuldagiga qaraganda katta yoki teng bo‘lishi mumkin, ya’ni  $C_{\text{yer}} \geq C_{\text{ochiq}}$ . Ochiq usulda qazib olingan foydali qazilma tannarxi foydali qazilmaning o‘zini qazib olishga ketgan xarajatlar ( $C_{\text{ochiq}}^1$ ) bilan qoplama jinslarni qazib olishga sarflangan xarajatlar ( $C_{\text{qop.jins}}$ ) yig‘indisidan tashkil topadi

$$C_{\text{ochiq}} = C_{\text{ochiq}}^1 + K_{\text{jor}} C_{\text{qop.jins}}$$

bunda:  $K_{\text{jor}}$  - joriy ochish koeffitsiyenti.

**Berilgan:** Temir yo‘l transporti qo‘llanadi. Foydali qazilma yotqizig‘i qalinligi  $M_x = 40$  m; jins qatlami qalinligi  $m_x = 4$  m; ochiq usulda qazib olinadigan  $1 m^3$  foydali qazilmaning rejadagi tannarxi  $C_{\text{ochiq}} = 4000$  so‘m;  $1 m^3$  foydali qazilmani yer osti usulida qazib olishning rejadagi tannarxi  $C_{\text{yer osti}} = 16000$  so‘m;  $1 m^3$  qoplama jinsni qazib olib, ag‘darmaga joylashtirish xarajatlari  $C_{\text{q.j.}} = 1100$  so‘m; Yotqiziq ustki va ostki qiya  $\alpha_{\text{u.q.}} = \alpha_{\text{o.q.}} = 18^0$ , oqindi jinslarning qalinligi  $h_{\text{oq}} = 20$  m.

**Yechish:** 1) Joriy va chegaraviy ochish koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$K_{\text{jor}} \leq K_{\text{cheg.}} = \frac{C_{\text{yer osti}} - C_{\text{ochiq}}}{C_{\text{qop.jins}}} = \frac{1600 - 4000}{1100} \cong 11 m^3 / m^3$$

2) Agar yer yuzi tekis bo‘lsa,  $K_m^x$  quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_m^x = \frac{H_m^x \cdot (ctg \gamma_u^x + ctg \gamma_o^x) + m \alpha}{M_x - m_x}, m^3 / m^3$$

$K_m$  miqdorini o‘rniga qo‘yib, tenglamani  $H_m^x$  ga nisbatan yechilsa, karyer chuqurligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$H_m = \frac{(C_{yer\ osti} - C_{ochiq}) \cdot (M_x - m_x) - C_{qop.\ jins} \cdot m_x}{C_{qop.\ jins} \cdot (ctg \gamma_u^x + ctg \gamma_o^x)} =$$

$$= \frac{(16000 - 4000) \cdot (40 - 4) - 1100 \cdot 4}{1100 \cdot (ctg 18^\circ + ctg 18^\circ)} =$$

$$= \frac{12000 \cdot 36 - 1100 \cdot 4}{1100 \cdot 5,8} \cong 67m$$

### Mustaqil yechish uchun misollar

1. Foydali qazilma tanasining qalinligi  $M_x = 30m$ ; qoplama jins qatlami qalinligi  $m_x = 5 m$ ; ochiq usulda qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{ochiq} = 5000$  so‘m; yer osti usulida qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{yer\ osti} = 18000$  so‘m;  $1m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{q.j.} = 1200$  so‘m; foydali qazilma yotqizig‘ining qiyalik burchagi  $\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 18$  grad; oqindi jinslarning qalinligi  $h_{oq} = 20 m$ ;
2. Foydali qazilma tanasining qalinligi  $M_x = 50m$ ; qoplama jins qatlami qalinligi  $m_x = 8 m$ ; ochiq usulda qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{ochiq} = 4500$  so‘m; yer osti usulida qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{yer\ osti} = 2000$  so‘m;  $1m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{q.j.} = 1500$  so‘m; foydali qazilma yotqizig‘ining qiyalik burchagi  $\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 18$  grad; oqindi jinslarning qalinligi  $h_{oq} = 25 m$ ;
3. Foydali qazilma tanasining qalinligi  $M_x = 20m$ ; qoplama jins qatlami qalinligi  $m_x = 4 m$ ; ochiq usulda qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{ochiq} = 5500$  so‘m; yer osti usulida qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{yer\ osti} = 21000$  so‘m;  $1m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{q.j.} = 2000$  so‘m; foydali qazilma yotqizig‘ining qiyalik burchagi  $\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 18$  grad; oqindi jinslarning qalinligi  $h_{oq} = 30 m$ ;
4. Foydali qazilma tanasining qalinligi  $M_x = 25m$ ; qoplama jins qatlami qalinligi  $m_x = 6 m$ ; ochiq usulda qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{ochiq} = 4000$  so‘m; yer osti usulida qazib olingan  $1m^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{yer\ osti} = 14000$  so‘m;  $1m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{q.j.} = 1300$  so‘m; foydali qazilma yotqizig‘ining qiyalik burchagi  $\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 18$  grad; oqindi jinslarning qalinligi  $h_{oq} = 35 m$ ;

5. Foydali qazilma tanasining qalinligi  $M_x = 35\text{m}$ ; qoplama jins qatlami qalinligi  $m_x = 7 \text{ m}$ ; ochiq usulda qazib olingan  $1\text{m}^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{\text{ochiq}} = 6000 \text{ so'm}$ ; yer osti usulida qazib olingan  $1\text{m}^3$  foydali qazilma tannarxi  $C_{\text{yer osti}} = 19000 \text{ so'm}$ ;  $1\text{m}^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{\text{q.j.}} = 1200 \text{ so'm}$ ; foydali qazilma yotqizig‘ining qiyalik burchagi  $\alpha_{\text{u.q.}} = \alpha_{\text{o.q.}} = 18 \text{ grad}$ ; oqindi jinslarning qalinligi  $h_{\text{oq}} = 40 \text{ m}$ ;

Nazorat savollari:

1. Ochiq kon ishlari to‘g‘risida asosiy ma’lumotlar?
2. Chegaraviy ochish koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz?
3. Ochiq usulda qazib olinadigan konlarning yotish sharoitlari haqida nima bilasiz?
4. Kon-texnik ma’lumotlar va karyer elementlarini tushuntiring.
5. Joriy ochish koeffitsiyentini tushuntirib bering.
6. Ochish koeffitsiyenti va uning turlari deganda nimani tushunasiz?
7. Karyerning chegaraviy chuqurligi qaysi akademik tavsiya etgan usulda aniqlanadi?
8. Ochiq kon ishlari jarayonlari va davrlari to‘g‘risida gapirib bering.

## **5 – amaliy mashg‘ulot**

### **Geometrik to‘g‘ri shakldagi konlar uchun karyerning chegaraviy chuqurligini aniqlash (akad. V.V. Rjevskiy bo‘yicha)**

Grafik usulda karyerning chegaraviy chuqurligini aniqlash:

- a) taxmin qilingan karyer chuqurligida qatlam qalinligi  $M$  o‘lchab aniqlanadi;
- b) foydali qazilma yotqizig‘i geologik profilining istalgan A nuqtasidan boshlab gorizontal qalinlikni chegaraviy ochish koeffitsiyentiga bo‘lgan ko‘paytmasi ( $M \cdot K_{\text{cheq.}}$ ) miqdori (uzunligi) qo‘yilib, B nuqtasi aniqlanadi;
- s) A va B nuqtalaridan  $\gamma_{\text{ust.}}$  va  $\gamma_{\text{ost.}}$  burchaklar bo‘yicha “0” nuqtagacha to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi;
- d) “0” nuqta bo‘yicha qatlaming gorizontal qalinligi  $m_1$  aniqlanadi. Agar  $M \neq M_1$  bo‘lsa,  $M_1 \cdot K_{\text{cheq.}}$  aniqlanib, A nuqtasidan boshlab qo‘yiladi va  $B_1$  nuqtasi aniqlanadi;

f)  $B_1$  nuqtasi uchun “B” punkti qaytariladi va  $H_{chuq}$  karyer chuqurligi aniqlanadi.

**Berilgan:** karyer tubi kengligi  $Sh_{ish.may.keng.} = 30$  m; karyerning har ikkala bortining karyer tugatilayotgan vaqtidagi qiyalik burchaklari o‘zaro teng  $\alpha_{u.q.} = \alpha_{o.q.} = 40^0$ .

**Yechish:** Karyer chegaraviy chuqurligi shunday chuqurlikki, undan chuqurda joylashgan foydali qazilmani ochiq usulda qazib olish yer osti usulida qazib olishga nisbatan ko‘proq sarf-xarajat talab etadi, ya’ni  $C_{ochiq} > C_{yer osti}$  bo‘ladi.

Akademik V.V. Rjevskiy usuli bo‘yicha karyerning chegaraviy chuqurligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$H_k = \frac{(B - Sh_{tub}) \cdot \sin \gamma_o \cdot \sin \gamma_u}{\sin \cdot (\gamma_u + \sin \gamma_o)}, m$$

$V$  – karyerning yer yuzi bo‘yicha kengligi, m

$$V = Sh_{tub} + H_m \cdot (\operatorname{ctg} \gamma_u + \operatorname{ctg} \gamma_o) = 30 + 67 \cdot (\operatorname{ctg} 18^0 + \operatorname{ctg} 18^0) = 30 + 67 \cdot 5,8 = 420 \text{ m}$$

bunda  $H_m$  – karyerning joriy ochish koeffitsiyenti bo‘yicha aniqlangan chuqurligi, m (konkret sharoit uchun 67 m);

$\gamma_u = \gamma_o = 18^0$  – yotqiziqning uski va ostki yonlari bo‘yicha ishchi bortining qiyalik burchagi, grad

$$H_k = \frac{(420 - 30) \cdot \sin 40^\circ \cdot \sin 40^\circ}{\sin \cdot (40^\circ + 40^\circ)} =$$

$$\frac{390 \cdot 0,41}{0,98} = 162 \text{ m}$$

## Mustaqil yechish uchun misollar

Masala tartib raqami	Karyer tubi kengligi, m	Kon yotqizig‘i ustki va ostki yonlari bo‘yicha ishchi bort qiyalik burchagi, grad	Qazish tizimi, qo‘llanadigan transport vositasi	Karyerni tugatish vaqtidagi qiyalik burchagi, grad
1	$Sh_{tub} = 25$	$\gamma_u = \gamma_o = 40$	Ikki tomonlama, bo‘ylama. Temir yo‘l	$\alpha_u = \alpha_o = 18$
2	$Sh_{tub} = 35$	$\gamma_u = \gamma_o = 45$	Ikki tomonlama, bo‘ylama. Temir yo‘l	$\alpha_u = \alpha_o = 20$
3	$Sh_{tub} = 40$	$\gamma_u = \gamma_o = 35$	Ikki tomonlama, bo‘ylama. Temir yo‘l	$\alpha_u = \alpha_o = 22$
4	$Sh_{tub} = 30$	$\gamma_u = \gamma_o = 40$	Ikki tomonlama, bo‘ylama. Temir yo‘l	$\alpha_u = \alpha_o = 16$

Nazorat savollari:

1. Konlarni ochiq usulda qazib oluvchi korxonalar nomi va ularning asosiy elementlarini aytib bering.
2. “Chegaraviy ochish koeffitsiyenti” deganda nimani tushunasiz?
3. Qazish tizimida qo‘llanadigan transport vositasiga nimalar kiradi?
4. Karyerni tugatish vaqtidagi qiyalik burchagi deganda nimani tushunasiz?
5. Ochiq kon ishlarining tabiiy sharoitlarga bog‘liq ekanligini tushuntirib bering.

### 6 – amaliy mashg‘ulot

#### Qatlamsimon konlarni ochiq usulda qazib olishda karyerning chegaraviy chuqurligini aniqlash

Kon qazish ishlari olib boriladigan karyer yonbag‘ri ishchi yonbag‘ir, faqat transport vositalari harakatlanishiga xizmat qiluvchi yonbag‘ir esa ishlamaydigan yonbag‘ir deb yuritiladi. Karyer asosi (tubi) bilan usti o‘rtasidagi o‘rtacha masofa karyer chuqurligini tashkil

qiladi. Konlarni ochiq usulda qazib olishda kon yotqizig‘i va qoplama jinslar gorizontal qatlamlarga ajratib qazib olinadi. Bunda ustki qatlamni ostki qatlamdan o‘zdirib qaziladi. Shu sababli karyer yonbag‘ri pog‘onasimon ko‘rinishga ega bo‘ladi. Pog‘onasimon ko‘rinishga ega bo‘lgan har bir jins yoki foydali qazilma qatlami pog‘ona deb ataladi.

Konlarni ochiq usulda qazib olishda foydali qazilma yotqizig‘i ustidan yoki yon tomonlaridan olib tashlanadigan qoplama jins hajmini baholashda “Ochish koeffitsiyenti” katta ahamiyatga egadir. Ochish koeffitsiyenti  $K_{och}$  – bir birlikdagi foydali qazilmani qazib olish uchun necha birlikdagi qoplama jinslarni qazib olib, kon yotqizig‘ini ochish kerakligini ifodalaydi. Konchilik amaliyotida ushbu koeffitsiyentning turli ko‘rinishlaridan foydalaniлади, ularning asosiyлари – o‘rtacha ochish koeffitsiyenti  $K_{o.c.o.}$ , joriy ochish koeffitsiyenti  $K_{j.o.}$ , chegaraviy ochish koeffitsiyenti  $K_{ch.o.}$  va boshqalar.

Gorizontal yoki yotiқ (kichik og‘ish burchagiga ega –  $12^{\circ}$  gacha) konlarni ochiq usulda qazib olishda karyer chuqurligi qatlam asosining balandlik belgisi yoki qoplama jinslar va foydali qazilma qatlamlari qalinligining yig‘indisi bo‘yicha aniqlanadi, ya’ni

$$N_{k.k} = h_{qop} + h_{foyd}.$$

bunda

$h_{qop}$  – qoplama jinslar qalinligi, m;  $h_{foyd}$  – foydali qazilma qatlami qalinligi, m.

Gorizontal, yotiқ, qiya va o‘ta qiya kon yotqiziqlarini ochiq usulda qazib olish samaradorligini ta’minlovchi karyer chuqurligini aniqlashda ochish koeffitsiyenti deb ataladigan maxsus ko‘rsatkichdan keng foydalaniлади.

**Berilgan:** yotqiziq qalinligi  $m = 56$  m; karyer tubi kengligi  $V_{tub} = 40$  m; karyer uzunligi  $L_{uzun} = 2000$  m; chegaraviy koeffitsiyenti  $K_{chege.} = 9,2 \text{ m}^3/\text{m}^3$ ; yotqiziqning og‘ish burchagi  $\beta_z = 70^{\circ}$ ; foydali qazilmaning zinchligi  $\rho_p = 2,8t/\text{m}^3$ ; oqindi jinslar qalinligi  $h_{oq} = 18$  m; karyerning bort qiyaligi  $\beta_n = 39^{\circ}$ .

**Yechish:** 1) Yotqiziqning gorizontal qalinligini aniqlaymiz:

$$m_{gor.} = \frac{m}{\sin \beta_z} = \frac{56}{\sin 70^{\circ}} = 60m$$

2) Karyer tubi perimetrini aniqlaymiz:

$$R = (L_{uzun} + V_{tub}) \cdot 2 = (2000+40) \cdot 2 = 4080 \text{ m}$$

3) Karyer tubi maydoni yuzasini aniqlaymiz:

$$S = L_{uzun} \cdot V_{tub} = 2000 \cdot 40 = 80000 \text{ m}$$

4) Quyidagi ifoda orqali karyerning chegaraviy chuqurligini aniqlaymiz:

$$H_{k.k.} = \frac{-P + \sqrt{P^2 - 4\pi [ -m_2 \cdot L_o \cdot (1 + K_{chegar.}) ]}}{2\pi ctg\beta_h}$$

$$= \frac{-4080 + \sqrt{4080^2 - 4 \cdot 3,14 [ 0000 - 60 \cdot 2000(1 + 9,2) ]}}{2 \cdot 3,14 \cdot ctg 39^\circ}$$

$$= 203m$$

### **Mustaqil yechish uchun misollar**

1. Karyer tubi kengligi  $V_{tub} = 30 \text{ m}$ ; karyer uzunligi  $L_{uzun} = 1500 \text{ m}$ ; chegaraviy ochish koeffitsiyenti  $K_{chege} = 10 \text{ m}^3/\text{m}^3$ ; qatlam og'ish burchagi  $\beta_z = 70 \text{ grad.}$ ; foydali qazilma zichligi  $\rho_z = 2,8 \text{ t/m}^3$ ; qatlam qalinligi  $m = 50 \text{ m}$ ; oqindi jinslar qalinligi  $h_{oq} = 16 \text{ m}$ ; karyer borti qiyalik burchagi  $\beta_n = 39 \text{ grad.}$ ;
2. Karyer tubi kengligi  $V_{tub} = 35 \text{ m}$ ; karyer uzunligi  $L_{uzun} = 1800 \text{ m}$ ; chegaraviy ochish koeffitsiyenti  $K_{chege} = 9,5 \text{ m}^3/\text{m}^3$ ; qatlam og'ish burchagi  $\beta_z = 75 \text{ grad.}$ ; foydali qazilma zichligi  $\rho_z = 2,6 \text{ t/m}^3$ ; qatlam qalinligi  $m = 40 \text{ m}$ ; oqindi jinslar qalinligi  $h_{oq} = 18 \text{ m}$ ; karyer borti qiyalik burchagi  $\beta_n = 38 \text{ grad.}$ ;
3. Karyer tubi kengligi  $V_{tub} = 38 \text{ m}$ ; karyer uzunligi  $L_{uzun} = 2000 \text{ m}$ ; chegaraviy ochish koeffitsiyenti  $K_{chege} = 8,3 \text{ m}^3/\text{m}^3$ ; qatlam og'ish burchagi  $\beta_z = 72 \text{ grad.}$ ; foydali qazilma zichligi  $\rho_z = 2,5 \text{ t/m}^3$ ; qatlam qalinligi  $m = 45 \text{ m}$ ; oqindi jinslar qalinligi  $h_{oq} = 20 \text{ m}$ ; karyer borti qiyalik burchagi  $\beta_n = 40 \text{ grad.}$ ;
4. Karyer tubi kengligi  $V_{tub} = 40 \text{ m}$ ; karyer uzunligi  $L_{uzun} = 2200 \text{ m}$ ; chegaraviy ochish koeffitsiyenti  $K_{chege} = 9 \text{ m}^3/\text{m}^3$ ; qatlam og'ish burchagi  $\beta_z = 70 \text{ grad.}$ ; foydali qazilma zichligi  $\rho_z = 3,0 \text{ t/m}^3$ ; qatlam

qalinligi  $m = 55$  m; oqindi jinslar qalinligi  $h_{oq} = 18$  m; karyer borti qiyalik burchagi  $\beta_n = 38$  grad.

Nazorat savollari:

1. Pog'ona deganda nimani tushunasiz va uning asosiy elementlarini gapirib bering?
2. Gorizontal, yotiq, qiya va o'ta qiya kon yotqiziqlarini ochiq usulda qazib olish samaradorligini ta'minlovchi karyer chuqurligini aniqlashni qanday atama bilan ataymiz?
3. Qoplama jinslar miqdori ochish koeffitsiyentini tavsiflaydi va bu koeffitsiyent qanday birliklarda o'lchanadi?
4. Gorizontal yoki yotiq konlarni ochiq usulda qazib olishda kichik og'ish burchagi necha grad. bo'lishi mumkin?
5. Karyerni qurish davri haqida tushuncha bering.
6. Karyer chuqurligi necha xil usulda aniqlanadi?

## 7 – amaliy mashg'ulot

### Karyerning o'rtacha ochish koeffitsiyentini aniqlash

Ochish koeffitsiyenti qator ko'rinishlarga ega. O'rtacha ochish koeffitsiyenti karyerning so'nggi chegaralaridagi qoplama jinslar hajmi ( $V_{qop}$ ) ni foydali qazilma hajmi ( $V_{foyd}$ ) ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_{o\cdot rt} = \frac{V_{qop}}{V_{foyd}}.$$

Karyerni qurish vaqtida ma'lum hajmdagi qoplama jins va foydali qazilma qazib olingani tufayli karyerni ekspluatatsiya qilishga topshirish vaqtida o'rtacha ochish koeffitsiyenti quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{o\cdot rt} = \frac{V_{qop} - V_{qop\cdot qurish}}{V_{foyd} - V_{foyd\cdot qurish}}$$

bunda  $V_{qop\cdot qurish}$  – karyerni qurish davrida qazib olingan qoplama jinslar hajmi,  $m^3$ ;  $V_{foyd\cdot qurish}$  – karyerni qurish davomida yo'l-yo'lakay qazib olingan foydali qazilma hajmi,  $m^3$ .

Yer yuziga yaqin (chuqurligi 30-45m) joylashgan gorizontal konlarni kichik o'lchamlarga ega bo'lgan karyerlar bilan qazib olinganda, o'rtacha ochish koeffitsiyenti quyidagi ifoda bilan aniqlanishi mumkin.

$$1. K_{o'rt} = \frac{h_{qop}}{h_{foyd}}$$

bunda  $h_{qop}$  – qoplama jinslar qalinligi, m;  $h_{foyd}$  – foydali qazilma qalinligi, m.

**Berilgan:** Karyer loyihaviy konturdagi qoplama jinslar hajmi  $V_{q.j.} = 450000$  ming  $m^3$ ; karyer maydonidan qazib olinadigan foydali qazilma miqdori  $Q_{f.q.} = 75000$  ming  $m^3$ ; qoplama jinslarning o'rtacha hajm og'irligi  $\gamma_{q.j.} = 2,5$  t/ $m^3$ ; foydali qazilmaning hajm og'irligi  $\gamma_{f.q.} = 1,6$  t/ $m^3$ .

**Yechish:** 1. O'rtacha ochish koeffitsiyentini hajm birligida aniqlaymiz:

$$K_{o'r.ochish.} = \frac{V_{qop.jins.}}{Q_{foyd.qaz.}} = \frac{450000}{75000} = 6 \text{ } m^3/m^3$$

O'rtacha ochish koeffitsiyentini og'irlik birligida aniqlaymiz:

$$K_{o'r.ochish.} = \frac{450000 \cdot 2,5}{75000 \cdot 1,6} = 9,3 \text{ } m/m$$

O'rtacha ochish koeffitsiyentini aralash o'lcham birligida aniqlaymiz:

$$K_{o'.aral.} = \frac{450000}{120000} = 3,75 \text{ } m^3/t.$$

### Mustaqil ishlash uchun misollar

1. Karyer maydonidan qazib olinadigan qoplama jinslar hajmi  $V_{q.j.} = 350000000$   $m^3$ ; karyer maydonidan qazib olinadigan foydali qazilma miqdori  $Q_{f.q.} = 65000000$   $m^3$ ; qoplama jinslarning o'rtacha hajm og'irligi  $\gamma_{q.j.} = 1,8$  t/ $m^3$ ; foydali qazilmaning hajm og'irligi  $\gamma_{f.q.} = 2,3$  t/ $m^3$ ;
2. Karyer maydonidan qazib olinadigan qoplama jinslar hajmi  $V_{q.j.} = 180000000$   $m^3$ ; karyer maydonidan qazib olinadigan foydali qazilma miqdori  $Q_{f.q.} = 80000000$   $m^3$ ; qoplama jinslarning o'rtacha hajm og'irligi  $\gamma_{q.j.} = 2,4$  t/ $m^3$ ; foydali qazilmaning hajm og'irligi  $\gamma_{f.q.} = 1,3$  t/ $m^3$ ;
3. Karyer maydonidan qazib olinadigan qoplama jinslar hajmi  $V_{q.j.} = 400000000$   $m^3$ ; karyer maydonidan qazib olinadigan foydali qazilma miqdori  $Q_{f.q.} = 50000000$   $m^3$ ; qoplama jinslarning o'rtacha hajm og'irligi  $\gamma_{q.j.} = 2,6$  t/ $m^3$ ; foydali qazilmaning hajm og'irligi  $\gamma_{f.q.} = 2,0$  t/ $m^3$ ;

4. Karyer maydonidan qazib olinadigan qoplama jinslar hajmi  $V_{q.j.} = 700000000 \text{ m}^3$ ; karyer maydonidan qazib olinadigan foydali qazilma miqdori  $Q_{f.q.} = 12000000 \text{ m}^3$ ; qoplama jinslarning o'rtacha hajm og'irligi  $\gamma_{q.j.} = 2,3 \text{ t/m}^3$ ; foydali qazilmaning hajm og'irligi  $\gamma_{f.q.} = 3,5 \text{ t/m}^3$ ;
5. Karyer maydonidan qazib olinadigan qoplama jinslar hajmi  $V_{q.j.} = 150000000 \text{ m}^3$ ; karyer maydonidan qazib olinadigan foydali qazilma miqdori  $Q_{f.q.} = 40000000 \text{ m}^3$ ; qoplama jinslarning o'rtacha hajm og'irligi  $\gamma_{q.j.} = 1,6 \text{ t/m}^3$ ; foydali qazilmaning hajm og'irligi  $\gamma_{f.q.} = 1,8 \text{ t/m}^3$ .

Nazorat savollari:

1. "O'rtacha ochish koeffitsiyenti" deganda nimani tushunasiz?
2. Foydali qazilma konlarining qazib olish texnologiyasi liniyasini tashkil qiluvchi jarayonlar to'g'risida aytib bering.
3. Qazib olingan foydali qazilma sifatiga qo'yiladigan talablar, foydali qazilmaning yo'qotilishi va sifatsizlanishi to'g'risida so'zlab bering.
4. Hozirgi vaqtida karyerlarda foydalanylayotgan qazish tizimlarining asosiy parametrlarini so'zlab bering.
5. O'zbekistondagi gorizontal, qiya va o'ta qiya konlarni qazib olishda transportsiz hamda trasportli (aralash) qazish tizimlarini takomillash-tirish yo'llarini so'zlab bering.

## 8 – amaliy mashg'ulot

### **Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda joriy ochish koeffitsiyentini aniqlash**

Ma'lum vaqt birligi (yil, kvartal, oy) ichida karyerdan qazib olingan qoplama jins hajmi ( $V_{qop.jor}$ ) ning shu vaqt ichida qazib olingan foydali qazilma ( $V_{foy.d.jor}$ ) ga nisbati joriy ochish koeffitsiyenti deb ataladi va u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{jor} = \frac{V_{qop.jor}}{V_{foy.d.jor}}$$

O'rtacha ochish koeffitsiyentidan farqli o'laroq, joriy ochish koeffitsiyenti belgilangan karyer chegaralari hududida yillar davomida, hattoki, yil fasllarida ham o'zgarib turadi (masalan, yoz kunlarida ko'payib, kuz va qishda kamayadi).

**Berilgan:** Ma'lum bir vaqt birligi (oy, kvartal, yarim yil va h.k.) ichida foydali qazilma ustini ochish uchun qazib olingan qoplama jins

hajmining, shu vaqt ichida qazib olingan foydali qazilma miqdoriga nisbati joriy ochish koeffitsiyentini ifodalaydi.

Bir yilda razrezdan qazib olingan ko‘mir miqdori  $Q_k = 8000000$  tonna; qoplama jins hajmi esa  $V_{q.j.} = 32000000 \text{ m}^3$ . Ko‘mirning zichligi  $\gamma_k = 1,2 \text{ t/m}^3$ ; qoplama jinslarning o‘rtacha zichligi (hajm og‘irligi)  $\gamma_{q.j.} = 2,2 \text{ t/m}^3$ .

**Yechish:** 1. Joriy ochish koeffitsiyentini hajm birligida aniqlaymiz:

$$K_{j.och.} = \frac{V_{q.j.}}{Q_k} = \frac{32000000}{8000000} = 4 \text{ m}^3 / \text{m}^3$$

2. Joriy ochish koeffitsiyentini og‘irlik birligida aniqlaymiz:

$$K_{j.och.} = \frac{V_{q.j.} \cdot \gamma_{q.j.}}{Q_k \cdot \gamma_k} = \frac{32000000 \cdot 2,2}{8000000 \cdot 1,2} = 7,3 \text{ m} / \text{m}$$

3. Joriy ochish koeffitsiyentini aralash birlikda aniqlash:

$$V_{j.och.} = \frac{V_{q.j.}}{Q_k \cdot \gamma_k} = \frac{32000000}{8000000 \cdot 1,2} = 3,3 \text{ m}^3 / \text{t.}$$

### Mustaqil yechish uchun misollar

1. Karyerdan bir yilda qazib olingan ko‘mir miqdori  $Q_k = 6000000 \text{ m}^3$ ; bir yilda qazib olingan qoplama jins hajmi  $V_{q.j.} = 48000000 \text{ m}^3$ ; foydali qazilma va qoplama jinslarning hajm og‘irligi: qoplama jins uchun  $\gamma_{q.j.} = 2,4$ ; ko‘mir uchun  $\gamma_k = 1,35 \text{ t/m}^3$ ;
2. Karyerdan bir yilda qazib olingan ko‘mir miqdori  $Q_k = 4000000 \text{ m}^3$ ; bir yilda qazib olingan qoplama jins hajmi  $V_{q.j.} = 18000000 \text{ m}^3$ ; foydali qazilma va qoplama jinslarning hajm og‘irligi: qoplama jins uchun  $\gamma_{q.j.} = 2,5$ ; ko‘mir uchun  $\gamma_k = 1,2 \text{ t/m}^3$ ;
3. Karyerdan bir yilda qazib olingan ko‘mir miqdori  $Q_k = 5000000 \text{ m}^3$ ; bir yilda qazib olingan qoplama jins hajmi  $V_{q.j.} = 20000000 \text{ m}^3$ ; foydali qazilma va qoplama jinslarning hajm og‘irligi: qoplama jins uchun  $\gamma_{q.j.} = 1,8$ ; ko‘mir uchun  $\gamma_k = 1,1 \text{ t/m}^3$ ;
4. Karyerdan bir yilda qazib olingan ko‘mir miqdori  $Q_k = 3000000 \text{ m}^3$ ; bir yilda qazib olingan qoplama jins hajmi  $V_{q.j.} = 27000000 \text{ m}^3$ ; foydali qazilma va qoplama jinslarning hajm og‘irligi: qoplama jins uchun  $\gamma_{q.j.} = 2,1$ ; ko‘mir uchun  $\gamma_k = 1,2 \text{ t/m}^3$ ;
5. Karyerdan bir yilda qazib olingan ko‘mir miqdori  $Q_k = 10000000 \text{ m}^3$ ; bir yilda qazib olingan qoplama jins hajmi  $V_{q.j.} = 27000000 \text{ m}^3$ ; foydali

qazilma va qoplama jinslarning hajm og‘irligi: qoplama jins uchun  $\gamma_{q.j.} = 2,4$ ; ko‘mir uchun  $\gamma_k = 1,3 \text{ t/m}^3$ .

Nazorat savollari:

1. Hozirgi vaqtda karyerlarda qo‘llanilayotgan qazish tizimlari tasnifini aytib bering.
2. Karyer transportining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Karyerlarda qazib - yuklash ishlarida qo‘llanadigan ekskavatorlarni ishslash prinsiplari bo‘yicha tasniflang.
4. Portlatish skvajinalari, ularning parametrlari va pog‘onada joylashtirish sxemalari to‘g‘risida so‘zlab bering.
5. Ochiq kon ishlarining tabiiy sharoitlarga bog‘liq ekanligini tushuntirib bering.
6. Maydalangan kon massasidagi jins bo‘laklari o‘lchamlariga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.

## **9 – amaliy mashg‘ulot**

### **Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda chegaraviy ochish koeffitsiyentini aniqlash**

Chegaraviy ochish koeffitsiyenti ( $K_{ch.och.}$ ) konlarni ikki usulda – ochiq va yer osti usullarida qazib olish chegarasini belgilovchi ko‘rsatkich bo‘lib, asosan, iqtisodiy mohiyatga egadir va quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{ch.och.} = \frac{C_{yerosti} - C_{ochiq}}{C_{qop.jins}}$$

bunda  $C_{yer osti}$  – bir birlikdagi foydali qazilmani yer osti usulida qazib chiqarish tannarxi, so‘m;  $C_{ochiq}$  – bir birlikdagi foydali qazilmaning o‘zini ochiq usulda qazib chiqarish tannarxi, so‘m;  $C_{q.j.}$  – bir birlikdagi qoplama jinsni qazib olish, tashish va ag‘darmaga joylashtirish tannarxi, so‘m.

**Berilgan:** Bir birlikdagi ( $\text{m}^3$ ) ko‘mirni yer osti usulida qazib chiqarish tannarxi  $C_{yer osti} = 22000 \text{ so‘m}$ ; ochiq usulda qazib chiqarish esa  $C_{ochiq} = 2400 \text{ so‘m}$ ;  $1 \text{ m}^3$  qoplama jinsni qazib olib, ag‘darmaga joylashtirish tannarxi  $C_{q.j.} = 2200 \text{ so‘m}$ . Ko‘mirning zichligi  $\gamma_k = 1,3$ ; qoplama jinslarning zichligi  $\gamma_{q.j.} = 1,8$ .

**Yechish:** 1. Chegaraviy ochish koeffitsiyentini hajm birligida aniqlaymiz:

$$K_{\text{cheg.ochish}} = \frac{22000 - 2400}{2200} = 9 m^3 / m^3$$

Ochish koeffitsiyentini og'irlik birligida aniqlaymiz:

$$K_{\text{och.og'ir.}} = \frac{(22000 - 2400) \cdot 1,3}{2200 \cdot 1,8} = \frac{25480}{3960} \approx 6,5 t / t$$

Ochish koeffitsiyentini aralash o'lcham birligida aniqlaymiz:

$$K_{\text{och.aralash}} = \frac{25480}{2200} = 11,6 m^3 / t.$$

### Mustaqil yechish uchun misollar

1. Bir birlikdagi foydali qazilmani qazib chiqarish tannarxi  $C_{\text{yer osti}} = 18000 \text{ so'm/m}^3$ ; bir birlikdagi foydali qazilmaning o'zini qazib olish tannarxi  $C_{\text{ochiq}} = 2800 \text{ so'm/m}^3$ ;  $1 m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{\text{q.j.}} = 1100 \text{ so'm/m}^3$ ; foydali qazilmaning va qoplama jinslarning zichligi: foydali qazilma uchun  $\gamma_{f.q.} = 1,2$ ; qoplama jinslar uchun  $\gamma_{q.j.} = 2,2 \text{ t/m}^3$ ;
2. Bir birlikdagi foydali qazilmani qazib chiqarish tannarxi  $C_{\text{yer osti}} = 23000 \text{ so'm/m}^3$ ; bir birlikdagi foydali qazilmaning o'zini qazib olish tannarxi  $C_{\text{ochiq}} = 3500 \text{ so'm/m}^3$ ;  $1 m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{\text{q.j.}} = 1400 \text{ so'm/m}^3$ ; foydali qazilmaning va qoplama jinslarning zichligi: foydali qazilma uchun  $\gamma_{f.q.} = 1,1$ ; qoplama jinslar uchun  $\gamma_{q.j.} = 1,9 \text{ t/m}^3$ ;
3. Bir birlikdagi foydali qazilmani qazib chiqarish tannarxi  $C_{\text{yer osti}} = 16000 \text{ so'm/m}^3$ ; bir birlikdagi foydali qazilmaning o'zini qazib olish tannarxi  $C_{\text{ochiq}} = 2900 \text{ so'm/m}^3$ ;  $1 m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{\text{q.j.}} = 1200 \text{ so'm/m}^3$ ; foydali qazilmaning va qoplama jinslarning zichligi: foydali qazilma uchun  $\gamma_{f.q.} = 1,3$ ; qoplama jinslar uchun  $\gamma_{q.j.} = 2,3 \text{ t/m}^3$ ;
4. Bir birlikdagi foydali qazilmani qazib chiqarish tannarxi  $C_{\text{yer osti}} = 20000 \text{ so'm/m}^3$ ; bir birlikdagi foydali qazilmaning o'zini qazib olish tannarxi  $C_{\text{ochiq}} = 3000 \text{ so'm/m}^3$ ;  $1 m^3$  qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{\text{q.j.}} = 1500 \text{ so'm/m}^3$ ; foydali qazilmaning va qoplama jinslarning zichligi: foydali qazilma uchun  $\gamma_{f.q.} = 1,4$ ; qoplama jinslar uchun  $\gamma_{q.j.} = 2,5 \text{ t/m}^3$ ;

5. Bir birlikdagi foydali qazilmani qazib chiqarish tannarxi  $C_{yer\ osti} = 23000$  so‘m/m<sup>3</sup>; bir birlikdagi foydali qazilmaning o‘zini qazib olish tannarxi  $C_{ochiq} = 4500$  so‘m/m<sup>3</sup>; 1m<sup>3</sup> qoplama jinsni qazib olish tannarxi  $C_{q.j.} = 2200$  so‘m/m<sup>3</sup>; foydali qazilmaning va qoplama jinslarning zichligi: foydali qazilma uchun  $\gamma_{f.q.} = 1,25$ ; qoplama jinslar uchun  $\gamma_{q.j.} = 1,9$  t/m<sup>3</sup>.

Nazorat savollari:

1. Foydali qazilma va qoplama jinslar massivini qazishga tayyorlash qanday usullarda amalga oshiriladi?
2. Portlovchi modda sarfini aniqlash tartibi va portlash usullari to‘g‘risida gapirib bering.
- 3 Qazib - yuklash ishlari mazmunini aytib bering.
4. Ekskavatorlarning unumdorligini aniqlash tartibi va hisoblash ifodalarini yozing.
5. Karyer avtomobil yo‘llari va unda harakatlanuvchi avtoag‘dargichlar tavsifini aytib bering.

## **10 – amaliy mashg‘ulot**

### **Karyerlarda bajariladigan jarayonlarning asosiy parametrlarini hisoblash**

Konlarni ochiq usulda qazib olishda kon-kapital, ochish va foydali qazilmani qazib olish asosiy ishlar hisoblanadi. Kon jinslarini qazishga tayyorlash, qazib-yuklash, tashish, ag‘darma hosil qilish va qazib olingan foydali qazilmani omborlarga joylashtirish ishlari konlarni ochiq usulda qazib olishning asosiy jarayonlari hisoblanadi.

Kon massivini qazishga tayyorlash deganda qoplama jins yoki foydali qazilmani turli usullarda massivdan ajratib olish jarayoni tushuniladi.

Karyer (razrez)larda kon massivlarini qazishga tayyorlash mexanik, gidravlik, mexanik-gidravlik va burg‘ilab-portlatish usullarida bajarilishi mumkin.

Konlarni ochiq usulda qazib olish amaliyotida kon massivini qazishga tayyorlashda burg‘ilab-portlatish usulidan keng foydalilanadi. Chunki ko‘pchilik konlardagi qoplama jins massivlari va foydali qazilma (ruda) yotqiziqlari qattiq, qoyasimon va yarimqoyasimon jinslardan tashkil topgan bo‘ladi. Kon jinslarini qazishga tayyorlash

uchun tanlab olingan usul kon massividan ajratib olingan (maydalangan) massadagi jins bo‘laklarining oldindan belgilab qo‘yilgan o‘lchamlarini ta’minlashi kerak.

Kayerlarda qazib-yuklash ishlari kon massasini bevosita massividan yoki maydalangan jinslar uyumidan qazib olib, transport vositalariga yuklashga mo‘ljallangan bo‘lib, bitta qazib-yuklash mashinasi (ekskavator yoki yuklagich) bilan amalga oshiriladi.

Tashish ishlarining asosiy vazifasi katta hajmda kayerdan qazib olingan qoplama jins va foydali qazilmani kayer hududi va undan tashqaridagi qabul qilish punktlariga uzlusiz yetkazib berish bilan bir qatorda kayerdagи kon-transport uskunalarining xavfsiz va yuqori unumdorlik bilan ishlashini ta’minlashdir.

Ag‘darma hosil qilish jarayoni kayerdan qazib olingan qoplama jinslarni maxsus tayyorlangan (kayer hududi yoki undan tashqarida) maydonlarga, foydali qazilmani esa omborlarga joylashtirish ishlarini tashkil qilishdan iborat bo‘lib, ag‘darmadagi mashina mexanizmlarining yuqori unumdorlik bilan xavfsiz ishlashini ta’minlashi lozim.

**Berilgan:** Kayer maydoni bo‘yicha qazib olinadigan mahsuldor qalinlikning miqdori – 800 m; foydali qazilma yotqizig‘i yuqori gorizontidan yer yuzigacha joylashgan qoplama jins qalinligi – 60 m; yotqiziqning quyi gorizonti bilan yer yuzi o‘rtasidagi qoplama jinslarning maksimal qalinligi – 90 m; foydali qazilma yotqizig‘ining plandagi o‘lchamlari 1200x1800 m; pog‘ona ish fronti uzunligi – 900 m; ishchi zona balandligi – 45 m; uchastkaning yuqori chegarasi yer yuzidan 60 m chuqurlikda joylashgan; yuk aylanmasi  $5100 \text{ m}^3/\text{sмена}$ ; qazib olinadigan qoplama jinslarning fizik-texnik xossalari:  $\sigma_{\text{сиq}} = 110 \text{ MPa}$ ;  $\sigma_{\text{сурil}} = 31 \text{ MPa}$ ;  $\sigma_{\text{cho‘zil}} = 10,5 \text{ MPa}$ ;  $\gamma = 31 \text{ N/dm}^3$ ; massividagi bo‘lakdorlikning o‘rtacha o‘lchami  $l_{\text{o‘rt.}} = 0,8$ .

**Yechish:** Alovida jarayonlarning qiyinlik ko‘rsatkichlarini aniqlaymiz:

a) jinslarning maydalanish (buzilish) qiyinlik ko‘rsatkichi

$$P_{\text{mayd}} = 0,05 [K_{\text{mr}} \cdot (\sigma_{\text{сиq}} + \sigma_{\text{сурil}} + \sigma_{\text{cho‘zil}}) + \gamma]$$

$l_{\text{o‘rt}}$  qiymatidan kelib chiqqan holda  $K_{\text{mr}} = 0,8$  deb qabul qilamiz

$$P_{\text{mayd}} = 0,05 [0,8 \cdot (110 + 31 + 10,5) + 31] = 7,61$$

$P_{\text{mayd}}$  ning bu qiymatida jinslarni burg‘ilab portlatish usulida qazishga tayyorlaniladi.

b) burg‘ilashning qiyinlik ko‘rsatkichi:

$$P_b = 0,07 \cdot (\sigma_{siq} + \sigma_{suril} + \sigma_{cho'zil}) = 12$$

s) portlovchi modda etalon solishtirma sarfi:

$$q_e = 0,2 (\sigma_{siq} + \sigma_{suril} + \sigma_{cho'zil} + \gamma) = 36,5 \text{ gr/m}^3$$

d) ekskavatsiya qilishning qiyinlik ko'rsatkichi:

$$P_e = 0,022 (A + \frac{10A}{K_{ko'pch}}),$$

bunda

$K_{ko'pch}$  – jinslarning ko'pchish koeffitsiyenti:

$$A = 10 \gamma \cdot d_{o'rt} + \tau_{suril};$$

$d_{o'r}$  - portlatilgan jins yoyilmasidagi bo'laklarning o'rtacha o'lchami, m; uning miqdori qazib-yuklash va transport vositalarining parametrlariga bog'liq. Mexanik cho'michli ekskavatorlar va temir yo'l hamda avtomobil transporti qo'llanilganda

$$d_{o'rt} = (0,15 \div 0,2) \sqrt[3]{E};$$

bunda

E - ekskavator cho'michi hajmi,  $\text{m}^3$ .

Ishchi zona balandligi 45 m, yuk aylanmasi  $V_{sm} = 5100 \text{ m}^3/\text{sm}$  va qoplama jinslar qoyasimon – qattiq bo'lganligini hisobga olgan holda masalani hal qilish uchun qazib-yuklash ishlari EKG-8i ekskavatori yordamida amalga oshiriladi, ekskavatorning smenalik unumдорлиги  $Q_{sm} = 1800-2000 \text{ m}^3/\text{sm}$  tashkil qiladi, demak

$$d_{o'rt} = 0,15 \sqrt[3]{8} = 0,3 \text{ m}$$

bunda

$$K_{ko'pch} = 1,2 \div 1,3 \text{ bo'lganda}$$

$P_e = 6,6 \div 10$  gacha bo'lishi mumkin.

e) Yuklarni transport qilishning qiyinlik ko'rsatkichi

$$P_m = 0,06 \cdot \gamma + 5 d_{o'n} \cdot A + 20 \cdot W \cdot n \cdot B \cdot C$$

bunda

$d_{o'n}$  - transport vositasiga yuklangan jins bo'laklarining o'rtacha o'lchami ( $d_{o'n} \approx d_{o'rt}$ ); n – glinasimon jins zarrachalarining miqdori, birdan kichik ulushlarda; W – tashiladigan jinsning namligi, birdan kichik ulushlarda; V – tashish vaqtining ko'rsatkichi (1 soatdan ko'p bo'lganda)  $V = 1 + \lg(T+1)$ ; S - havo haroratini hisobga olish ko'rsatkichi (harorat 0 dan past bo'lganda):

$$A = 1 + 0,1 \cdot \tau_{suril} = 4,1;$$

Tashiladigan jinslar quruq va qoyasimon bo‘lganligi, shuningdek tashish vaqt 1 soatdan kamligi tufayli  $P_m$  ifodasining ikkinchi bo‘lagi ( $20 \cdot W \cdot n \cdot B \cdot C$ ) juda kichik miqdorni tashkil qiladi va uni hisobga olmasa ham bo‘ladi. Shuning uchun  $P_m = 8$  ni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar miqdori yotqiziqning o‘ta qiyaligi va noto‘g‘ri shaklda ekanligi, shuningdek, pog‘ona ish frontining nisbatan qiyaligi, chuqurligi 100 m dan oshmasligi hamda  $P_m = 8,0$  ekanligidan kelib chiqib, avtomobil transportini qabul qilamiz.

Nazorat savollari:

1. Kon jinsi massivlarini burg‘ilab-portlatish usulida qazishga tayyorlash qanday sharoitda qo‘llaniladi?
2. Qazib-yuklash ishlarida qo‘llanadigan texnika vositalari to‘g‘risida so‘zlab bering.
3. Karyer transportining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Karyer transportining ko‘rinishlari va ularning qo‘llanish sharoitlarini aytib bering.
5. Qoplama jinslar ag‘darmasi deganda nimani tushunasiz?
6. Qoplama jinslar ag‘darmasini hosil qilishda qo‘llanadigan transport vositalari bo‘yicha ag‘darma nomlarini aytинг.

## 11 – amaliy mashg‘ulot


### Burg‘ilab-portlatish ishlari parametrlarini hisoblash

Qazib olish jarayonlarida kon jinslarining holati turli ta’sirlar (zarba, surilish, zichlanish va boshqalar) natijasida o‘zgaradi.

Ochiq usulda kon qazish ishlarining ob’ekti sifatida kon jinslarini tavsiflovchi fizik-texnik xususiyatlarni ularning zichlik, g‘ovakdorlik, namlik, turli ta’sirlarga chidamlilik, tirnovchanlik, yopishqoqlik, mo‘rtlik, turg‘unlik, ko‘pchish (maydalanganda hajmining ko‘payishi) kabi qator ko‘rsatkichlar tashkil qiladi.

Kon jinslarini qazishga tayyorlash turli usullarda bajarilishi mumkin. Hozirgi vaqtda konlarni ochiq usulda qazib olishda kon jinslari massivini qazishga tayyorlash ishlarida quyidagi usullardan keng foydalilanadi. Kon jinslarini bevosita massivdan ajratib olishga asoslangan mexanik usul, gidravlik usul, maxsus maydalagich mashinalari yordamida maydalash, burg‘ilab-portlatish, skvajina-

zaryadli, qozonsimon zaryadli, shpur-zaryadli, kamera-zaryadli, ustqo‘yma-zaryadli usullari bor (5 – rasm).



5 – rasm. Karyerlarda portlatish ishlарини оlib borishda qо‘llanilадиган зaryad turlari: a-skvajina zaryadi; b-qozonsimon zaryad; d-shpur zaryadi; e, f-mos ravishda shurf va shtolnya kamera zaryadлari; g- ustqo‘yma zaryad. 1- PM zaryadi; 2-tiqin; h<sub>p</sub> – pog‘ona balandligi; W – pog‘ona osti bo‘yicha qarshilik chizig‘i.

**Berilgan:** Loyihalashtirilayotgan uchastkada kon jinslarini burg‘ilab-portlatish usulida qazishga tayyorlanadi. Qazib-yuklash ishlари mexanik cho‘michli ekskavator yordamida bajariladi ( $E = 8\text{m}^3$ ). Jinslar tashqi ag‘darmaga avtotransport bilan tashiladi va buldozer yordamida ag‘darma hosil qilinadi. Uchastkada 3 pog‘ona bo‘lib, har birining balandligi 15 m.

Portlatish ishlарining parametri.

a) Portlovchi modda loyihaviy solishtirma sarfi:

$$d_{\text{port}} = d_e \cdot K_{\text{p.m.}} \cdot K_{\text{m.d.}} \cdot K_{\text{port.ener.}} \cdot K_{\text{s.z.}} \cdot K_{\text{port.}} \cdot K_{\text{o.sath.}}, \text{ gr/m}^3$$

bunda

$K_{\text{p.m.}}$  – ammoniy N6JV dan amalda qо‘llanilayotgan portlovchi modda o‘tish koeffitsiyenti (odatda  $K_{\text{p.m.}} = 1$ ).  $K_{\text{m.d.}}$  – talab etilадиган maydalanish darajasini hisobga oluvchi koeffitsiyent:

$$K_{\text{m.d.}} = 0,5 : d_{\text{o.rt}} = 1,67$$

$K_{\text{s.z.}}$  – skvajina diametriga bog‘liq holda portlovchi modda zaryadining markazlashganligini hisobga olish koeffitsiyenti  $P_b = 12$  bo‘lgan kon

jinslarida sharoshkali burg‘ilash, burg‘ilashdan foydalanish va skvajina diametri  $d_s = 250$  mm bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunda

$K_{s.z} = 1,2$ ;  $K_{port}$  - portlatiladigan jins ta’sirini hisobga olish koeffitsiyenti;

$$K_{port} = \sqrt[3]{\frac{H}{15}} = 1$$

$K_{port.ener.}$  – portlash energiyasi yo‘qotilish darajasini hisobga olish koeffitsiyenti:

$$K_m = 1,2 \cdot \ell_{o.rt} + 0,2 = 1,67$$

$K_{o.satx}$  - portlatiladigan massivning ochiq sathlarini hisobga olish koeffitsiyenti. Agar massiv 2 ochiq sathga ega bo‘lsa,  $K_{o.sath} = 8$ . Koeffitsiyentlar miqdorlari bo‘yicha hisoblaganda

$q_n = 0,68 \text{ kg/m}^3$  ni tashkil qiladi.

b) Pog‘ona osti bo‘yicha qarshiligi

$$W = \sqrt{\frac{K_1 \cdot P}{q_n}}, \text{ m}$$

bunda

$K_1$  – kon jinslarini portlatish qiyinligini hisobga olish koeffitsiyenti. Qiyin portlaydigan jinslar uchun  $K_1 = 0,8$ .  $R = d_s \cdot \nabla$ ,  $\text{kg/m}$  – skvajina sig‘imdarligi;  $d_s$  - skvajina diametri dm larda  $\nabla = 1,0 \text{ kg/dm}$ ;  $q_n$  – PM solishtirma sarfi  $\text{kg/m}^3$ ;

bunda

$$W = 7,4 \text{ m.}$$

s) skvajina zaryadlarining parametrlari:

qatordagi skvajinalar orasidagi masofani aniqlaymiz:

$$a = m \cdot W, \text{ m}$$

bunda,  $m$  – skvajinalarning yaqinlashuv koeffitsiyenti (qiyin portlaydigan jinslar uchun  $m = 0,85 \div 1,0$ );

$$a = 1 \cdot 7,4 = 7,4 \text{ m},$$

Skvajinalar qatorlari orasidagi masofa:

$$b = a = 7,4 \text{ m}$$

d) portlatish skvajinalari parametrlari:  
skvajina chuqurligi

$$L_s = \frac{1}{\sin \beta} \cdot (H_y + l_n), \text{ m}$$

bunda

$\beta$  – skvajinaning qiyalik burchagi, vertikal skvajinalar uchun  $\beta = 90^0$   $l_p$  – (perebur) qo'shimcha burg'ilash uzunligi (qiyin portlaydigan jinslar uchun  $l_p = 12 d_s$ ), m;

$l_p = 3,0$  m;  $L_s = 18,0$  m; tiqin uzunligi  $l_{tiq} = 20 d_s$  (qiyin burg'ilanadigan jinslar uchun  $l_{tiq} = 5$  m); zaryad uzunligi

$$l_{p.m.} = L_s - l_{tiq} = 13 \text{ m}$$

Skvajinadagi zaryad massasi

$$Q_z = R \cdot l_{r.m.} = 556 \text{ kg}$$

Burg'ilash uskunasi rusumi va unumдорligi qabul qilingan skvajina diametri  $d_s = 250$  mm va  $P_b = 12$  uchun СБШ – 250 rusumli sharoshkali burg'ilash uskunasini tanlab olamiz.

СБШ – 250 uskunasining asosiy texnik ko'rsatkichlari:

Dolota diametri, mm	243,269
O'q yo'nalishidagi bosimi, ts	30 gacha
Dolotaning aylanish tezligi, ayl/min	157,81
Uskuna massasi, t	60

Burg'ilash texnik tezligi

$$V_b = \frac{2,5 \cdot 10^{-2} \cdot P_o \cdot n_v}{P_b \cdot d_d^2} \text{ m/soat}$$

bunda

$R_o = 300$  kN – o'q yo'nalishidagi bosim;  $n_v = 1,3 \text{ s}^{-1}$  – dolotaning aylanish tezligi;  $d_d = 0,25$  m – doloto diametri.

Bunda

burg'ilash texnik tezligi  $V_b = 12 \text{ m/soat}$ .

Burg'ilash uskunasi unumдорligi:

$$Q_b = \frac{T_s - (T_{s.b.} + T_{s.o.})}{t_{asos} - t_{yor}} \text{ m/smen}$$

Bunda

$T_s = 7$  soat – smena davomiyligi;  $T_{s.b.} + T_{s.o.} = 0,5$  soat – smena boshi va oxiridagi tayyorgarlik ishlariiga sarflanadigan va ruxsat etilgan tanaffuslar vaqt;  $t_{asos} = \frac{1}{V_b} = 0,083$  - soat; asosiy ish - 1 metr skvajina burg‘ilash uchun sarflanadigan vaqt,  $t_{yord.} = 0,05$  soat – yordamchi ishlarga sarflanadigan vaqt. Bunda  $Q_b = 50$  m/smen.

Skvajinalar orasidagi va qator oralig‘idagi masofalar  $7,4 \times 7,4$  bo‘lganda, 1 m skvajinadan chiqadigan kon massasi  $50 \text{ m}^3$  ga teng bo‘ladi. Qazib yuklash ishlari 3 smenada olib boriladi va uning sutkalik hajmi  $V_{sut} = 15300 \text{ m}^3$  ni tashkil qiladi. Bu hajmni bajarish uchun 2 smenada 300 m skvajina burg‘ilash kerak bo‘ladi, bunda

$$N_{b.st} = \frac{300}{2 \cdot 50} = 3 \text{ ta uskuna.}$$

### Mustaqil ishlash uchun misollar

Misollar	Smena davomiyligi, $T_{s.b.}$	Smena boshi va oxiridagi tayyorgarlik ishlari vaqt, soat		Asosiy va yordamchi operatsiyalar vaqt, soat		$1 \text{ m skvajinadan chiqadigan}$ kon massasi, $\text{m}^3$	Qazib-yuklash ishlari sutkalik hajmi, $\text{m}^3$	Sutkadagi burg‘ilash hajmi, m	Smenalar soni
		$T_{s.o.}$		$t_{asos}$	$t_{yord}$				
1	8	0,3	0,2	0,08	0,06	40	15000	375	2
2	7	0,2	0,15	0,09	0,07	60	20000	333	2
3	8	0,4	0,2	0,1	0,08	50	12000	240	1
4	7	0,3	0,2	0,07	0,04	45	15400	300	2

Nazorat savollari:

1. Nogabartlar deganda nimani tushunasiz va ularning ikkilamchi maydalash usullarini aytib bering.
2. Portlovchi modda zaryadi, uning ko‘rinishlari va qo‘llanish sharoitlari to‘g‘risida so‘zlab bering.

3. Burg‘ilash uskunasi, ularning turlari va ishslash prinsiplarini aytib bering.
4. Burg‘ilash uskunalarining unumdorligini aniqlash ifodalarini yozing.
5. Temir yo‘l transportida poyezdning foydali massasi va harakatlanuvchi sostavning sonini aniqlash ifodalarini yozing.

## **12 – amaliy mashg‘ulot**

### **Berilgan kon-texnik sharoitlar uchun burg‘ilash uskunasi rusumini tanlash, burg‘ilab-portlatish ishlaringning parametrlari va burg‘ilash uskunalarining zaruriy soni (parki)ni hisoblash**

Skvajina kavjoyini buzish kuchlanishi tavsifi bo‘yicha portlatish skvajinalarini burg‘ilash uchun qo‘llanadigan uskunalar uch guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruhga skvajina kavjoyiga mexanik ta’sir etuvchi burg‘ilash uskunalarini kiradi. Bu guruh aylanma harakatlanuvchi koronkali (СБР tipidagi) uskunalarni, sharoshka dolotali aylanma harakatlanuvchi (СБШ tipidagi) uskunalarni, zarba-kanat burg‘ilash (СБК tipidagi) uskunalarni va pnevmatik bolg‘ali (СБУ tipidagi) pnevmozarba uskunalarni o‘z ichiga oladi.


Ikkinci guruh uskunalarini skvajina kavjoyiga termik yoki gidravlik, yoki portlash jarayoni sifatida ta’sir etishni ta’minlovchi burg‘ilash stanoklari tashkil qiladi. Bu guruhga tegishli uskunalardan faqat olovli burg‘ulash uskunasi (СБО tipidagi uskuna) karyerlarda qo‘llanadi, qolganlari esa tajriba bosqichida bo‘lib, tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Uchinchi guruhga skvajina kavjoyiga aralash ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydigan (mexanik va termik ta’sir ko‘rsatish kombinatsiyasiga ega bo‘lgan) stanoklar kiradi. Barcha uskunalar uchun burg‘ilash operatsiyalarini bajarish tartibi burg‘ilash texnologiyasi bo‘yicha aniqlanadi.

Skvajina burg‘ilashda bajariladigan barcha jarayonlar ikkiga, ya’ni asosiy va yordamchi jarayonlarga bo‘linadi. Bevosita skvajina burg‘ilash asosiy jarayonni, burg‘ilash stavini skvajinaga tushirish, chiqarib olish, uzaytirish, bo‘laklarga ajratish, burg‘ilash asbobini almashtirish, burg‘ilash quyqasidan skvajinani tozalash, uskunani bir joydan yangi skvajina burg‘ilash joyiga ko‘chirish kabi ishlar esa yordamchi jarayonlarni tashkil qiladi.

Muayyan burg'ilash sharoiti va qabul qilingan uskuna uchun 1 m skvajina burg'ilashga hamda yordamchi ishlarni bajarishga sarflangan vaqtni yuqori darajada aniq va o'zgarmas miqdor deb qabul qilinganda, burg'ilash uskunasining smenalik unumdorligi aniqlanadi.

Pog'onalarda skvajinalar bir va ko'p qatorda joylashtirilishi mumkin. Bir qatorda joylashgan skvajinalar orasidagi masofa a, qatorlar orasidagi masofa b va pog'ona osti bo'yicha qarshilik chizig'i W skvajinalar joylashishining asosiy parametrlari hisoblanadi (6 - rasm). Portlatish natijalariga W miqdori katta ta'sir ko'rsatadi. Agar W miqdori keragidan ortiqcha bo'lsa, pog'ona ostki maydonini tekishlash ishlari qiyinlashadi, kam bo'lganda esa portlash energiyasining katta qismi jinslarni maydalashga emas, itqitishga sarflanadi.



6 – rasm. Pog'onada skvajinalarning joylashish sxemasi.

Amaliyotda W miqdori pog'ona balandligiga nisbatan  $[W = (0,6-1) \cdot h_{pog}]$  aniqlanadi. Pog'ona osti bo'yicha qarshilik chizig'inining burg'ilash ishlari xavfsizligini ta'minlovchi minimal miqdori quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$W_{min} \geq h_{pog} \cdot \operatorname{ctg} \alpha + l_d, \text{ m}$$

bunda

$l_d$ -skvajina o'qidan to pog'ona ustki qirrasigacha qo'yilishi mumkin bo'lgan minimal masofa, m .

Oson portlaydigan jinslar uchun  $W = (40 \div 45) \cdot d_c$ ;

O'rtacha portlaydigan jinslar uchun  $W = (35 \div 40) \cdot d_c$ ;

Qiyin portlaydigan jinslar uchun  $W = (25 \div 35) \cdot d_c$  ekanligi karyerlardagi burg'ilab- portlatish ishlari amaliyoti bo'yicha aniqlangan.

**Berilgan:** Karyer yillik unumdorligi 14 mln m<sup>3</sup>; pog'ona balandligi 15m; pog'ona qiyalik burchagi  $\gamma = 80^{\circ}$ ; qazib olinadigan

jinslarning portlovchanlik va burg‘ilovchanlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha ( $P_{bur.} = 10 \div 12$ ); kon massasini yuklash ЭКГ-8и ekskavatori bilan bajariladi. Skvajinalar shaxmat ko‘rinishida 2 qator joylashtiriladi.

**Yechish:** Jinslarning burg‘ilanuvchanligi va yuklovchi ekskavator tipiga mos keladigan 2СБШ–200Н rusumli burg‘ilash uskunasini tanlab olamiz (skvajina diametri 214 mm).

1. O‘rtacha portlovchanlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan jinslar uchun pog‘ona asosi bo‘yicha qarshilik chizig‘i uzunligini aniqlaymiz:

$$W = (35 - 40) \cdot d_{o\cdot rt}$$

$$W = 37 \cdot 0.214 \approx 8 \text{ m}$$

$$W_{min} = h_{pog} \cdot ctg \alpha + l_{ruxs} = 15 \cdot ctg 80^0 + 3 = 5,65 \text{ m}$$

bunda,  $h_{pog}$  – pog‘ona balandligi;  $l_{ruxs} = 3$  m – skvajina o‘qi bilan pog‘ona ustki qirrasi orasidagi ruxsat etilgan masofa uzunligi. Hisoblangan  $W$  miqdori pog‘onada burg‘ilash ishlari xavfsizligini ta’minlaydi ( $W > W_{min}$ ).

2. Bir qatordagi skvajinalar orasidagi masofani aniqlaymiz. O‘rtacha portlovchanlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan jinslar uchun ushbu masofa  $m = 1\text{m}$  qabul qilinadi,

bunda

$$a = m \cdot W = 1 \cdot 8 = 8\text{m}$$

3. Qatorlar orasidagi masofani aniqlaymiz:

$$b = 0,85 \cdot a = 0,85 \cdot 8 = 7 \text{ m.}$$

4. Smena vaqtidan foydalanish koeffitsiyentini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$K_{s.vaq} = [T_{sm} - (T_{tayyo} + T_{tug})] : T_{sm} = (8 - 0,5) : 8 \approx 0,8$$

bunda

$T_{sm} = 8$  soat smena davomiyligi, soat;  $T_{tayyo} + T_{tug} = 0,5$  ishga tayyorgarlik va uni tugallash vaqtлari davomiyligi, soat;

5. Burg‘ilash uskunasi unumdorligini quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz:

$$P_{b.st} = \frac{T_{sm}}{T_{asos} + T_{yord}} \cdot K_{s.vaq} = \frac{8}{(0,1 + 0,035)} \cdot 0,8 = 47 \text{ м/см}$$

bunda

$T_{asos} = 0,1$  asosiy ishlarning davomiyligi, soat;  $T_{yord} = 0,035$  yordamchi ishlar davomiyligi, soat.

6. Uskunaning yillik unumdorligini aniqlaymiz:

$$P_{b.y.} = P_{b.sm} \cdot n_{sm} \cdot N = 47 \cdot 2 \cdot 280 = 26380 \text{ м}$$

bunda

$n_{sm}$  – sutkadagi smenalar soni ( $n_{sm} = 2$ );  $N = 280 \div 290$  uskunaning bir yilda ishlaydigan kunlari ( $N = 280$ );

7. 1 m skvajinaning portlashidan hosil bo‘lgan kon massasi hajmini aniqlaymiz:

$$q_{k.m} = \frac{[w+b(n_{sk}-1)] \cdot h_{pog} \cdot a}{n_{sk} \cdot L_{skv}} = \frac{[8+7(2-1)] \cdot 15 \cdot 8}{2 \cdot 17} = 52.94 \approx 3 \text{ m}^3/\text{m}$$

bunda

$n_{sk} = 2$  skvajina qatorlari soni,  $L_{skv} = 17$  skvajina uzunligi, m.

8. Quyidagi formula orqali parkdagি uskunalar sonini aniqlaymiz:

$$N_{bur.st.} = \frac{V_{k.m}}{P_{b.y.} \cdot q_{k.m}} = \frac{14000000}{26320 \cdot 53} = 10 \text{ дона}$$

Rezerv uskunalar soni 20% qabul qilinsa, u holda

$$N_{bur.st.} = 10 \cdot 1,2 = 12 \text{ дона.}$$

Nazorat savollari:

1. Portlovchi moddalar zichligi deganda nima tushuniladi?
2. Portlovchi modda detonatsiyasi kon massivida qanday tezlik bilan sodir bo‘ladi?
3. Kon tayyorlov lahimlarini tushuntiring.
4. Fizikaviy tarkibi bo‘yicha konchilik ishlarida qaysi portlovchi moddalar keng qo‘llaniladi?
5. Portlovchi modda detonatsiyasi kon massivida qanday tezlik bilan sodir bo‘ladi?
6. Qaysi portlatish usulini kapsulsiz portlatish usuli deyiladi?


### **13 – amaliy mashg‘ulot Qazib - yuklash ishlari parametrlarini aniqlash**

Karyerlarda qazib-yuklash ishlari kon jinslarini kavjoydan ajratib olib, uni transport vositasiga yuklash yoki qoplama jinslar ag‘darmasiga eltib to‘kishni o‘z ichiga oladi.

Karyerlarda qazib-yuklash uskunalari sifatida siklli yoki uzlusiz prinsipda ishlaydigan ekskavatsiyalovchi mashinalardan foydalilanildi (7-rasm). Qazish va yuklash ishlari asosan ekskavatorlar bajaradi. Shu sababli qazish va yuklash ishlari bitta jarayon bo‘lib, qazib-yuklash ishlari deb yuritiladi. Siklli ishlaydigan mashinalarning (bir cho‘michli ekskavatorlar, yuklagichlar, g‘ildirakli skreperlar, buldozerlar va boshqalar) ishchi organi davriy harakatlanuvchi faqat bitta cho‘mich yoki qirish elementi (buldozer pichog‘i-lemexi) dan

tashkil topgan bo‘lib, davriy ravishda kon massasini kavjoyidan ajratib olib, to‘kish joyiga eltib berish vazifasini bajaradi.

**Berilgan:** Pog‘ona balandligi  $H_p = 15$  m, ekskavatsiya qilish koeffitsiyenti  $P_e^1 = 6,6$ ; bo‘laklarning o‘rtacha o‘lchami  $d_{o\cdot rt} = 0,4$  m bo‘lgan portlatilgan kon massasini qazib yuklash uchun ЭКГ-8и rusumli ekskavatordan foydalaniladi.



7 – rasm. Qazib – yuklovchi mashinalarining sxemalari: a – to‘g‘ri mexanik cho‘michli; b – teskari mexanik cho‘michli; d – draglayn; e – greyfer; f – zanjirli ko‘p cho‘michli ekskavator; g – rotorli ekskavator; h – g‘ildirakli skreper; i – buldozer; j – shnekli burg‘ilash mashinasи; k – yuklagich.

### ЭКГ-8и ekskavatorning texnik tavsifi Cho‘michning sig‘imi E, $m^3$

Turgan o‘rni bo‘yicha qazish radiusi,  $R_q.$ , m

Maksimal qazish balandligi,  $H_{max}$ , m

Siklining pasport davomiyligi,  $T_{s.p.}$ , sek.

Massasi, R tonna

8; 10

11,9

12,5

28

370

Kavjoy (zaboy) parametrlari:

Jins bo‘laklari o‘rtacha o‘lchamga ega bo‘lgan sochilma jinslar kavjoyi balandligi

$$N_{kavj.max} = (1,05 \div 1,15) \cdot N_{qaz.max} = 13,1 \div 14,3 \text{ m},$$

$N_{kavj.max} = 14 \text{ m}$  deb qabul qilamiz

Portlatilgan blok kengligi bo'yicha pol (panel) kengligi 27,4 m ni tashkil qiladi. Portlatilgan jins yoyilmasi bo'yicha kavjoy (kirma) kengligi  $A = 40$  m.

Ekskavator unumdorligini hisoblash

a) ekskavator pasport unumdorligi:

$$Q_p = \frac{3600}{T_s \cdot p} \cdot E = \frac{3600 \cdot 8}{28} = 1030 \text{ m}^3/\text{soat};$$

b) ekskavator texnik unumdorligi:

$$Q_p = \frac{3600}{T_s} \cdot E \cdot K_e \cdot K_{t.u.}, \text{ m}^3/\text{soat};$$

bunda

$T_s$  – amaldagi sikl davomiyligi, sek. (ЭКГ – 5 uchun  $T_s = 27,1$ ; ЭКГ-8 и uchun  $T_s = 30,3$ ; ЭКГ – 12,5 uchun  $T_s = 34,7$ ; ЭШ – 8/60 uchun  $T_{ts} = 54$ ; ЭШ – 15/90 uchun  $T_s = 60$  va h.k.);  $K_e$  – ekskavatsiya koeffitsiyenti – o'rtacha qattiqlikdagi jinslar uchun  $K_e = (0,75 \div 0,8)$ ;  $K_{t.u.} = 0,78$ ;

$$Q_{qat.jins} = \frac{3600}{27} \cdot 8 \cdot 0,75 \cdot 0,78 = 405 \text{ m}^3/\text{soat};$$

v) ekskavatorning ekspluatatsion unumdorligini aniqlaymiz:

$$Q_e = Q_{qat.jins} \cdot T_{sm} \cdot K_{iql} \cdot K_{tr.vos}, \text{ m}^3/\text{smena};$$

$T_{sm} = 7$  soat – smena davomiyligi;  $K_{iql}$  – iqlimi koeffitsiyent ( $K_{iql} = 1,0$ );  $K_{tr.vos}$  – ekskavator unumdorligiga transport vositasi turi, reglamentlangan tanaffuslar vaqtini hisobga oluvchi koeffitsiyent, avtotransport uchun  $K_{tr.vos} = 0,64$ ;

$$Q_e = 405 \cdot 1 \cdot 7 \cdot 0,64 \cong 1800 \text{ m}^3/\text{smena}.$$

Nazorat savollari:


- 1 Mexanik bir cho'michli ekskavatorlar va draglaynlarning asosiy texnologik parametrlarini ko'rsating
- 2 Karyerda qo'llanadigan bir cho'michli elektrik ekskavatorlar bilan gidravlik ekskavatorlarning farqini so'zlab bering.
- 3 Ko'p cho'michli ekskavatorlar, ularning turlari va ishlash prinsiplarini gapirib bering.
- 4 Kapital transheyalar tizimi: yakka transheyalar, guruh transheyalari va umumiyl transheyalar haqida so'zlab bering.

5. Kesuvchi transheyalar va suriluvchi sezdlarning vazifalari to‘g‘risida gapirib bering.
6. Hozirgi vaqtda karyerlarda qo‘llanilayotgan qazish tizimlari tasnifini aytib bering.

## 14 – amaliy mashg‘ulot

### O‘rtacha qalinlikka ega bo‘lgan jinslar bo‘yicha qoplama jinslarni ЭКГ-8и rusumli ekskavator bilan qazishda ekskavatorlar sonini aniqlash

Qazib-yuklash ishlari qazib-yuklovchi mashinalar turgan gorizontga nisbatan kavjoyning joylashishiga ko‘ra yuqoridan, pastdan va ham yuqori, ham pastdan (aralash) qazib olish, shuningdek yuqoriga, pastga va ham yuqoriga, ham pastga yuklash usullari bo‘yicha bajarilishi mumkin (8-rasm).



8–rasm. Ekskavatorlarning ishlash sxemalari: a – yuqoridan qazib olib pastga yuklash; b – pastdan qazib olib yuqoriga yuklash; c – yuqoridan va pastdan qazib olib, yuqoriga va pastga yuklash.

Hozirgi vaqtda MDH mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston karyerlarida ham ЭКГ-4,6; ЭКГ-8и; ЭКГ-12,5; ЭКГ-20 rusumli o‘rmalovchi (gusinitsali), to‘g‘ri va teskari cho‘michli ekskavatorlardan keng foydalanilmoqda.

Qoplama jinslarni qazib olib, ularni ichki jins ag‘darmalarga transportsiz qazish tizimi bo‘yicha joylashtirishda ЭВГ-35/65, ЭВГ-15/40, ЭВГ-100/100 rusumli mexanik cho‘michli, o‘rmalovchi ekskavatorlardan samarali foydalanilmoqda.

Karyerlarda qo‘llaniladigan ekskavatorlar rusumlarini ko‘rsatuvchi harf va sonlar ularning qanday jarayonlarni bajarishi, harakatlanish prinsipi, unumдорлиги, qazish balandligi (chuqurligi) va boshqa

tavsiflarini ko'rsatadi. Masalan, ЭКГ-8И rusumli bir cho'michli ekskavatorda E-ekskavator, K-karyer, G-harakatlanish vositasi (gusinitsa), 8-cho'mich hajmini ko'rsatadi.

Mexanik bir cho'michli ekskavatorlarning cho'michi strelasiga qat'iy o'rnatilganligi sababli ularning qirqish kuchi yuqori (3500 n/sm gacha) bo'lib, ish organlarining mustahkamligi yuqori bo'ladi. Bu ekskavatorlar turli tip va o'lchamlarda ishlab chiqariladi, ular cho'michining hajmi  $0,25 \text{ m}^3$  dan  $35 \text{ m}^3$  gacha va undan ham katta bo'ladi. Mexanik bir cho'michli ekskavatorlar karyerlarda bajariladigan qazib-yuklash ishlarining katta qismini amalga oshiradi va maydalangan yarimqoyasimon, qattiq qoyasimon jinslarni qazib-yuklash ishlarida keng qo'llaniladi.

**Berilgan:** Qoplama jinslar hajmi  $V = 15000000 \text{ m}^3/\text{yil}$ ; ekskavatsiyalash koeffitsiyenti  $K_e = 0,65$ , sikl davomiyligi  $T_s = 37,5 \text{ sek}$ ;  $K_{kavj} = 0,85$  – yordamchi operatsiyalarni hisobga oluvchi kavjoy koeffitsiyenti.

**Yechish:** 1. Ekskavator texnik unumdorligini aniqlaymiz:

$$Q_t = \frac{3600}{T_s} \cdot E \cdot K_e \cdot K_{kavj}$$

bunda

$E$  – ekskavator cho'michi sig'imi –  $8 \text{ m}^3$ ;  $K_e$  – ekskavatsiyalash koeffitsiyenti;  $K_{kavj}$  – kavjoy koeffitsiyenti.

$$Q_t = \frac{3600 \cdot 8}{37,5} \cdot 0,65 \cdot 0,85 = 424,3 \text{ m}^3/\text{smeна}$$

2. Ekskavatorning smenalik ekspluatatsion unumdorligini aniqlaymiz:

$$Q_{e.sm} = Q_t \cdot T_{sm} \cdot K_{i.e.};$$

bunda

$T_{sm}$  – smena davomiyligi, 8 soat;  $K_{ish.vaqt}$  - ekskavator ishidan vaqt bo'yicha foydalanish koeffitsiyenti, 0,65.

$$Q_{e.sm} = 424,3 \cdot 8 \cdot 0,65 = 2206 \text{ m}^3/\text{smeна};$$

3. Ekskavatorning yillik unumdorligini aniqlaymiz:

$$Q_{e.y.} = Q_{e.sm} \cdot N_g \cdot n_{sm};$$

bunda

$N_y$  – ekskavatorning bir yildagi ishlash kunlari – 280 ;

$n_{sm}$  – sutkadagi smenalar soni – 3

$$Q_{e.y.} = 2206 \cdot 280 \cdot 3 = 1853000 \text{ m}^3/\text{yil}$$

4. Ekskavatorlar sonini aniqlaymiz:

$$N_{e.son} = 15000000 : 18530000 = 8 \text{ ta ekskavator.}$$

### **Mustaqil ishlash uchun misollar**

1. Ekskavator rusumi ЭКГ-5; cho'mich sig'imi  $5\text{m}^3$ ; sikl davomiyligi 31,7sek; ekskavatsiya koeffitsiyenti  $0,8 K_e$ ; yordamchi operatsiyalarni hisobga oluvchi koeffitsiyent  $0,85 K_{kavj}$ ; smena davomiyligi 8 soat; smenalar soni 3  $n_{sm}$ ; yillik ish kunlari 280; vaqt bo'yicha foydali koeffitsiyent  $0,65 K_{vaq.f.}$ ; yillik ish hajmi  $12 \text{ mln.m}^3$ ;
2. Ekskavator rusumi ЭКГ-12,5; cho'mich sig'imi  $5\text{m}^3$ ; sikl davomiyligi 38,3sek; ekskavatsiya koeffitsiyenti  $0,75 K_e$ ; yordamchi operatsiyalarni hisobga oluvchi koeffitsiyent  $0,8 K_{kavj}$ ; smena davomiyligi 8 soat; smenalar soni 3  $n_{sm}$ ; yillik ish kunlari 290; vaqt bo'yicha foydali koeffitsiyent  $0,6 K_{vaq.f.}$ ; yillik ish hajmi  $18 \text{ mln.m}^3$ ;
3. Ekskavator rusumi ЭКГ-15; cho'mich sig'imi  $15\text{m}^3$ ; sikl davomiyligi 58,2sek; ekskavatsiya koeffitsiyenti  $0,65 K_e$ ; yordamchi operatsiyalarni hisobga oluvchi koeffitsiyent  $0,8 K_{kavj}$ ; smena davomiyligi 8 soat; smenalar soni 3  $n_{sm}$ ; yillik ish kunlari 285; vaqt bo'yicha foydali koeffitsiyent  $0,65 K_{vaq.f.}$ ; yillik ish hajmi  $24 \text{ mln.m}^3$ ;
4. Ekskavator rusumi ЭКГ-35; cho'mich sig'imi  $35\text{m}^3$ ; sikl davomiyligi 66sek; ekskavatsiya koeffitsiyenti  $0,6 K_e$ ; yordamchi operatsiyalarni hisobga oluvchi koeffitsiyent  $0,75 K_{kavj}$ ; smena davomiyligi 8 soat; smenalar soni 3  $n_{sm}$ ; yillik ish kunlari 280; vaqt bo'yicha foydali koeffitsiyent  $0,65 K_{vaq.f.}$ ; yillik ish hajmi  $40 \text{ mln.m}^3$ ;
5. Ekskavator rusumi ЭШ-8/60; cho'mich sig'imi  $8\text{m}^3$ ; sikl davomiyligi 59 sek; ekskavatsiya koeffitsiyenti  $0,55 K_e$ ; yordamchi operatsiyalarni hisobga oluvchi koeffitsiyent  $0,7 K_{kavj}$ ; smena davomiyligi 12 soat; smenalar soni 2  $n_{sm}$ ; yillik ish kunlari 270; vaqt bo'yicha foydali koeffitsiyent  $0,7 K_{vaq.f.}$ ; yillik ish hajmi  $30 \text{ mln.m}^3$ .

Nazorat savollari:

1. Karyerlarda qazib - yuklash ishlarida qo'llanadigan draglaynlarning ishlash prinsiplari bo'yicha tushuntiring.

2. Karyerda turli transport vositalari kombinatsiyasidan foydalanish sharoitlari to‘g‘risida so‘zlab bering.
3. Siklli ishlaydigan mashinalarning (bir cho‘michli ekskavatorlar, yuklagichlar, g‘ildirakli skreperlar, buldozerlar va boshqalar) ishchi organi haqida tushuntiring.
4. Jinslar strukturasi bo‘yicha kavjoy bir tarkibli (sodda) va ko‘p tarkibli (murakkab) bo‘lishi mumkinmi?
5. Saralab qazib olish usullari haqida nima bilasiz?
6. Qaysi vaqtida ekskavatorlarning ishlash sxemalari: yuqoridan qazib olib pastga yuklash; pastdan qazib olib yuqoriga yuklash; yuqoridan va pastdan qazib olib, yuqoriga va pastga yuklash ishlari bajariladi, chizib ko‘rsating.

## 15 – amaliy mashg‘ulot

### **Ochish (qoplama) jinslarni temir yo‘l transporti bilan ag‘darmalarga tashishda lokomotiv sostavidagi vagonlar sonini, ishlaydigan va inventar lokomotiv sostavlari sonini hisoblash**

Karyer transporti kon massasini (qoplama jins va foydali qazilmalar) kavjoydan to‘kish punktlariga tashishga mo‘ljallangan bo‘lib, texnologik jarayonlarni o‘zaro bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi. Konlarni qazib olish samaradorligi karyer trasportining aniq ishlashiga bog‘liq.

Vaqt bo‘yicha turg‘un tashish yo‘nalishi tavsifiga ega bo‘lgan yuk aylanmasi (yoki uning bir qismi) yuk potogi deyiladi.

Yuk potoklarini shakllantirishda yuklarning sifati (qoplama jins, foydali qazilma va boshqa) va to‘kish punktlari bo‘yicha taqsimlashga harakat qilinadi. Kon ishlarining rivojlanishi natijasida karyer yuk aylanmasi va uning alohida yo‘nalishlari o‘zgarib turadi.

Harakatlanish prinsipiga ko‘ra, transport vositalari siklli va uzlucksiz ishlaydigan turlarga bo‘linadi. Sikl davomiyligi yuklanish, yuk bilan harakatlanish (to‘kish punktlarigacha), yukni to‘kish, yuklanish punktiga qaytib kelish va yuqoridagi operatsiyalar o‘rtasidagi qisqacha uzilishlar davomiyligi yig‘indisidan tashkil topadi. Siklli transportda (temir yo‘l, avtomobil transporti) yuklanish, yuk bilan harakatlanish, yukni to‘kish va yuksiz harakatlanish operasiyalari birin-ketin sodir bo‘ladi. Uzlucksiz transportda (konveyer, gidravlik transport) esa ushbu operasiyalar bir vaqtda, parallel bajariladi.

Lokomotivlar ilashish kuchi, tortish kuchi, yuritgich quvvati o‘qqa tushadigan yuk va yo‘l egrilik uchastkasidan o‘ta olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Lokomotivning harakatlantiruvchi o‘qiga tushadigan og‘irligi ilashish kuchi deyiladi.

Karyerlarda avtotransportning samaradorligi ko‘p jihatdan avtomobil yo‘llarining sifati va holatiga bog‘liq bo‘ladi. Karyer avtomobil yo‘llari ekspluatatsiya qilish sharoitlari bo‘yicha statsionar va vaqtinchalik yo‘llarga bo‘linadi. Kapital transheyalar, yer yuzi va tutashtiruvchi bermalarda uzoq muddat ekspluatatsiya qilishga mo‘ljallangan, usti qoplamali va har ikki tomonga harakatlanishni ta’minlaydigan statsionar avtomobil yo‘llari barpo etiladi. Vaqtinchalik (kavjoydagи va ag‘darmalardagi) yo‘llar ish fronti ortidan surilib boradi va ularda yo‘l usti qoplamasи bo‘lmaydi.

Avtomobil yo‘li harakatlanish qismining kengligi avtomobil sostavi gabaritlari, harakatlanish tezligi, yo‘ldagi yurish tiliklari (polosalari) soniga bog‘liqdir.

**Berilgan:** Kon jinslari zichligi  $2,7 \text{ t/m}^3$ ; vaqtinchalik temir yo‘llar bo‘yicha tashish masofasi 2 km; doimiy  $i_{reys} = 30\%$ . Karyerda EL-1 rusumli elektrovoz, 2VS – 105 rusumli dumpkar va ЭКГ-8И rusumli ekskavatoridan foydalaniladi. Ekskavatorning texnik unumдорлиги  $Q_{tex} = 1350 \text{ m}^3/\text{soat}$ . Karyerning sutkalik yuk aylanmasi qoplama jinslar bo‘yicha 100 ming tonna. Jinslarning ko‘pchish koeffitsiyenti  $K_{ko‘pch} = 1,4$ .

**Yechish:** 1. To‘kma jinsning dumpkardagi zichligini aniqlaymiz:

$$\gamma_{zich} = \gamma_s / K_{ko‘pch} \gamma = \frac{2,7}{1,4} = 1,9$$

2. Dumpkarda tashiladigan jins massasini aniqlaymiz:

$$q_{jins \text{ mas.}} = E_v \cdot \gamma_{zich} \cdot K_{yuklan}.$$

bunda

$E_v$  – vagon sig‘imi,  $\text{m}^3$  – 48,5;

$\gamma_{zich}$  – vagondagi to‘kma jins zichligi,  $\text{t/m}^3$  - 1,9;

$K_{yuklan}$  – vagonning yuklanish koeffitsiyenti – 1,1

$$q_{jins \text{ mas.}} = 48,5 \cdot 1,9 \cdot 1,1 = 103 \text{ t.}$$

3. Lokomotiv sostavidagi vagonlar sonini aniqlash:

$$n_v = \left( \frac{10000 P_{ilash} \cdot K_{ilash}}{w_{sol.q} + 10 i_{reys}} - Q_l \right) \cdot \frac{1}{q_t + q_{jin.massasi}}$$

bunda

$R_{ilash} = Q_l$  lokomotivning ilashish og‘irligi 150 t;  $K_{ilash}$  – harakatdagi g‘ildirakning relsga ilashish koeffitsiyenti ( $K_{ilash}=0,18 \div 0,34$ );  $w_{sol.q}$  – lokomotiv sostavining harakatlanish solishtirma qarshiligi ( $20 \div 30$  N/t);  $q_t$  - dumpkarning yuksiz og‘irligi – 55 t.

$$n_v = \left( \frac{10000 \cdot 150 \cdot 0,3}{25 + 10 \cdot 30} - 150 \right) \cdot \frac{1}{55 + 103} = 8 \text{ vagon}$$

4. Poyezdning foydali massasini aniqlaymiz:

$$Q_{cheg} = n_v \cdot q_{jins mas.} = \left( \frac{10000 P_{ilash} \cdot K_{ilash}}{w_{sol.q} + 10 i_{reys}} - Q_l \right) \cdot \frac{1}{q_t + q_{jin.massasi}}$$

$$Q = 8 \cdot 103 = 824 \text{ t.}$$

5. Lokomotiv sostavining yuklash davomiyligini aniqlaymiz:

$$t_{yukl.} = n_v \cdot q_{jins mas.} : Q_{e.tex};$$

bunda  $Q_{e.tex}$  – ekskavatorning texnik unum dorligi, t/soat

$$t_{yukl.} = 824 : 1350 = 0,61 \text{ soat}$$

6. Lokomotiv sostavlarining vaqtinchalik va doimiy yo‘llar bo‘yicha harakatlanish davomiyligini hisoblaymiz:

$$t_{vaq.yo'l} = \frac{2L_{vaq.}}{V_{vaq.}} ; \quad t_{doim.yo'l} = \frac{2L_{doim}}{V_{doim}} ;$$

bunda,

$L_{vaq}$  – vaqtinchalik yo‘l uzunligi 2 km;  $V_{vaq}$  – poyezdlarning vaqtinchalik yo‘lda harakatlanish tezligi, ( $V_{vaq} = 1520$  km/soat);  $L_{doim}$  – doimiy yo‘l uzunligi - 4 km;  $V_{doim}$  – poyezdlarning doimiy yo‘lda harakatlanish tezligi ( $V_{doim} = 35 \div 40$  km/soat);

$$t_{vaq.yo'l} = \frac{2 \cdot 2}{15} = 0,27 \text{ soat.}$$

$$t_{doim.} = \frac{2 \cdot 4}{35} = 0,23 \text{ soat.}$$

7. Lokomotiv sostavining yukni tushirish vaqtini aniqlaymiz:

$$t_{\text{tushir.}} = \frac{n_v \cdot t_{v.b.}}{60}$$

bunda,  $t_{\text{har bir vag.bo'sh.}} = 1,5 \div 5 \text{ min}$ . - dumpkarni ag'darib bo'shatish vaqtini ( $t_{\text{har bir vag.bo'sh.}} = 1,5 \div 5 \text{ min}$ ).

$$t_{\text{tushir.}} = \frac{8 \cdot 3}{60} = 0,4 \text{ soat}$$

8. Lokomotivning reys davomiyligini aniqlaymiz:

$$t_{\text{reys}} = t_{\text{yukl.}} + t_{\text{vaq.yo'l}} + t_{\text{tushir.}} + t_{\text{doim.}} + t_{\text{kutish}}$$

bunda,  $t_{\text{kutish}}$  - lokomotivni yuklanish, bo'shatilish va aldashish punktlaridagi kutishlarda yo'qotiladigan vaqtini ( $t_{\text{kutish}} = 0,08 \div 0,12 \text{ soat}$ ).

$$t_{\text{reys}} = 0,61 + 0,27 + 0,4 + 0,23 + 0,1 = 1,61 \text{ soat}$$

9. Ishchi lokomotiv sostavlar sonini aniqlaymiz:

$$N_s = w_s \cdot K_{\text{rez}} \cdot t_{\text{reys}} : n_v \cdot q_{\text{jins mas.}} \cdot T$$

bunda

$T$  – lokomotiv sostavlarning sutka davomida ishlaydigan vaqtini ( $T = 22 \text{ soat}$ );  $w_s$  - karyerning sutkalik yuk aylanmasi;  $K_{\text{rez}}$  – yuk o'tkazish qobiliyatining rezerv koeffitsiyenti ( $K_{\text{rez}} = 1,2 \div 1,25$ );

$$N_s = \frac{100000 \cdot 1,25 \cdot 1,61}{824 \cdot 22} = 11$$

10. Dumpkarlar ishchi parkini aniqlaymiz:

$$N_v = N_s \cdot n_v = 11 \cdot 8 = 88;$$

11. Lokomotiv va vagonlarning inventar parki ularning ishchi parkidan 20 % ko'p qabul qilinadi;

$$\begin{aligned} N_{\text{lok.inv.}} &= 11 \cdot 1,2 = 14 \text{ lokomotiv;} \\ N_{\text{vagon inv.}} &= 88 \cdot 1,2 = 106 \text{ vagon.} \end{aligned}$$

### Nazorat savollari:


1. Karyer yuk aylanmasi va yuk potogi deganda nimani tushunasiz?
2. Temir yo'l transportida poyezdning foydali massasi va harakatlanuvchi sostavning sonini aniqlash ifodalarini yozing.
3. Karyer avtomobil yo'llari va unda harakatlanuvchi avtoag'dargichlar tavsifini aytib bering.
4. Yer yuzi va tutashtiruvchi bermalarda uzoq muddat ekspluatatsiya qilishga qanday transheyalar mo'ljallangan?
5. Qanday sharoitda uzluksiz transport harakati qo'llaniladi?
6. Karyer avtomobil yo'llari ekspluatatsiya qilish sharoitlari bo'yicha nechta yo'lga bo'linadi va uning ta'rifini keltiring.

### 16 – amaliy mashg'ulot

#### Foydali qazilmani qazish uchun avtoag'dargich tipini tanlash, inventar parki va kapital transheyadagi harakatlanish yo'llari sonini aniqlash

Karyerlarda avtotransport qo'llanilganda ekskavator va avtoag'dargichlarning samarali ishlashi ko'p jihatdan mashinalarning yuklash joyiga turish sxemasiga bog'liq (9 – rasm).

Yo'lni ma'lum bir qismidan vaqt birligi ichida o'tib ketishi mumkin bo'lgan avtoag'dargichlar soni yo'lning o'tkazib yuborish qobiliyati deyiladi.



9 – rasm. Avtoag'dargichlarning yuklanish uchun ekskavatorga nisbatan joylashish sxemasi. a, b – to'ppa – to'g'ri yuklash joyiga turish sxemasi; d, e – petlyasimon burilish bilan yuklash joyiga turish sxemasi; f, g – tupikli burilish bilan yuklash joyiga turish sxemasi.

Yo'lning avtoag'dargichlar o'tkazib yuborish va yuk ko'tarish qobiliyati yo'lning muayyan qismining yuk aylanmasiga mos bo'lishi shart.

Avtoag‘dargichning manyovrlarga sarflaydigan vaqtini asosan yuklanish joyiga, turish sxemasiga bog‘liq bo‘lib, bir tomondan kirib ikkinchi tomondan chiqib ketishga mo‘ljallangan sxemasida 0 – 10 sek., petlyasimon sxemada 20 – 25 sek., tupikli sxemada 50 – 60 sek. ni tashkil qiladi(1 – jadval).

Avtoag‘dargichning yuk bilan va yuksiz harakatlanish tezligi 1 – jadvalda keltirilgan.

1 – jadval.

Yo‘llar	Avtoag‘dargich tezligi, km/soat		
	БелАЗ – 540 10 – 15	БелАЗ – 548 30 – 40	БелАЗ – 549 50 – 75
Shag‘alli magistral	32 (42)	32 (38)	30 (42)
Betonli magistral	45 (48)	38 (47)	34 (50)
Karyerdagi yo‘llar	13 (14)	11 (14)	13 (15)
Ag‘darmalardagi yo‘llar	17 (19)	16 (18)	11 (13)
Qiya lahimlardagi yo‘llar: beton qiyaligi = 20%	30 (50)	25 (49)	24 (50)
Beton qiyaligi = 60%	18 (35)	16 (34)	16 (35)
Shag‘al qiyaligi = 20%	20 (50)	20 (48)	18 (48)
Shag‘al qiyaligi = 80%	14 (30)	14 (30)	14 (30)

Qavslarda bo‘sh avtoag‘dargichlar tezligi.

Kuzovni bo‘shatishga sarflanadigan vaqtlar:

Yuk ko‘tarish qobiliyati 40 tonnagacha bo‘lsa – 60 sek.; 40 tonnadan yuqori bo‘lsa, 70 – 90 sek. ni tashkil qiladi.

**Berilgan:** Qazish ishlari ЭКГ – 5 rusumli to‘rtta ekskavator bilan bajariladi. Ulardan ikkitasi +175m gorizontda, ikkitasi +250m. Kapital transheyaning ukloni 60%, avtoyo‘l beton bilan qoplangan. Kavjoydan transheya boshlanishigacha bo‘lgan masofa – 1000m. Kapital transheyadan boyitish fabrikasigacha bo‘lgan masofa 1500 m. Foydali qazilmaning zichligi 3 t/m<sup>3</sup>, ekskavatorning texnik unumdarligi 900 t/soat.

**Yechish:** 1. Birinchi va ikkinchi foydali qazilma qazish gorizontlari uchun kapital transheya qiya yo‘llari bo‘yicha tashish masofasini aniqlaymiz:

$$\text{Birinchi gorizont uchun } \frac{75}{60} \cdot 1000 = 1250 \text{ м}$$

$$\text{Ikkinchi gorizont uchun } \frac{90}{60} \cdot 1000 = 1500 \text{ м.}$$

2. Birinchi va ikkinchi gorizontlar bo'yicha umumiylashish masofasini aniqlaymiz:

$$\text{Birinchi gorizont uchun } 1000 + 1250 + 1500 = 3750 \text{ м}$$

$$\text{Ikkinchi gorizont uchun } 1000 + 1500 + 1500 = 4000 \text{ м}$$

3. Avtoag'dargich rusumini tanlab olamiz. Buning uchun quyidagi jadvaldan ekskavator cho'michi sig'imi bilan avtoag'dargich kuzovi sig'imi nisbati butun songa teng keladiganini aniqlaymiz. Ushbu masala shartiga ko'ra bu nisbat 6 ga teng (2 – jadval).

Ekskavator cho'michi sig'imi bilan avtoag'dargich  
kuzovi sig'imi nisbati

2 – jadval.

Ekskavator cho'michi sig'imi, m <sup>3</sup>	Mashina kuzovi ( $V_a$ ) bilan ekskavator cho'michi sig'imi maqbul nisbati $\frac{V_a}{E}$ , tashish masofasi bo'yicha, km			
	1-2	3-4	5-6	7-8
3-4	5,2	6,5	8	10
5-6	5	6	7,5	9,5
8-10	4,5	5,5	7	9
12,5-16	4,2	5	6,5	8,5
20-25	4	4,8	6	8

Demak, avtoag'dargich kuzovi sig'imi  $30 \text{ m}^3$ . БелАЗ-548 avtoag'dargichni tanlab olamiz.

4. Avtoag'dargichning birinchi va ikkinchi gorizontlar bo'yicha harakatlanish davomiyligini aniqlaymiz:

$$t_{\text{harak}} = T_{\text{yuk}} + T_{\text{yuksiz}} =$$

$$60 \left( \sum_{i=1}^{i=n} \frac{l_i t_{yuk}}{V_{i,yuk}} + \sum_{i=1}^{i=n} \frac{l_i t_{yuksiz}}{V_{yuk,siz}} \right);$$

bunda

$T_{yuk}$ ,  $T_{yuksiz}$  – yuklangan va yuklanmagan avtoag‘dargichning harakatlanish davomiyligi, min;  $\ell_{yuk}$ ,  $\ell_{yuksiz}$  – yuklangan va yuklanmagan avtoag‘dargichning bosib o‘tadigan yo‘li, km;  $V_{yuk}$ ,  $V_{yuksiz}$  – yuklangan va yuklanmagan avtoag‘dargichning harakatlanish tezligi, km/soat ( $V_{yuk} = 11$  km/soat – vaqticha yo‘l uchun,  $V_{yuk} = 16$  km/soat – transheyadagi yo‘l uchun,  $V_{yuk} = 38$  km/soat – transheyadan boyitish fabrikasi orasidagi yo‘l uchun,  $V_{yuksiz} = 14$  km/soat, 34 km/soat, 47 km/soat – yuksiz avtoag‘dargich uchun).

$$t_{harak\ 1\ gor.} = 60 \cdot \left( \frac{1}{11} + \frac{1,25}{16} + \frac{1,5}{38} \right) + 60 \left( \frac{1,5}{47} + \frac{1,25}{34} + \frac{1}{14} \right) = 21,6 \text{ minut}$$

$$t_{harak\ 2\ gor.} = 60 \cdot \left( \frac{1}{11} + \frac{1,5}{16} + \frac{1,5}{38} \right) + 60 \left( \frac{1,5}{47} + \frac{1,5}{34} + \frac{1}{14} \right) = 22,8 \text{ minut.}$$

5. Avtoag‘dargichning yuklanish vaqtini aniqlashmiz:

$$t_{yuk} = \frac{q_a \cdot K_{ko`pch}}{E \cdot K_{cho`m.to`l.} \cdot \gamma_{zich.}}$$

bunda

$E$  – ekskavator cho‘michi sig‘imi,  $m^3$ ;  $K_{ko`pch}$  – ekskavator cho‘michidagi kon jinsining ko‘pchish koeffitsiyenti ( $K_{ko`pch} = 1,3 \div 1,8$ );  $K_{cho`m.to`l.}$  – ekskavator cho‘michi to‘lishini hisobga olish koeffitsiyenti ( $K_{cho`m.to`l.} = 1$ );  $\gamma_{zich.}$  – kon jinsi (foyDALI qazilma) zichligi,  $3 \text{ t/m}^3$ ;  $t_s$  – ekskavator sikli davomiyligi, min.

6. Birinchi va ikkinchi gorizontlar uchun xizmat qiladigan avtoag‘dargichlar sonini aniqlaymiz:

$$N_{ish.avt.ag`d}^1 = \frac{t_{to`ld} + t_{harak} + t_{reys} + t_{manevr}}{t_{bo`sashi}} = 1 + \frac{t_{harak} + t_{reys} + t_{manevr}}{t_{bo`sashi}} \\ = 1 + \frac{21,6 + 1 + 1,5}{1,5} \approx 20ta \cdot \text{avtoag‘dargich}$$

7. Hamma ekskavatorlarga xizmat qiluvchi avtoag‘dargichlar sonini aniqlaymiz:

$$N_{avt.ag`d.} = 20 + 20 + 21 + 21 = 82 \text{ ta avtoag‘dargich};$$

8. Mashina parki texnik tayyorgarlik koeffitsiyentini hisobga olgan holda ( $\tau_{tex.tayyor.} = 0,75$ ) avtoag‘dargichning inventar parkini aniqlaymiz:

$$N_{in} = 82 : 0,75 \approx 110.$$

9. Kapital transheyaning bir yo‘l bo‘yicha yuk ko‘tarish qobiliyatini aniqlaymiz:

$$N = \frac{60 \cdot K_{har.notek.}}{t_a} = \frac{1000 \cdot V \cdot K_{har.notek.}}{l_{bir.ket.}} = \frac{1000 \cdot 11 \cdot 0,8}{40} = 220;$$

bunda

$t_a$  – avtoag‘dargichlar harakatidagi interval, min;  $V$  – avtoag‘dargichlar harakat tezligi, km/soat;  $t_{bir.ket.}$  – birin-ketin yurayotgan avtoag‘dargichlar orasidagi xavfsiz masofa, m ( $t_{bir.ket.} = 40$  m).  $K_{har.notek.}$  harakatlanish notejisligi koeffitsiyenti ( $K_{har.notek.} = 0,5 \div 0,8$ );

10. Yo‘lning yuk tashish qobiliyatini aniqlaymiz:

$$M = Nq_{yuk} : K_{rez} + 220 \cdot 30 : 1,75 \approx 3770 \text{ t/soat};$$

bunda,  $K_{rez} = 1,75 \div 2,0$  – rezerv koeffitsiyenti

11. Kapital transheyaning eng ko‘p yuk o‘tadigan yuqori qismining yuk o‘tkazish qobiliyati

$$M_{um} = 900 \cdot 4 = 3600 \text{ t/soat};$$

12. Yuklangan avtoag‘dargich harakati yo‘nalishi bo‘yicha yo‘l qatorlari sonini aniqlaymiz:

$$\rho = M_{um} : M = 3600 : 3770 \approx 1.$$

### **Mustaqil ishlash uchun misollar**

1. Ekskavator rusumi texnik unumdarligi  $\mathcal{E}K\Gamma = 4,6$ ;  $Q_{tex} = 900 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; qazish joylari soni 1 ta, avtoyo‘l qiyaligi 60%, avtoyo‘l uzunligi: vaqtinchalik 1,0; doimiy 1,5 km; jins zichligi  $2,8 \text{ t/m}^3$ ; qiya yo‘l bo‘yicha tashish masofasi: 1 qazish joyi uchun 1200; 2 qazish joyi uchun - 0 m;

2. Ekskavator rusumi texnik unumdarligi  $\mathcal{E}K\Gamma = 8$ ;  $Q_{tex} = 1400 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; qazish joylari soni 2 ta; avtoyo‘l qiyaligi 60%; avtoyo‘l uzunligi: vaqtinchalik 1,8; doimiy 2,0 km; jins zichligi  $3,0 \text{ t/m}^3$ ; qiya yo‘l bo‘yicha tashish masofasi: 1 qazish joyi uchun 1300; 2 qazish joyi uchun - 1500 m;

3. Ekskavator rusumi texnik unumdarligi  $\mathcal{E}K\Gamma = 12$ ;  $Q_{tex} = 900 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; qazish joylari soni 2 ta; avtoyo‘l qiyaligi 60%; avtoyo‘l uzunligi: vaqtinchalik 2,2; doimiy 1,8 km; jins zichligi  $2,5 \text{ t/m}^3$ ; qiya yo‘l bo‘yicha tashish masofasi: 1 qazish joyi uchun 1600; 2 qazish joyi uchun - 2000 m;

4. Ekskavator rusumi texnik unumdarligi  $\mathcal{E}K\Gamma = 15$ ;  $Q_{tex} = 900 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; qazish joylari soni 1 ta; avtoyo‘l qiyaligi 60%; avtoyo‘l uzunligi:

vaqtinchalik 1,5; doimiy 2,0 km; jins zichligi 2,6 t/m<sup>3</sup>; qiya yo‘l bo‘yicha tashish masofasi: 1 qazish joyi uchun 1400; 2 qazish joyi uchun - 0 m.

Nazorat savollari:

1. Avtoag‘dargichlarning yuklanish vaqtida ekskavatorga nisbatan joylashish sxemalarini chizing.
2. Karyer avtomobil yo‘llari va unda harakatlanuvchi avtoag‘dargichlar tavsifini aytib bering.
3. Temir yo‘l transportida poyezdning foydali massasi va harakatlanuvchi sostavning sonini aniqlash ifodalarini yozing.
4. Qazish tizimining elementlari va ularning o‘lchamlari to‘g‘risida gapirib bering.
5. Hozirgi vaqtida karyerlarda qo‘llanilayotgan qazish tizimlari tasnifini aytib bering.
6. Ochiq usulda konlarni qazib olish tizimlari tasnifini tuzgan olimlar to‘g‘risida ma’lumotlar bering.

## **17 – amaliy mashg‘ulot**

### **Kon jinsini qazish uchun temir yo‘l transporti tipini tanlash, inventar parki sonini aniqlash**


Temir yo‘l va harakatlanuvchi sostavlar temir yo‘l transporti vositalari hisoblanadi. Karyer temir yo‘llari ekspluatatsiya qilish sharoitlari bo‘yicha statsionar va vaqtinchalik yo‘llarga bo‘linadi. Statsionar yo‘l o‘z holatini doimiy yoki uzoq muddat saqlab turadi. Yer yuzidagi, transport bermalaridagi va kapital transheyalardagi temir yo‘llar statsionar yo‘llar hisoblanadi. Vaqtinchalik yo‘llar esa pog‘ona ishchi maydoni va ag‘darmalarga joylashgan bo‘lib, ular davriy ravishda surilib turadi.

Karyerlarda asosan koleyasi 1520mm bo‘lgan standart temir yo‘llar qo‘llaniladi. Barcha standart temir yo‘llarda burilish radiusi 200m dan kam bo‘lmasligi kerak, vaqtinchalik yo‘llarda esa burilish radiusi 100-120m ni tashkil qiladi.

Temir yo‘l trassasidagi yuk tashish yo‘nalishi bo‘yicha maksimal ko‘tarilish uchastkasi bosh ko‘tarilish deyiladi va  $i_{ko\cdot tar}$  bilan belgilanadi. Bosh ko‘tarilish miqdori bo‘yicha poyezdning massasi aniqlanadi. Poyezdni bitta lokomotiv harakatga keltirganda, bosh

ko‘tarilish  $i_{ko'tar} = 40\%$  ni, lokomotiv va tortish agregati harakatga keltirganda esa  $i_{ko'tar} = 60\%$  ni tashkil qiladi.

Temir yo‘l ostki va ustki qurilmalardan tashkil topadi. Ostki qurilma har ikki tomonidan suv chiqarish ariqchasi hosil qilingan yer tiligidan tashkil topgan bo‘ladi. Yo‘lning yuqori qurilmasi ballast, shpal, shpalga mustahkam o‘rnatilgan relslardan iborat bo‘ladi (10-rasm).



10- rasm. Temir yo‘l qurilish sxemasi: 1-yer polotnosi; 2-ballast; 3-shpal; 4-taglik; 5-rels; 6-suv ketadigan ariqcha; 7-nakladka; 8- kolejya kengligi.

Ballast sifatida shag‘al, maydalangan toshlardan foydalaniladi. Statsionar yo‘llarda ballast qalinligi 25-40 sm, vaqtinchalik yo‘llarda esa 15-20 sm ni tashkil qiladi. Karyerlarda asosan yog‘och shpallar va temir-beton shpallardan foydalaniladi, ayrim hollarda esa metall shpallar ham qo‘llaniladi. Bir km temir yo‘lga 1440-2000 ta shpal qo‘yiladi. Relslar tipi 1metr rels og‘irligi bilan bir-biridan farqlanadi. R=50, R=65 tipidagi relslar karyerlarda keng qo‘llaniladi. (R=50 rels 1metrining og‘irligi 50kg, R=65 niki esa 65kg ga teng bo‘ladi).

**Eslatma:** hisoblash ifodalaridagi koeffitsiyentlar va ayrim ko‘rsatkichlar qiymatlarini yuqorida ishlangan misollardan olinadi.

### Mustaqil ishlash uchun misollar

1. Ekskavator rusumi - texnik unumdarligi ҶКГ – 8и;  $Q_{tex} = 1300 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; kon jinsi zichligi 2,4; vaqtinchalik yo‘l uzunligi 1,5 km; doimiy (statsionar) yo‘l uzunligi 2,0 km; elektrovoz rusumi EL -1; vagon rusumi 2BC-105; yillik yuk aylanmasi 120 ming tonna; ko‘pchish koeffitsiyenti 1,5;
2. Ekskavator rusumi - texnik unumdarligi ҶКГ – 12,5;  $Q_{tex} = 1800 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; kon jinsi zichligi 1,8; vaqtinchalik yo‘l uzunligi 2,0 km; doimiy (statsionar) yo‘l uzunligi 1,5 km; elektrovoz rusumi EL -1; vagon rusumi 2BC-105; yillik yuk aylanmasi 150 ming tonna; ko‘pchish koeffitsiyenti 1,4;

3. Ekskavator rusumi - texnik unumdarligi  $\mathcal{E}K\Gamma$  – 5;  $Q_{tex} = 1200 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; kon jinsi zichligi 2,5; vaqtinchalik yo‘l uzunligi 1,6 km; doimiy (statsionar) yo‘l uzunligi 2,5 km; elektrovoz rusumi EL -1; vagon rusumi 2BC-105; yillik yuk aylanmasi 100 ming tonna; ko‘pchish koeffitsiyenti 1,6;
4. Ekskavator rusumi -  $\mathcal{E}K\Gamma$  – 15  $\text{m}^3/\text{soat}$ ; kon jinsi zichligi 2,8; vaqtinchalik yo‘l uzunligi 2,4 km; doimiy (statsionar) yo‘l uzunligi 2,0 km; elektrovoz rusumi EL -1; vagon rusumi 2BC-105; yillik yuk aylanmasi 220 ming tonna; ko‘pchish koeffitsiyenti 1,3.

Nazorat savollari:

1. Karyer temir yo‘llari ekspluatatsiya qilish sharoitlari bo‘yicha necha xil yo‘llarga bo‘linadi?
2. Statsionar yo‘llar qanday va qancha muddat saqlanib turadi?
3. Karyerlarda temir yo‘l kolejasi orasi qancha bo‘ladi va qanday yo‘llarda qo‘llaniladi?
4. Barcha standart va vaqtinchalik temir yo‘llarda burilish radiusi qanchani tashkil qiladi?
5. Karyerlarda asosan temir yo‘llar uchun qanday shpallardan foydalilaniladi va 1 km ga nechta shal joylashtirish mumkin?
6. Karyerlarda eng keng qo‘llaniladigan relslar tipi haqida tushuncha bering.

## **18 – amaliy mashg‘ulot**


### **Temir yo‘l transporti va mexanik cho‘michli ekskavator yordamida ag‘darma hosil qilinganda temir yo‘lning surilish qadamini va ag‘darma tupigi qabul qilish qobiliyatini aniqlash**

Qazib olingan qoplama jinslarni karyer ichiga yoki undan tashqaridagi maxsus maydonlarga bevosita qazib – yuklash uskunalarini yordamida eltib, yoki transport vositalarida tashib joylashtirish bilan bog‘liq texnologik jarayonlar majmui ag‘darma\_hosil qilish deyiladi. Karyer ichidagi qazishdan bo‘shagan va karyer chegaralaridan tashqarida hosil qilingan qoplama jins uyumlari ag‘darma deb yuritiladi. Shu sababli ag‘darmalar ichki va tashqi bo‘ladi. Karyer maydonidagi foydali qazilmani qazib olingandan so‘ng bo‘shagan maydonda hosil qilingan qoplama jins ag‘darmasi ichki ag‘darma, karyer chegaralaridan ma’lum masofada hosil qilingan ag‘darma esa

tashqi ag‘darma deb yuritiladi. Ichki ag‘darmalar gorizontal yoki qiyalik burchagi  $12^\circ$  gacha bo‘lgan foydali qazilma yotqiziqlarini qazib oladigan karyerlarda hosil qilinadi. Bunda qoplama jinslar katta quvvatga ega (cho‘michning hajmi  $25 - 80 \text{ m}^3$  va undan ham ortiq, strelasi uzunligi  $35 - 100 \text{ m}$ ) draglaynlar, cho‘mich sig‘imi  $15 - 35 \text{ m}^3$  dan  $65 - 100 \text{ m}$  gacha bo‘lgan mexanik bir cho‘michli ekskavatorlar yordamida qazishdan bo‘shagan karyer maydoniga bevosita (transport vositisiz yoki transport vositalari bilan) joylashtiriladi.

Qoplama jinslar transport vositalarida karyerdan tashib keltirilib, uzunligi  $L = 20 - 25 \text{ m}$ , chuqurligi  $h_{ch} = 0,8 - 10 \text{ m}$  va hajmi  $200 - 300 \text{ m}^3$  bo‘lgan handaqqa to‘kiladi.

Handaqqa to‘kilgan jinslarni ekskavator uch yo‘nalishda (oldga, orqaga va yonga) yuqori nimpog‘ona usti maydoniga ekskavatsiya qiladi (11 – rasm).



11 - rasm. Mexanik cho‘michli ekskavator bilan ag‘darma hosil qilish sxemasi.

Karyerda temir yo‘l qo‘llanilganda qoplama jinslarni ag‘darmaga joylashtirish mexanik bir cho‘michli ekskavatorlar, draglaynlar va buldozerlar yordamida amalga oshiriladi. Zamonaviy karyerlarda ekskavator bilan ag‘darma hosil qilish yetakchi usul bo‘lib, ag‘darmalarga joylashtiriladigan qoplama jinslarning  $85 - 90 \%$  ushbu usulga to‘g‘ri keladi.

Ag‘darmalarga joylashtiriladigan kon jinslari va ag‘darma osti jinslarining fizik–texnik xossalariiga ko‘ra ekskavatorning ag‘darmadagi bajaradigan ishi ikki sxemada tashkil qilinishi mumkin.

- Agar ag‘darmaga joylashtiriladigan jinslar va ag‘darma osti jinslari mustahkam bo‘lsa, qoplama jinslarni bir vaqtida pastki va yuqori nimpog‘onalar ustiga joylashtiriladi. Ekskavator ag‘darma kirmasini (zaxodkasini) to‘ldirgandan so‘ng dastlabki o‘rniga qaytib keladi va yangi kirmani to‘ldirishni boshlaydi.
- Jinslar mustahkamligi yetarli bo‘lmagan sharoitlarda ekskavator oldga yurishda (almashish punktidan tupik tomon yurishda) jinslarni faqat pastki nimqavat ustiga, orqaga qaytishda esa yuqori nimqavat ustiga ekskavatsiya qiladi. Ushbu sxemada ekskavatorning salt yurishi yo‘q bo‘lib, unumdorligi yuqori bo‘lishiga erishiladi.

Ag‘darmadagi temir yo‘l surilish qadami ekskavatorning chiziqli o‘lchamlariga bog‘liq bo‘ladi. Ag‘darma pog‘onasi balandligi, temir yo‘l surilish qadami va ag‘darma tupigi uzunligi ag‘darmaning asosiy parametrlari hisoblanadi. Ag‘darmaning belgilangan parametrlarida uning boshqa qo‘shimcha parametrlari ham aniqlanadi.

**Berilgan:** Ag‘darma tupigi uzunligi  $L_{ag\cdot d.} = 1500$  m, ag‘darma pog‘onasi balandligi  $h_{ag\cdot d.} = 20$  m;  $K_n = 0,85 \div 0,9$  - ekskavatorning chiziqli parametrlaridan foydalanishni hisobga olish koeffitsiyenti;  $K_{ag\cdot d. ko\cdot p.} = 1,1 \div 1,2$  – jinslarning ag‘darmada qo‘shimcha maydalanishini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $A_{ag\cdot d.}$  – ag‘darma temir yo‘lining surilish qadami; ЭКГ – 8и ekskavatori yordamida ag‘darma hosil qilinadi.

**Yechish:** 1 Temir yo‘lni surilish qadamini aniqlaymiz:

$$A_{ag\cdot d.} = (R_{qaz} + R_{yuk}) \cdot K_n$$

bunda

$R_{qaz}$  va  $R_{yuk}$  – ekskavatorning qazish va yuklash radiuslari,  $R_{qaz} = 11,9$ ;  $R_{yuk} = 16,3$ ;

$$A_{ag\cdot d.} = (11,9 + 16,3) \cdot 0,9 = 25,4 \text{ m.}$$

2. Ag‘darma tupigining qoplama jinslarni qabul qilish qobiliyatini aniqlaymiz:

$$V_{ag\cdot d. tup.} = h_{ag\cdot d.} \cdot A_{ag\cdot d.} \cdot L_{ag\cdot d.} / K_{ag\cdot d. ko\cdot pchish}$$

$$V_{ag\cdot d. tup.} = \frac{20 \cdot 25,4 \cdot 1500}{1,15} = 662600 \text{ m}^3.$$

## **Mustaqil ishslash uchun misollar**

1. Qo'llanmadagi mexanizatsiya vositalari: temir yo'l transporti ЭКГ-5, ag'darma pog'onasi balandligi  $h_{ag'd}$  - 15m; ekskavatorning chiziqli parametrlari:  $R_{qaz}$  - 11,2,  $R_{yuk}$  - 13,6 m; ag'darma tupigi uzunligi  $L_{ag'd}$  - 1400 m; ekskavator parametrlaridan foydalanish koeffitsiyenti  $K_p$  - 0,85, ag'darmadagi jinslarning qarshiligi ko'pchish koeffitsiyenti  $K_{ag'd.ko'pchish}$  - 1,2;
2. Qo'llanmadagi mexanizatsiya vositalari: temir yo'l transporti ЭКГ-12,5; ag'darma pog'onasi balandligi  $h_{ag'd}$  - 20m; ekskavatorning chiziqli parametrlari:  $R_{qaz}$  - 1,8;  $R_{yuk}$  - 19,9 m; ag'darma tupigi uzunligi  $L_{ag'd}$  - 1600 m; ekskavator parametrlaridan foydalanish koeffitsiyenti  $K_p$  - 0,9; ag'darmadagi jinslarning qarshiligi ko'pchish koeffitsiyenti  $K_{ag'd.ko'pchish}$  - 1,1;
3. Qo'llanmadagi mexanizatsiya vositalari: temir yo'l transporti, ЭВГ-15; ag'darma pog'onasi balandligi  $h_{ag'd}$  - 20m; ekskavatorning chiziqli parametrlari:  $R_{qaz}$  - 20,5;  $R_{yuk}$  - 37,8 m; ag'darma tupigi uzunligi  $L_{ag'd}$  - 2000 m; ekskavator parametrlaridan foydalanish koeffitsiyenti  $K_p$  - 0,8; ag'darmadagi jinslarning qarshiligi ko'pchish koeffitsiyenti  $K_{ag'd.ko'pchish}$  - 1,2.

Nazorat savollari:

1. Kon yotqizig'i yer ostida qanday joylashganda ichki va qanday joylashganda tashqi ag'darma hosil qilinadi?
2. Qoplama jinslar ag'darmasini hosil qilishda qo'llanadigan transport vositalari bo'yicha ag'darma nomlarini ayting.
3. Ag'darma tupigi, uning jinslarni qabul qilish qobiliyati deganda nimani tushunasiz va uni aniqlash usulini ko'rsating.
4. Konsolli uskuna va transport-ag'darma ko'prigi yordamida ag'darma hosil qilish texnologiyasini so'zlab bering.
5. Ag'darma hosil qilish texnologiyasini tushuntirib bering.
6. Ag'darma ish frontining surulish usullari necha xil va ular qanday nomlanadi?


## **19 – amaliy mashg'ulot Buldozer ag'darmasi fronti uzunligini aniqlansin**

Qoplama jinslarni ag'darmaga avtotransportda tashilganda ag'darma hosil qilish buldozer bilan amalga oshiriladi. Ag'darmani ikki usulda –

chekka yoki maydon usullarida to‘ldiriladi. Chekka usulda avtotransport kon jinslarini ish fronti bo‘yicha pog‘ona ustki qirrasidan bevosita qiyalik tekisligiga yoki undan 3 – 5 m masofada to‘kadi. Shundan so‘ng jinslar buldozer yordamida ag‘darma pog‘onasi qiyalik tekisligiga surib joylashtiriladi. Maydonli usulda avtotransportlar qoplama jinslarni ag‘darmaning butun ustki maydoniga to‘kadi. Buldozer ag‘darma ustini tekislagandan keyin ag‘darma maydoni katok bilan zichlanadi. Shundan so‘ng ag‘darmaga yangi qatlam to‘kiladi. Birinchi usulda ag‘darma hosil qilganda ag‘darma planda (gorizontal), ikkinchi usulda esa vertikal bo‘yicha rivojlanib boradi.

Chekka usulda buldozer bilan ag‘darma hosil qilishda tekislash va yo‘l ishlari kam bo‘lganligi sababli bu usul iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maydonli usulda buldozer bilan ag‘darma hosil qilishdan kam, asosan, mustahkamligi kichik yumshoq jinslar ag‘darmasini hosil qilishda foydalaniladi.

Buldozer ag‘darmasi odatda uchta uchastkadan iborat bo‘ladi (12 – rasm).



12 - rasm. Buldozer ag‘darmasining sxemasi:  $L_{a.f}$  - tartib bo‘yicha ag‘darma frontining uzunligi,  $L_{t.u}$  – to‘kish uchastkasi,  $L_{t.u}$  - tekislash uchastkasi,  $- L_{rez.u}$  - rezerv uchastkasi.

Chekka ag‘darma hosil qilish usuli qo‘llanilganda, ag‘darma pog‘onasi ustki qirrasida xavfsizlikni ta‘minlash uchun yog‘och yoki metall tirkaklar (avtomobil orqa g‘ildiragi uchun) o‘rnatiladi (ayrim hollarda balandligi 0,5 – 0,8 m; kengligi 2 – 2,5 m bo‘lgan jins uyumlari hosil qilinadi). Bundan tashqari, buldozer ag‘darmasi ustki maydoni ag‘darma markazi tomon  $4 - 5^{\circ}$  qiyalikka ega bo‘lishi lozim.

Tekis joyda hosil qilingan buldozer ag‘darmasi balandligi qattiq jinslar uchun 30 – 35 m; qumtoshlar uchun 15 – 20 m; soztuproq (glinalar) uchun 10 – 15 m ni tashkil qiladi.

Tog‘ yonbag‘ri karyerlarda hosil qilingan buldozer ag‘darmalari balandligi 150 m va undan ham baland bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda ishchilar va uskunalar havfsizligini ta’minlash uchun maxsus tadbirlar ishlab chiqiladi.

**Berilgan:** karyerning qoplama jinslar bo‘yicha unumdarligi  $P_{q.j.} = 3000 \text{ m}^3/\text{soat}$ ; qoplama jinslarning zichligi  $\gamma_{q.j.} = 2,5 \text{ t/m}^3$ ; qoplama jinslar БелАЗ – 548 rusumli avtovozlarda tashiladi. Avtovoz kuzovida jinslarning ko‘pchish koeffitsiyenti  $K_{avt.ko‘pchish} = 1,3$  ga teng.

**Yechish:** 1. Avtovoz bilan (bir reysda) tashiladigan qoplama jins hajmini aniqlaymiz:

$$V_{avt.} = \frac{E_{avt} \cdot K_{avt.ko‘pchish}}{\gamma_{q.j.}}$$

bunda

$E_{avt.}$  – avtovoz kuzovining hajmi, БелАЗ – 548 uchun  $E_{avt} = 40 \text{ m}^3$ ;  $K_{avt.ko‘pchish} = 1,3$ ;  $\gamma_{q.j.} = 2,5$ ;

$$V_{avt.} = \frac{40 \cdot 1,3}{2,5} = 20,8 \text{ m}^3$$

2. 1 soatda ag‘darma kelib qoplama jins to‘kadigan avtovozlarni hisoblaymiz:

$$N_{soat} = \frac{I\!I_{q.j.} \cdot K_{notekis}}{V_{avt.}}$$

bunda

$K_{notekis} = 1,25 \div 1,5$  – karyerning notekis ishlanishini hisobga olish koeffitsiyenti:

$$N_{soat} = \frac{3000 \cdot 1,4}{20,8} = 202$$

3. Ag‘darmada bir vaqtning o‘zida yuk tushiruvchi avtovozlarni hisoblaymiz:

$$N_{avt.} = N_{soat} \cdot \frac{t_{yuk.tush.manyovr}}{60}$$

bunda

$t_{yuk.tush.manyovr} = 1,5 \div 2 \text{ min.}$  – avtovozning yuk tushirish va manyovrlarga sarflanadigan vaqt.

$$N_{avt.} = \frac{202 \cdot 2}{60} = 7$$

4. Qoplama jinslarning ag‘darma fronti uzunligini aniqlaymiz:

$$L_{qop.jins ag`d.front.} = N_{avt} \cdot l_{avt.yo`l} = 7 \cdot 20 = 140 \text{ m}$$

bunda

$$l_{avt.yo`l} = 18 \div 20 - ag`darma fronti bo'yicha avtomobil yo'li kengligi, m.$$

5. Ag`darma fronti uzunligini aniqlaymiz:

$$L_{ag`d.front.} = 3 \cdot L_{qop.jins ag`d.front.} = 3 \cdot 140 = 420 \text{ m.}$$

Nazorat savollari:

1. Buldozerli ag`darma sxemasi afzalliklarini ko'rsating.
2. Ag`darmaning qabul qilish imkoniyatini nima belgilaydi?
3. Bir kavshli ekskavatorlarning turini aniqlang.
4. Mexlopataning ishchi parametrlarini tushuntirib bering.
5. Qaysi burg'ilash usulida burg'ilash kavjoyi (zaboyda) dagi jinslar birin-ketin ezhilish va chetnash asosida buziladi (maydalananadi)?
6. Pog'onadagi ish maydonining kengligi nimaga bog'liq bo'ladi?


## 20 – amaliy mashg'ulot

### **Ag`darma hosil qilishda ishchi va umumiy temir yo'l tupiklari soni aniqlansin**

Keyingi yillarda quvvati 220 kVt va undan ham quvvatli buldozerlar ishlab chiqarilishi tufayli temir yo'l transporti qo'llanadigan karyerlarda buldozer bilan ag`darma hosil qilish usuli qo'llanila boshlandi. Buldozer bilan ag`darma hosil qilishda iqtisodiy jihatdan maqbul ag`darma kirmasi kengligi 30–40 m bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ag`darma tupigi uzunligi esa  $1,2 + 1,5$  km ni tashkil qiladi.

Buldozer bilan ag`darma hosil qilish toretsli (ko'ndalang), bo'ylama (frontal) va aralash sxemalarda amalga oshiriladi (13 – rasm). Ko'ndalang sxemada buldozer diagonal yo'nalishda harakatlanib, jinslarni ag`darmaga joylashtiradi. Bunda jinsnini to'kish fronti uzunligi lokomotiv sostav uzunligiga teng yoki undan ham uzunroq bo'lishi mumkin. Frontal (bo'ylama) sxemada buldozer jinslarni ag`darma frontiga tik yo'nalishda (eng qisqa masofa bo'yicha) surib ag`darmaga joylashtiradi. Aralash sxemada kamida ikkita buldozer ishlaydi. Ulardan biri vagonlardan to'kilgan jins uyumini buriladigan pichog'i bilan ag`darma pog'onasi qirrasiga yaqin joygacha surib beradi, ikkinchisi esa jinslarni burilmaydigan pichog'i (lemexi) bilan pog'ona qiyalik

tekisligiga joylashtiradi. Ushbu sxema yuqori unumdorlikka ega bo'lib, qoplama jinslarni pastki nimpog'onaga joylashtirishda qo'llaniladi.



13- rasm. Temir yo'l transporti qo'llanganda buldozer bilan ag'darma hosil qilishning texnologik sxemalari: a – toretsli (ko'ndalang); b – bo'ylama (frontal); d – aralash.

**Berilgan:** Ag'darma hosil qilishda ekskavator (ЭКГ-8и) va temir yo'l transporti qo'llanadi. Karyerning sutkalik yuk aylanmasi  $V_{\text{sut.aul.}} = 25000 \text{ m}^3$  (jinslarning zichligi  $\gamma_{\text{zich}} = 2,7 \text{ t/m}^3$ ). Dumpkarning kuzovi sig'imi 105 t. Lokomativ sostavda  $n_v = 8$  ta vagon bo'lib, umumiyluk yuk ko'tarish miqdori 824 t.

**Yechish:** 1. Ag'darma temir yo'li surilish qadamini aniqlaymiz:

$$A_{ag'd} = (R_{qaz} + R_{yuk}) \cdot K_p$$

bunda

$R_{qaz.}$ ,  $R_{yuk.}$  – ekskavatorning qazish va yuklash radiuslari, m ( $R_{qaz.} = 18,2$ ,  $R_{yuk.} = 16,3$ );  $K_p = 0,85 \div 0,9$  – ekskavator parametrlaridan foydalanishni hisobga olish koeffitsiyenti;

$$A_{ag`d} = (18,2 + 16,3) \cdot 0,85 = 29,3 \text{ m};$$

2. Ag‘darma tupigi qabul qilish qobiliyatini aniqlaymiz:

$$V_{a.tup.} = h_{ag`d} \cdot A_{ag`d} \cdot L_{ag`d} / K_{qold.ko`pch.};$$

bunda

$h_{ag`d} = 20 \text{ m}$  – pog‘ona balandligi;  $L_{ag`d} = 2000 \text{ m}$  – ag‘darma tupigi uzunligi;

$K_{qold.ko`pch.} = 1,1 \div 1,2$  – ag‘darmadagi jinslarning qoldiq ko‘pchishini hisobga olish koeffitsiyenti.

$$V_{a.t.} = \frac{20 \cdot 29,3 \cdot 2000}{1,2} = 977000 \text{ m}^3$$

3. Ag‘darmada lokomativ sostavining almashish davomiyligini aniqlaymiz:

$$t_{ag`d} = \frac{2L_{ag`d}^1}{V_{harak.}}$$

bunda

$L_{ag`d}^1 = 1,5 \text{ km}$  – almashish punktidan ag‘darma tupigi o‘rtasigacha bo‘lgan masofa;  $V_{harak.}$  – poyezdning harakatlanish tezligi,  $12 \text{ km/soat}$ ;

$$t_{ag`d} = \frac{2 \cdot 1,5}{12} = 0,25 \text{ soat}$$

4. Lokomativning yuk tushirish vaqtini aniqlaymiz:

$$t_{yuk tush.} = n_v \cdot t_{dump} = 8 \cdot \frac{3}{60} = 0,4 \text{ soat}$$

bunda

$t_{dump} = 3 \text{ min.}$  – bitta dumpkarning bo‘shatilish vaqt;

5. Bir sutkada ag‘darmaga qoplama jinslarni to‘kadigan lokomativlar sonini aniqlaymiz:

$$n_{sut} = \frac{K_{not.ish} \cdot T_{sutk}}{t_{ag`d} + t_{bo`shat}}$$

bunda,  $T_s = 22 \text{ soat}$  – bir sutkada lokomativsostavning ishlash vaqt.  $K_{not.ishl.} = 0,85 \div 0,95$  – transport vositasining notekis ishlashini hisobga olish koeffitsiyenti.  $t_{ag`d}$  – ag‘darmada lokomativsostavning almashish vaqt, soat;  $t_{bo`sh}$  – lokomativsostavning bo‘shatilish vaqt, soat;

$$n_{\text{sut}} = \frac{0,9 \cdot 22}{0,25 + 0,4} = 30$$

6. Ag‘darma tupigini sutkalik qabul qilish qobiliyatini aniqlaymiz:

$$V_{\text{sutk}} = n_{\text{sut}} \cdot n_v \cdot q_{\text{sig}} \cdot \frac{1}{\gamma_{\text{zich}}}$$

bunda

$n_v$  – sostavdagi vagonlar soni – 8 ta;  $q_{\text{sig}}$  = 840 – dumpkarning sig‘imi, tonna;

$$V_{\text{sutk}} = 30 \cdot 8 \cdot 840 \cdot \frac{1}{2,7} = 9330 \text{ m}^3$$

7. Temir yo‘lning ikki surilish vaqtiga ichidagi ag‘darma tupigining ishlash vaqtini aniqlaymiz:

$$t_{\text{bo'sh.}} = \frac{V_{\text{ag'd}}}{V_{\text{sut}}} = \frac{977000}{9330} \approx 107 \text{ sutka}$$

8. Ishchi ag‘darma tupiklari sonini aniqlaymiz:

$$N_{\text{t.r.}} = \frac{V_{\text{syt.ayl.}}}{V_{\text{sut}}} = \frac{25000}{9330} \approx 3 \text{ ta}$$

9. Rezervni hisobga olgan holda ag‘darma tupigi sonini aniqlaymiz (rezerv 20 %):

$$N_{\text{ag'd}} = N_{\text{t.}} \cdot 1,2 = 3 \cdot 1,2 = 3,6;$$

$$N_{\text{ag'd}} \approx 4 \text{ qabul qilamiz.}$$

### Mustaqil ishlash uchun misollar

1. Avtotransport, avtotransport turi БелАЗ-540 E=27 t; qoplama jinslar bo‘yicha unumdarlik 2800 P<sub>q.j.</sub> m<sup>3</sup>/soat; qoplama jinslar zichligi 2,4 γ<sub>q.j.</sub> t/m<sup>3</sup>; avtotransport kuzovida maydalanish koeffitsiyenti 1,2 K<sub>mayd.</sub>; karyer notekis ishlash koeffitsiyenti 1,4 K<sub>not</sub>; yuk tushirish va manyovr vaqtiga t<sub>r.m.</sub> 1,5 min.; ag‘darmadagi avtoyo‘l kengligi 18 ℓ, m;

2. Avtotransport, avtotransport turi БелАЗ-548 E=40 t; qoplama jinslar bo‘yicha unumdarlik 3200 P<sub>q.j.</sub> m<sup>3</sup>/soat; qoplama jinslar zichligi 2,6 γ<sub>q.j.</sub> t/m<sup>3</sup>; avtotransport kuzovida maydalanish koeffitsiyenti 1,3 K<sub>mayd.</sub>; karyer notekis ishlash koeffitsiyenti 1,5 K<sub>not</sub>; yuk tushirish va manyovr vaqtiga t<sub>r.m.</sub> 2,0 min.; ag‘darmadagi avtoyo‘l kengligi 20 ℓ, m;

3. Avtotransport, avtotransport turi БелАЗ-549 Е=75 т; qoplama jinslar bo‘yicha unumdorlik 283500 Р<sub>q.j.</sub> м<sup>3</sup>/soat; qoplama jinslar zichligi 2,5 γ<sub>q.j.</sub> т/м<sup>3</sup>; avtotransport kuzovida maydalanish koeffitsiyenti 1,2 K<sub>mayd.</sub>; karyer notekis ishlash koeffitsiyenti 1,5 K<sub>not</sub>; yuk tushirish va manyovr vaqtı t<sub>r.m.</sub> 2,1min.; ag‘darmadagi avtoyo‘l kengligi 22 ℓ, м;

Nazorat savollari:

1. Qaysi turdagи transportlar konsolli ag‘darmada ishlatiladi?
2. Plugli ag‘darma hosil qilganda temir yo‘lning qayta joylash qadamini ko‘rsating.
3. Ag‘darmalarda ekskavator-draglayn qanday maqsadda ishlatiladi?
4. Portlashni qo‘zg‘atuvchi sinfga qaysi portlovchi moddalar kiradi?
5. Ochish koeffitsiyenti nimani bildiradi?
6. Quduqni oshiqcha burg‘ilash nima uchun kerak?

## **21 – amaliy mashg‘ulot**

**Balandligi h<sub>pog</sub> = 15 м pog‘onani ekskavator bilan temir yo‘l transporti va burg‘ilab-portlatish ishlarini qo‘llab qazishda pog‘ona ishchi maydonining kengligi hisoblansin**

Kavjoy yo‘nalishi bo‘yicha qazishga tayyorlangan pog‘onaning bir qismi qazish fronti deyiladi. Foydali qazilma yotqizig‘i ustini qoplab yotgan jinslarni qazib olib, foydali qazilmani ochish bilan bog‘liq bo‘lgan kon ishlari majmui ochish ishlari deyiladi.

Pog‘onani qazib oluvchi asosiy uskunalar joylashtiriladigan maydoncha pog‘ona ishchi maydoni deyiladi, uning kengligi pog‘ona balandligidan 2-4 marta ko‘p bo‘ladi. Kichik kenglikka ega bo‘lgan va unda kon ishlari bajarilmaydigan maydoncha berma (supacha) deyiladi. Bajaradigan vazifalariga ko‘ra bermalar transport bermasi yoki muhofaza bermasi bo‘lishi mumkin.

Qoyasimon (qattiq) jinslarda kirma kengligi kon jinslarini qazishga tayyorlash, qazish va portlatishdan hosil bo‘lgan kon jinslari yoyilmasini qazib-yuklash ishlari tartibidan kelib chiqib aniqlanadi. Umumiyo‘ ko‘rinishda kirma kengligi B pog‘ona balandligi h, buzilish bermasi o‘lchami, skvajina qatori soni n va ular o‘rtasidagi masofa b ga bog‘liq bo‘lib, quyidagi ifoda orqali aniqlanishi mumkin.


$$B = h \operatorname{ctg} \alpha + c + b(n-1)$$

yoki

$$B = W + b(n-1)$$

bu yerda:  $W$  – pog‘ona osti bo‘yicha qarshilik chizig‘i, m;  $\alpha$  – pog‘ona qiyaligi, gradus.

Pog‘ona ishchi maydonining kengligi  $V_{i.m.}$  kon jinslari fizik-mekanik xususiyatlari, qazib-yuklash mashinalari ishchi parametrlari, qo‘llanadigan transport vositasi va pog‘onada ishni tashkil qilish usulidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.



14 - rasm. Qattiq jinslarda ish maydoni kengligini aniqlash sxemasi.

Qattiq jinslarni burg‘ilab portlatish ishlarini qo‘llab, qazib olishda pog‘ona ishchi maydoni minimal kengligi  $B_{i.m.}$ ; unda portlatilgan kon massasining yoyilmasi kengligi  $l$ ; transport yo‘li  $T$ ; yoyilma bilan transport yo‘li o‘rtasidagi masofa  $z$ ; nurab tushish prizmasi miqdori  $C$  va ekskavator kirmasi kengligi  $B$  bemalol joylashishi mumkinligi hisobga olib aniqlanadi (14- rasm):

**Berilgan:** Burg‘ilash kirmasi kengligi  $B = 8\text{m}$ ; portlatilgan jinslar yoyilmasi balandligi  $h_{p.j.yo.} = 13\text{ m}$ ; ikki yo‘llik temir yo‘lning kengligi  $T = 10\text{m}$ ; pog‘ona ustki qirrasidan mumkin bo‘lgan o‘pirilish o‘rtasidagi xavfsiz masofa  $z = 2,0\text{ m}$ ; ishchi pog‘onaning qiyalik burchagi  $\alpha = 60^0$ ; pog‘onaning turg‘unlik burchagi  $\gamma = 45^0$ ; jinslarning ko‘pchish koeffitsiyenti  $K_{ko‘pch} = 1,3$ .

**Yechish:** 1. Kon jinsi yoyilmasi kengligini aniqlaymiz:

$$\ell = (2K_{ko‘pch} \cdot \frac{h_{pog}}{h_{p.j.yo.}} - 1) \cdot B = (2 \cdot 1,3 \cdot \frac{15}{13} - 1) \cdot 8 = 12\text{m}$$

2. O‘pirilish prizmasi kengligini hisoblaymiz:

$$O‘_{priz} = h_{pog}(\operatorname{stg} \gamma - \operatorname{stg} \alpha) = 15 (\operatorname{stg} 45^0 - \operatorname{stg} 60^0) = 6,3 \text{ m.}$$

3. Ishchi maydonning minimal kengligi

$$L = V + \ell + Z + T + O‘_{priz} = 8 + 12 - 2 + 10 + 6,3 = 38,3 \text{ m.}$$

## **Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar**

Portlatilgan qoyasimon kon jinslari yoyilmasini temir yo‘l transporti yordamida ekskavator bilan qazib olishda pog‘ona ishchi maydoni kengligi aniqlansin:

- 1)  $h_{pog} = 10 \text{ m}$ ;  $h_{p.j.yo.} = 9 \text{ m}$ ;
- 2)  $h_{pog} = 20 \text{ m}$ ;  $h_{p.j.yo.} = 18 \text{ m}$ ;
- 3)  $h_{pog} = 30 \text{ m}$ ;  $h_{p.j.yo.} = 26 \text{ m}$ .

Qolgan ko‘rsatkichlar yuqorida yechilgan masaladagilar bilan bir xil bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Ochish ishlari majmui deb nimaga aytildi?
2. Ishchi maydon nima, siz u haqida nima bilasiz?
3. Eksravator kirmasi kengligini tushuntirib bering.
4. Qattiq jinslarda ishchi maydon kengligini aniqlash sxemasini tushuntirib bering.
5. Pog‘ona osti bo‘yicha qarshilik chizig‘i nima va nima uchun ishlatiladi?
6. Kon jinsi yoyilmasi kengligini chizib ko‘rsating.

## **22 – amaliy mashg‘ulot**

### **ЭВГ - 6 mexanik cho‘michli ekskavatordan foydalanganda qoplama jinslarni qazib olishda oddiy transportsiz qazish tizimini qo‘llash mumkin ekanligini tekshirish**

Oddiy transportsiz o‘tish usulida qazish tizimi transheya bortlari yetarli darajada mustahkam bo‘lib, ular ustiga qazib olingan kon massasi joylashtirilganda ham bort mustahkamligi saqlanib qoladigan sharoitlarda qo‘llanadi. Tog‘ yonbag‘rida transheyalar odatda mexanik cho‘michli ekskavatorlar bilan o‘tiladi. Bunda qazib olingan jinslar bevosita tog‘ yonbag‘riga to‘kiladi. Transheyalarни transportsiz usulda o‘tishda ekskavatordan vaqt bo‘yicha foydalanish koeffitsiyenti 0,85 – 0,95 bo‘lishi hisobiga uning unumдорлиги, transheyaning o‘tish tezligi transportdan foydalanib o‘tilgандагига ко‘ра ancha yuqori va sarflanадиган xarajatlar kam bo‘ladi.

Transheyalar jinslarni qo‘porib itqitadigan portlatish, gidromexanizatsiya vositalari, g‘ildirakli skreperlar bilan va boshqa usullarda ham o‘tiladi. Portlatish usulida transheya o‘tish ko‘p xarajat

talab qiladi va transheyangan belgilangan bo‘ylama profilli hamda ko‘ndalang kesim yuzasiga erishishini ta’minlaydi. Gidromexanizatsiya vositalari va g‘ildirakli skreperlar yumshoq jinslardan transheya o‘tishda qo‘llaniladi.

**Berilgan:** Qoplama jins qalinligi  $N_{qop,jins} = 10$  m; foydali qazilma qalinligi  $h_{f,q.} = 5$  m; ekskavator kirmasi kengligi  $B = 20$  m; ekskavator aylanish o‘qi bilan pog‘ona ustki qirrasi o‘rtasidagi masofa  $C = 8$  m; foydali qazilmani qazib olishdan bo‘shagan maydon kengligi  $Z = 2,0$  m; qazish pog‘ona qiyalik tekisligining mustahkam qiyalik burchagi  $\alpha = 70^0$ ; ag‘darmaning mustahkam qiyalik burchagi  $\beta = 45^0$ ; qoplama jinslarning ag‘darmasi ko‘pchish koeffitsiyenti  $K_{ko‘pchish} = 1,2$ .

**Yechish:** 1. Ag‘darma balandligini aniqlaymiz:

$$N_{ag‘d.} = N \cdot K_{ko‘pchish} + 0,25 \cdot V \cdot \operatorname{tg} \beta = \\ 10 \cdot 1,2 + 0,25 \cdot 20 \cdot \operatorname{tg} 45^0 = 17 \text{ m};$$

2. Ekskavator to‘kish balandligini hisoblaymiz:

$$h_{to‘kish} \geq N_{ag‘d.} - h = 17 - 5 = 12 \text{ m};$$

3. Ekskavator tushirish (to‘kish) radiusini aniqlaymiz:

$$R_{to‘kish} > C + N \operatorname{tg} \alpha + Z + N_{ag‘d.} \operatorname{stg} \beta = \\ 8 + 10 \cdot \operatorname{tg} \alpha + 2 + 17 \cdot \operatorname{stg} 45^0 = 30,6 \text{ m}.$$

ЭКГ – 6 ekskavatorining pasporti bo‘yicha maksimal to‘kish balandligi  $24,6 \text{ m} > 17 \text{ m}$ ; pasport to‘kish balandligi esa  $32,9 > 30,6 \text{ m}$  bo‘lganligi sababli qoplama jinslarni oddiy transportsiz qazish sxemasi bilan qazish mumkin.

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

Quyidagi ko‘rsatkichlar asosida qoplama jinslarni oddiy transportsiz sxemada qazib olish mumkinligi tekshirilsin.

1. ЭКГ – 4У ( $R_{to‘kish} = 22,1 \text{ m}$ ,  $H_{to‘kish} = 17,5 \text{ m}$ );
2. ЭВГ – 4Н ( $R_{to‘kish} = 22,15 \text{ m}$ ,  $H_{to‘kish} = 17,5 \text{ m}$ );
3. ЭКГ – 6,7 УС ( $R_{to‘kish} = 32,9 \text{ m}$ ,  $H_{to‘kish} = 24 \text{ m}$ );

### Nazorat savollari:

1. Karyerda yangi gorizont qilinayotganda qanday kavjoy (zaboy) ishlataladi?
2. Karyerda kon ishlar rejimi deganda nima tushuniladi?
3. Lahim o'tish sikli qaysi jarayonlarda tashkil topadi?
4. Qiyaligi qanday bo'lgan kon lahimlarida lentali konveyelerlar qo'llanishi mumkin?
5. Akad. N.V. Melnikov tavsiya etgan ochiq kon qazish tizimi tasnifi asosida nima yotadi?
6. PM zaryadini yer ostida portlatganda atrof muhitga ta'sir ko'rsatish sferalari bo'ladi. Konchilik amaliyotida portlatish ishlarining qaysi sferasidan foydalaniladi?


### **23 – amaliy mashg'ulot**

#### **Oraliq gorizontida joylashgan ЃIII-10/60 draglayni bilan oddiy transportsiz sxemada qoplama jinslarni qazishda pog'ona maksimal balandligini aniqlash**

Transheyani transportsiz usulda o'tish. Bu usul transheya bortlari yetarli darajada mustahkam bo'lib, ular ustiga qazib olingan kon massasi joylashtirilganda ham bort mustahkamligi saqlanib qoladigan sharoitlarda qo'llanadi. Transportsiz transheya o'tish usulida draglayndan foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Draglaynning to'kish radiusi va transheyaning ko'ndalang kesim yuzasi o'lchamlariga nisbatan draglayn ishlayotganda uning harakatlanish o'qi transheya o'qi ustida, transheya bortlarining biriga yaqin va transheya borti ustida bo'llishi mumkin. Qo'llanadigan draglaynning muayyan o'lchamlarida transheyadan qazib olingan kon massasi hajmi bilan transheya bortlari qabul qilish qobiliyatining o'zaro tengligi transheya parametrlarini hisoblashning asosiy prinsipidir (15 – rasm).

Foydali qazilma qatlama asosi (osti) bo'yicha avtomobil transportida tashiladi.



15 – rasm. Draglayn bilan transheya o'tish sxemalari: a –draglaynni transheya o'qi bo'yicha harakatlanishida; b - draglaynni transheya borti bo'yicha harakatlanishida; 1 – birinchi kirma (zaxodka); 2 – ikkinchi kirma.

**Berilgan:** ЃIII-10/60 maksimal to'kish radiusi  $R_{to`k} = 57$  m; foydali qazilma qatlami qalinligi  $h = 4$  m; draglayn kirmasi kengligi  $B = 35$  m; qoplama jins yuqori nimqavati balandligi  $H_{nimqav.} = 12$  m; qatlam asosi bo'yicha ochilgan maydon kengligi  $Z = 5$  m; ekskavator aylanish o'qi bilan qoplama jins pog'onasi ustki qirrasi o'rtasidagi masofa  $B = 6$  m; pog'ona asosi bo'yicha foydali qazilma tashilganda, qatlam usti bermasi kengligi  $a = 0$ ; qazish pog'onasi mustahkam qiyalik burchagi  $\alpha = 60^0$ ; qoplama jins pog'onasi mustahkam qiyalik burchagi  $\beta = 30^0$ ; jinslarning ag'darmadagi ko'pchish koeffitsiyenti  $K_{ko`pch} = 1,3$ .

**Yechish:** Qoplama jinsning maksimal qalinligini aniqlaymiz:

$$H = \frac{R_{to`k} - (a + Z + hctg\alpha + 0,25 \cdot B) + H_{nimq} \cdot ctg\gamma}{K_{ko`pch} ctg\beta + ctg\gamma} =$$

$$= \frac{57 - (6 + 5 + 4ctg60^0 + 0,25 \cdot 35) - 12 \cdot ctg45^0}{1,3tg30^0 + ctg45^0} = 14,4 \text{ м.}$$

### Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Draglayn bilan qazib olishda qoplama jins pog'onasi maksimal balandligi ( $H$ ) aniqlansin:

- 1) ЭIII – 10/70А ( $R_{to'k} = 66,5$  м);
- 2) ЭIII – 15/90А ( $R_{to'k} = 83$  м);
- 3) ЭIII – 25/100А ( $R_{to'k} = 95$  м);

Ekskavator oraliq gorizontida joylashgan foydali qazilma qatlam asosi bo‘yicha avtomobilda tashiladi.

Nazorat savollari:


1. Transheya o‘tilganda ishchi organi uzaytirilgan ekskavatorlar nima maqsadda ishlatiladi?
2. Ochiq usulda qazib olinadigan konlarning yotish sharoitlari va kon jinslarining texnologik xususiyatlarini aytib bering.
3. Konning ochish koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz? Uning turlari va aniqlash usullarini tavsiflab bering.
4. Portlovchi moddalar zichligi deganda nima tushuniladi.
5. Draglayn ekskavatorlar haqida tushuntiring.
6. Qaysi prinsipga asoslanib akademik V.V. Rjevskiy ishlab chiqarish sistemasi klassifikatsiyasi ishlab chiqqan?

## **24 – amaliy mashg‘ulot**

**Qayta ekskavatsiya qilishda draglaynning ishchi parametrlarini belgilash. Jinslarni qazishdan bo‘shagan maydonga (ichki ag‘darmaga) joylashtirishni ҶВГ-100/70 rusumli ekskavator yordamida bajarish**

Karyer ichidagi qazishdan bo‘shagan va karyer chegaralaridan tashqarida hosil qilingan qoplama jins uyumlari ag‘darma deb yuritiladi. Shu sababli ag‘darmalar ichki va tashqi bo‘ladi. Karyer maydonidagi foydali qazilmani qazib olingandan so‘ng bo‘shagan maydonda hosil qilingan qoplama jins ag‘darmasi ichki ag‘darma deb yuritiladi. Ichki ag‘darmalar gorizontal yoki qiyalik burchagi  $12^\circ$  gacha bo‘lgan foydali qazilma yotqiziqlarini qazib oladigan karyerlarda hosil qilinadi. Bunda qoplama jinslar katta quvvatga ega (cho‘michning hajmi  $25 - 80\text{ m}^3$  va undan ham ortiq, strelasi uzunligi  $35 - 100\text{ m}$ ) draglaynlar, cho‘mich sig‘imi  $15 - 35\text{ m}^3$  dan  $65 - 100\text{ m}$  gacha bo‘lgan mexanik bir cho‘michli ekskavatorlar yordamida qazishdan bo‘shagan karyer maydoniga bevosita (transport vositasiz yoki transport vositalari bilan) joylashtiriladi.

Yumshoq va yaxshi maydalangan qattiq jinslarni ag‘darmaga joylashtirishda draglaynlardan foydalaniladi. Draglaynlar qo‘llanilganda ag‘darma tupiklari soni kam bo‘lib, jinslarni yaruslarga joylashtirish usuli va tartibi boshqacha bo‘ladi (16–rasm). Bu esa o‘z navbatida ag‘darma kirmasi (zaxodkasi) kengligi katta bo‘lishi (30 – 100 m) hisobiga ag‘darmadagi temir yo‘l surilishi sonining keskin (3 – 6 barobar) kamayishini ta’minlaydi.



16- rasm. Draglayn bilan ag‘darma hosil qilish sxemasi.

**Berilgan:** ЭВГ-100/70 ekskavator maksimal qazish radiusi  $R_{\max, \text{qaz.}} = 70$  m; ekskavator kirmasi (zaxodka) kengligi  $B = 35$  m; qoplama jins pog‘onasi qazib olish balandligi  $H = 35$  m; foydali qazilma qalinligi  $h = 10$  m; qazib olishdagi bo‘shagan maydon kengligi  $z = 7$  m; draglaynni qayta yuklash uchun joylashish balandligi  $H_{\text{joyl.}} = 30$  m; qazib olish pog‘onasi qiyalik burchagi  $\alpha = 60^0$ ; ag‘darma qiyalik burchagi  $\beta = 35^0$ ; jinslarning ko‘pchish koeffitsiyenti  $K_{\text{ko`p}} = 1,2$ .

**Yechish:** 1. Ag‘darma balandligini aniqlaymiz:

$$H_{\text{ag`d}} = H \cdot K_{\text{ko`h}} + 0,25 \cdot B \cdot \text{stg } \beta =$$

$$35 \cdot 1,2 + 0,25 \cdot 35 \cdot \text{stg } 35^0 = 48,1 \text{ m.}$$

2. ЭВГ-100/70 ekskavatorning to‘kish balandligini aniqlaymiz:

$$H_{\max, \text{to`k}} \geq H_{\text{ag`d}} - h = 48,1 - 10 = 38,1 \text{ m.}$$

ekskavatorning pasport to‘kish balandligi  $H_{\max, \text{to`k.}} = 40$  m;

$$40 > 38,1.$$

3. Ag‘darma hajmini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} V_{ag'd} &= B \cdot H_{ag'd} - 0,25 \cdot B^2 \operatorname{tg} \beta = \\ &35 \cdot 48,1 - 0,25 \cdot \operatorname{tg} 35^\circ \cdot 35^2 = 1469 \text{ m}^3. \end{aligned}$$

4. Foydali qazilma bo‘yicha kirma (zaxodka) kengligini aniqlaymiz:

$$L = Z + h (\operatorname{stg} \alpha + \operatorname{stg} \beta) = 7 + 10 (\operatorname{stg} 60^\circ + \operatorname{stg} 35^\circ) = 27 \text{ m.}$$

5. Qayta ekskavatsiyalashning zaruriy hajmini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} V_2 &= L \cdot (H_{ag'd} - 0,25 \cdot L \cdot \operatorname{tg} \beta) - 0,5 \cdot h^2 (\operatorname{stg} \alpha + \operatorname{stg} \beta) = \\ &= 27 \cdot (48,1 - 0,25 \cdot 27 \cdot \operatorname{tg} 35^\circ) - 0,5 \cdot 102 (\operatorname{stg} 60^\circ + \operatorname{stg} 35^\circ) = \\ &= 1070 \text{ m}^3. \end{aligned}$$

6. Qayta ekskavatsiyalash koeffitsiyenti:

$$K_{q.e.} = \frac{V_{ag'd}}{V_2} = \frac{1070}{1469} = 0,728 \text{ m}^3 / \text{m}^3$$

7. Qayta ekskavatsiyalashni hisobga olgan holda ag‘darma balandligini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} H_{q.e.} &= \left[ \frac{(V_{ag'd} - 0,25 \cdot L^2 \cdot \operatorname{tg} \beta)}{L} + \frac{V_{ag'd}}{B - L} \right] \cdot \sin \beta = \\ &= \left[ \frac{1070 - 0,25 \cdot 27^2 \cdot \operatorname{tg} 35^\circ}{27} + \frac{1070}{35 - 27} \right] \cdot \sin 35^\circ = 69,1 \text{ m}. \end{aligned}$$

8. Draglayn ishchi parametrlarini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} R_{yuk} + R_{tok} &> 2H_{ag'd} \cdot \operatorname{stg} \beta - h \operatorname{stg} \alpha + H_{tok} \operatorname{stg} \beta = \\ &= 2 \cdot 30 \cdot \operatorname{stg} 35^\circ - 10 \cdot \operatorname{stg} 60^\circ + 69,1 \cdot \operatorname{stg} 35^\circ = 182 \text{ metr} \end{aligned}$$

9. Draglayn to‘kish balandligini aniqlaymiz:

$$H'_{to`k} = H_{q.e.} - H_{ag`d} = 69,1 - 30 = 39,1 \text{ m}$$

Quyidagi parametrlarga ega bo‘lgan draglaynni qabul qilamiz:

$$R_{max.qaz.} = 95 \text{ m}; R_{u.max.} = 95 \text{ m}; H_{max.qaz.} = 46 \text{ m.}$$

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

Oldingi masalada yozilgan sxema bo‘yicha qoplama jinslarni qayta ekskavatsiyalash uchun draglayn rusumi tanlab olinsin. Draglayn to‘kib bergen jinslarni qazishdan bo‘shagan joyga (ichki ag‘darmaga) joylashtirish ӘВГ-100/70 ekskavatori bilan bajariladi:

1.  $H = 40 \text{ m}$  bo‘lganda;
2.  $H = 45 \text{ m}$  bo‘lganda;
3.  $H = 50 \text{ m}$  bo‘lganda.

Nazorat savollari:

1. Qaysi hollarda tog‘ jinsini portlatish orqali maydalashda tashqi zaryadlar usuli ishlatiladi?
2. Tanlab olingan konni ochish usuli kon qazish korxonasining kamida necha yil davomida mo‘tadil ishlashini ta’minlashi kerak?
3. Hozirgi vaqtida kayerlarda foydalanilayotgan qazish tizimlarining qanday assosiy parametrlarini bilasiz?
4. Kon jinslari qattiqligi deb nimaga aytildi?
5. Kon lahimlarida foydali qazilma yoki jinslarni bevosita massivdan ajratib olinadigan joy nomini tushuntiring.
6. Mexanik usulda lahim o‘tish jinslar qattiqlik koeffitsenti ( $f$ ) qancha bo‘lganda qo‘llanishi mumkin?

### **25 – amaliy mashg‘ulot**

#### **Gorizontni panel (pol) usulida qazib olishda pol kengligi aniqlansin**

Avtotransport qo‘llanadigan qazish tizimlarida pog‘ona ishchi maydonining kengligi portlatilgan kon massasi yoyilmasini, transport yo‘llarining va xavfsizlik bermasining (C) joylashishini ta’minlashi

kerak, bunda  $\gamma$  va  $\alpha$  - jinslarning ichki ishqalanish burchagi va pog'onganing qiyalik burchagi, gradusda.

Agar portlatilgan kon massasi yoyilmasi kirma ichi yo'nalishi bo'yicha joylashgan bo'lsa, unda yoyilmaning ish fronti yo'nalishiga ko'ndalang bo'lga o'lchami ( $1/3 \div 1/2$ ) h gacha kamayishi mumkin. Bu esa pog'ona ishchi maydoni kengligini minimumga qisqartirishga imkon yaratadi. Biroq, burg'ilab-potrlatish ishlari samaradorligini oshirish uchun kirmanining selik bo'yicha kengligini oshirish zarurati tug'iladi. Bunday kirmalar bilan qazishda reja bo'yicha ish fronti bir necha ekskavatorlar uchun pollarga bo'linadi. Bunday sharoitlarda gorizontni qazishga tayyorlash bo'ylama transheyalar orqali amalga oshiriladi va undan polning butun kengligi bo'yicha ko'ndalang kesuvchi transheyalar o'tkaziladi. Polning uzunligi ko'ndalang kesuvchi transheyalar o'rtasidagi masofa orqali aniqlanadi. Bu uzunlik har bir ekskavatorning mustaqil ishslashini ta'minlaydi va 200 – 500 m ni tashkil qiladi. Ko'ndalang va bo'ylama kesuvchi transheyalar bir vaqtda barpo etiladi. Pollar kon yotqizig'i cho'ziqligiga ko'ndalang bo'lga ekskavator kavjoylari bilan qazib olinadi.

Qatlamlari konlarni qazib olishda ochish pog'onalaridagi polning kengligi pastki gorizontni ochishni ta'minlaydigan ish frontining surilish tezligiga teng qilib qabul qilinadi. Ish frontining kerakli bo'lga surilishi foydali qazilma (kon jinslari) yotqizig'inining og'ish burchagi va kesuvchi transheyalarni foydali qazilma bilan kon jinsi qatlami tutashish zonasidan o'tkazilganda foydali qazilma yo'qotilishi minimal bo'lishini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Qiya va yotiqligi foydali qazilma yotqiziqlarini balandligi 15 – 20 m pog'onalar bilan qazib olishda kesuvchi transheyani yotqiziqning ustki yoni bilan qoplama jins qatlami tutashish zonasidan tabaqalar bo'yicha o'tishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bunda foydali qazilma sifatsizlanishini sezilarli darajada kamaytirishga erishiladi. Yotqiziqning muayyan qiyalik burchagida ish frontining surilishi (polning kengligi) aniqlanadi.

Foydali qazilma pog'onalaridagi pollarning kengligi qoplama jins pog'onalarini pollari kengligiga teng bo'ladi. Agar foydali qazilma yotqizig'i qalinligi pol kengligidan ( $B_p$ ) katta bo'lsa, u holda foydali qazilma poli kengligi karra bo'yicha oshib boradi (ikki barobar, uch barobar va h.k.). Boshqa hollarda foydali qazilma polining kengligi foydali qazilma bo'yicha karyerni ishlab chiqarish quvvati katta

bo‘lganda pollarning kengligi bir vaqtda qazib olinadigan foydali qazilma gorizontlari soni bo‘yicha belgilanadi.

Gorizontni polar bo‘yicha qazib olishning afzalliklari: qazib – yuklash texnikasi sonini ko‘paytirib, ish frontini tashkil qilish hisobiga karyer loyiha quvvatiga erishish muddatini qisqartirish mumkin; cho‘michining hajmi katta bo‘lgan ( $20 - 24 \text{ m}^3$ ) va undan ham ko‘p) ekskavatorlar sonini 2 – 3 ta gacha yetkazish, juda katta yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lgan avtoag‘dargichlardan (180 – 250t.) foydalanish hisobiga kon ishlarini jadallashtirish; gidravlik ekskavatorlar qo‘llanilganda portlatilgan kon massasi yoyilmasini ularning o‘zi turgan gorizontdan yuqoriga va pastga joylashgan qismini bevosita qazib olish imkoniyati hisobiga yoyilmani saralab qazib olish mumkin. Bundan tashqari, gorizontni polar bilan qazib olishda pog‘ona ishchi maydonining kengligi qisqaradi va karyerdagi kon – qurilish ishlari hajmi kamayadi. Polar bilan gorizontni qazib olishda kon massasi yoyilmasi yo‘nalishining o‘zgarishi (ish fronti yo‘nalishi bo‘yicha joylashishi) pog‘ona ishchi maydoni kengligini  $25 - 30 \text{ m}$  gacha qisqartirishga imkon yaratadi. Chunki bunda avtoag‘dargichlar manyovrlari gorizontning qazishdan bo‘shagan maydonida bajarilishi mumkin bo‘ladi.

Pollar bo‘yicha gorizontni qazib olish davomiyligi odatdagи kirmalar bo‘yicha qazib olishga nisbatan ancha ko‘p va pog‘ona balandligi katta bo‘lganligi uchun ishchi maydonda quriladigan yo‘llarning maxsus qoplamlalar qo‘llanishi hisobiga sifatli bo‘lishi ta’minlanadi va bu, o‘z navbatida, avtoag‘dargichlar tezligini oshirish hamda ishslash sharoitini yaxshilashga imkon beradi.

**Berilgan:** pog‘ona balandligi  $h = 20 \text{ m}$ ; transport yo‘li kengligi  $B_t = 40 \text{ m}$ ; ruda tanasi cho‘ziqligiga ko‘ndalang yo‘nalish bo‘yicha portlatilgan jins yoyilmasi kengligi  $\alpha_{j.yo.} = 10 \text{ m}$ ; pog‘ona qiyalik burchagi  $\alpha = 70^\circ$ ; yotqiziq og‘ish burchagi  $\beta = 45^\circ$ ;  $T = 40 \text{ m}$  – transheya tubining kengligi.

**Yechish:** Pol kengligini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} B_{pol} &= 1/2 \cdot h (3 \cdot \operatorname{stg} \alpha - \operatorname{stg} \beta) + B_t + T + X_r = \\ &= 1/2 \cdot 20 \cdot (3 \cdot \operatorname{stg} 70^\circ - \operatorname{stg} 45^\circ) + 40 + 40 + 10 = 63 \text{ m}. \end{aligned}$$

## **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

Gorizontni qazib olishda pol kengligi aniqlansin:

1.  $h = 10 \text{ m}$ ; 2.  $h = 15 \text{ m}$ ; 3.  $h = 30 \text{ m}$ .

Hisoblashga kerak bo‘lgan ko‘rsatkichlar qiymati yuqorida yechilgan misol shartlaridan olinadi.

Nazorat savollari:

1. Pollar bilan gorizontni qazib olishda kon massasi yoyilmasi yo‘nalishining o‘zgarishi (ish fronti yo‘nalishi bo‘yicha joylashishi)da pog‘ona ishchi maydoni kengligi qanchaga qisqaradi?
2. Kon lahimlari shaklini tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tushuntiring.
3. Karyer (razrez) maydonini rekultivatsiya qilish deganda nimani tushunasiz va uning mohiyati nimada?
4. Karyerlarda qazib yuklash ishlari deganda nimani tushunasiz va ushbu jarayonlarni qanaqa texnik vositalar bilan mexanizatsiyalashtiriladi?
5. Karyer transporti, unda qo‘llanadigan transport vositalari, ularning qo‘llanish sharoitlarini aytib bering.

## **26 – amaliy mashg‘ulot**

**Tekis yerda joylashgan o‘ta qiya rangli metall ruda konini ochiq usulda qazib olishda chegaraviy ochish koeffitsiyenti aniqlansin**

Qiya va o‘ta qiya konlarning geologik sharoitlari va yertomir, shtoksimon shakldagi ruda tanalarini juda chuqurda joylashishi qazishdan bo‘shagan maydonga qoplama jinslarni joylashtirishga (ichki ag‘darma hosil qilishga) imkon bermaydi. Shuning uchun bunday konlarni qazib olishda qoplama jinslarni transport vositasida tashqi ag‘darmaga tashib joylashtirish texnologiyasi keng qo‘llaniladi. Odatda bunday konlarning barchasi yarimqoyasimon va qoyasimon jinslardan tashkil topgan bo‘lib, ularni dastlab burg‘ilab – portlatish yoki mexanik usulda qazishga tayyorlab, so‘ngra bir cho‘michli elektrik va gidravlik ekskavatorlar bilan qazib olinadi va transport vositasiga yuklanadi.

Qiya va o‘ta qiya konlarni qazib olishda kon ishlari chuqurlik yo‘nalishida rivojlanib boradi, ishchi zona esa ya’ni, bir vaqtida parallel qazish ishlari olib boriladigan pog‘onalar soni konni qazib olish muddati davomida o‘zgarib boradi. Kon – tayyorlov ishlari ham karyerning butun

ishlash muddati davomida bajarilib boriladi va ishchi zona chuqurligi oshib borgan sari ularning hajmi har bir gorizontda ko‘payib boradi. Ishchi zona chuqurlashib borishi mobaynida pog‘onalar uzunligi qisqarib, tashish masofasi esa uzayib boradi. Shu sababli bunday konlarni qazib olishda kon massasini tashishga ketadigan xarajatlarning mahsulot umumiy tannarxidagi ulushi ko‘payib, 70% ni tashkil qilishi mumkin.

Shu sababli qiya va o‘ta qiya konlarni qazib olishda ochish ishlari texnologiyasi kon massasini tashishda qo‘llanadigan transport vositasi bo‘yicha tanlab olinadi.

**Berilgan:** Rudani yer osti usulida qazib olishda rejadagi tannarx  $C_{yer\ ost.} = 12100 \text{ so‘m/m}^3$ ; ochiq usulda esa bu ko‘rsatkich  $C_{ochiq} = 6800 \text{ so‘m/m}^3$  ni tashkil qiladi; qoplama jinslarni qazib olishga ketgan xarajatlar  $S_{qop.jins} = 1800 \text{ so‘m/m}^3$ .

Aniqlangan chegaraviy ochish koeffitsiyenti bo‘yicha karyerning chegaraviy chuqurligi aniqlansin: ruda tanasi qalinligi  $M = 60 \text{ m}$ ; karyerni tugatish vaqtidagi bort qiyalik burchagi ruda tanasi yotish yoni va ustki yoni bo‘yicha o‘zaro teng, ya’ni  $\beta_1 = \beta_2 = 40^\circ$ .

**Yechish:** 1. Chegaraviy ochish koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$K_{chege} = \frac{C_{yer\ ost} C_{ochiq}}{C_{qop.jins}} = \frac{12100 - 6800}{1800} = 13 \text{ m}^3/\text{m}^3$$

2. Karyer chuqurligini aniqlaymiz:

$$H_{chege} = \frac{K_{chege} \cdot M}{ctg\beta_1 + ctg\beta_2} = \frac{13 \cdot 60}{ctg40^\circ + ctg40^\circ} \approx 520 \text{ m.}$$

### Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar

Oldingi masalada keltirilgan karyerning iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida chegaraviy ochish koeffitsiyenti va karyerning chuqurligi aniqlansin. Ruda tanasi gorizontal qalinligi:

1.  $M= 70 \text{ m}$ ; 2.  $M= 80 \text{ m}$ ; 3.  $M= 100 \text{ m}$ ;  $\beta_1 = \beta_2 = 40^\circ$ .

Nazorat savollari:

1. Qazish tizimining asosiy elementlariga nimalar kiradi?

2. Gorizontal va yotiq konlarda ochish ishlarini olib borish texnologiyasini tushuntiring.
3. Ruda tanasi qiya va o‘ta qiya joylashgan konlarni qazib olishda ochish ishlarini olib borish texnologiyasi haqida gapiring.
4. Ochish jinslarini qazishdan bo‘shagan maydonga tashishda kon ishlarini mexanizatsiyalash qanday olib boriladi?
5. Ochish jinslarini tashqi ag‘darmaga tashishda kon ishlarini mexanizatsiyalash qanday olib boriladi?
6. Karyer ishchi va ishlamaydigan yonbag‘irlari qiyalik burchagini oshirish nima uchun kerak bo‘ladi?

### **27 – amaliy mashg‘ulot**

**Qoplama jins pog‘onasini ҶИІІ-125/125 draglayni bilan qayta ekskavatsiyalamasdan qazib olib, foydali qazilmani qazib olishdan bo‘shagan maydonga (ichki ag‘darmaga) joylashtirish parametrlarini hisoblash**

Yumshoq va yaxshi maydalangan qattiq jinslarni ag‘darmaga joylashtirishda draglaynlardan foydalaniladi. Draglaynlar qo‘llanilganda ag‘darma tupiklari soni mexanik cho‘michli ekskavatorlardagiga qaraganda kam bo‘lib, jinslarni yaruslarga joylashtirish usuli va tartibi ham boshqacha bo‘ladi (16 - rasm). Bu esa o‘z navbatida ag‘darma kirmasi (zaxodkasi) kengligi katta bo‘lishi (30 – 100 m) hisobiga ag‘darmadagi temir yo‘l surilishi sonining keskin (3 – 6 barobar) kamayishini ta’minlaydi.

Karyer maydonidagi foydali qazilma qazib olingandan so‘ng bo‘shagan maydonda hosil qilingan qoplama jins ag‘darmasi ichki ag‘darma deb yuritiladi. Ichki ag‘darmalar gorizontal yoki qiyalik burchagi  $12^{\circ}$  gacha bo‘lgan foydali qazilma yotqiziqlarini qazib oladigan kayerlarda hosil qilinadi. Bunda qoplama jinslar katta quvvatga ega (cho‘michning hajmi  $25 - 80 \text{ m}^3$  va undan ham ortiq, strelasi uzunligi  $35 - 100 \text{ m}$ ) draglaynlar yordamida qazishdan bo‘shagan karyer maydoniga bevosita (transport vositasisiz yoki transport vositalari bilan) joylashtiriladi.

Draglyn pog‘onani navbatma-navbat “yuqori” va “pastki” qazish usulida qazib, ag‘darmaga to‘kadi.

**Berilgan:** foydali qazilma pog‘onasi balandligi  $h = 5 \text{ m}$ ; ҶИІІ – 125/125 ekskavatorining to‘kish radiusi  $R_{\text{to‘k.}} = 120 \text{ m}$ ; to‘kish balandligi

$H_{to'k.} = 50$  m; ekskavator bazasi diametri  $D = 95$  m; transport yo‘li kengligi  $b = 6$  m; ochish va ag‘darma kirmalari kengligi  $B = 30$  m; qazish pog‘onasi ostki qirrasi bilan ag‘darma o‘rtasidagi masofa  $C_1 = 2$  m; qazib olinayotgan pog‘ona qiyalik burchagi  $\alpha = 60^0$ ; ag‘darma qiyalik burchagi  $\delta = 30^0$ ; qoplama jins ichki ishqalanish burchagi  $\beta = 40^0$ ; jinslarning ko‘pchish koeffitsiyenti  $K_{ko'pch.} = 1,2$ .

**Yechish:** 1. Pastki nim pog‘ona balandligini aniqlaymiz:

$$h_{n.p.} = \frac{R_{to'k} - h(ctg\delta + ctg\alpha) - H_{to'k} \cdot ctg\delta - C_1 \cdot b - 0,5D}{ctg\beta} =$$

$$\frac{120 - 5(ctg30^0 - ctg60^0) - 40 \cdot ctg30^0 - 2 \cdot 6 - 0,5 \cdot 30}{ctg40^0} = 21,4$$

2. Yuqori nimpog‘ona balandligini aniqlaymiz:

$$h_{n.yu.} = \frac{(H_{to'k} + h - h_{n.p.} \cdot K_{to'k}) - 0,25 \cdot B \cdot ctg\delta}{K_{to'k}} \leq 0,8H_{to'k} \prec 40 \text{ m}$$

$$h_{n.yu.} = \frac{(50 + 5 - 21,4 \cdot 1,2) - 0,25 \cdot 30 \cdot ctg30^0}{1,2} \leq 18,8H_{to'k} \prec 40 \text{ m}$$

3. Qoplama jins pog‘onasi balandligini aniqlaymiz:

$$H_{qop.jins} = h_{n.p.} + h_{n.yu.} = 21,4 + 18,8 \approx 40 \text{ m.}$$

### Mustaqil ishslash uchun misollar

1) ЭШ-80/100 rusumli draglayn bilan qoplama jinslarni qazib olib, ichki ag‘darmaga qayta ekskavatsiyalamasdan joylashtirishda qoplama jins pog‘onasi parametrlarini hisoblash:

$h = 5$  m;  $R_{to'k.} = 97$  m;  $H_{to'k.} = 43$  m;  $D = 28$  m;  $B = 30$  m;  $b = 6$  m;  $S_1 = 2$  m;  $\alpha = 60^0$ ;  $\delta = 30^0$ ;  $\beta = 40^0$ ;  $K_{ko'pch.} = 1,2$ .

2. ЭШ-25/100 draglayn bilan qoplama jinslarni qazib olib, ichki ag‘darmaga qayta ekskavatsiya qilmasdan joylashtirishda qoplama jins pog‘onasi parametrlari hisoblansin:

$h = 4,5$  m;  $R_{to'k.} = 95$  m;  $H_{to'k.} = 46$  m;  $D = 26$  m;  $B = 30$  m;  $b = 6$  m;  $S_1 = 2$  m;  $\alpha = 60^0$ ;  $\delta = 30^0$ ;  $\beta = 40^0$ ;  $K_{ko'pch.} = 1,25$ .

3. Kon massasini ЭИИ-15/90 draglayni bilan qazib olib, ichki ag'darmaga joylashtirishda qoplama jins pog'onasi parametrlari hisoblansin:

$$h = 4\text{m}; R_{to'k.} = 83 \text{ m}; H_{to'k} = 42 \text{ m}; D = 25 \text{ m}; B = 25 \text{ m}; b = 6 \text{ m}; S_1 = 2 \text{ m}; \alpha = 60^0; \delta = 30^0; \beta = 40^0; K_{ko'pch.} = 1,3.$$

Draglaynlarning texnologik parametrlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan

Ko'rsatkichlar	ЭИИ-15/90	ЭИИ-25/100	ЭИИ-80/100
Cho'mich sig'imi, $\text{m}^3$	15	25;30	80;100
Strela uzunligi, m	90	100	100
Maksimal qazish radiusi, m	81	95	97
Maksimal qazish chuqurligi, m	41	47	47
Maksimal to'kish balandligi , m	42	46	43
Maksimal to'kish radiusi, m	83	95	97
Ekskavator massasi, t	1400	2500	10300
Zaminga beradigan bosimi (ishlash vaqtida), MPa	0,09	0,1	0,18
Ko'tarilish qiyaligi, gradus	7	7	7
Sikl davomiyligi (burilish burchagi $135^0$ bo'lishida) sek	60	65	65
Dvigatelning belgilangan quvvati, kVt	2350	2x2350	4x3600

Nazorat savollari:

1. Transportsiz qazish tizimlari foydali qazilma konlari yer qobig'ida qanday joylashganda qo'llanadi?
2. Transportli qazish tizimi kon yotqiziqlari gorizontga nisbatan qanday joylashganda qo'llanadi?
3. Ichki ag'darma hosil qilishda draglaynlardan foydalanishning afzallik va kamchiliklari to'g'risida so'zlab bering.

4. Qoplama jinslarni ichki ag‘darmaga bir cho‘michli ekskavatorlar bilan qayta ekskavatsiyalash asosida joylashtirish texnologiyasini aytib bering.

5. Qoplama jinslarni ichki va tashqi ag‘darmaga tashishda ochish ishlari texnologiyasini so‘zlab bering.

## 28 – amaliy mashg‘ulot

### **Qatlamsimon konlarni qazib olishda karyer chegaraviy chuqurligi, foydali qazilmaning balans va sanoat zaxirasi, qoplama jinslar hajmi va o‘rtacha sanoat ochish koeffitsiyentini aniqlash**

Foydali qazilmalarni qazib olish umumiyligi geologik va eksplutatsion razvedka natijasidan olingan ma’lumotlar, shuningdek, qazib olinadigan foydali qazilmaning sifatini muttasil nazorat qilish asosida amalgalashdi. Foydali qazilmalarning A + V + S<sub>1</sub> kategoriyalari bo‘yicha hisoblangan va loyihalash uchun qabul qilingan tovar ruda zaxiralari karyerlarda foydali qazilmani qazib olishni ta’minlaydi.

Eksplutatsion ruda yo‘qotilishi, rudanining sifatsizlanishi va texnologik namligini hisobga olgan holda aniqlangan sanoat zaxira tovar rudasi hisoblanadi va uning miqdori quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Q_t = Q_{zaxira} \frac{K_{yo'q}}{K_r \cdot K_n},$$

bunda  $Q_{zax}$  – qazib olingan ruda balans zaxirasi, ming m<sup>3</sup>;  $K_{yo'q}$  – ekspluatatsion ruda yo‘qotilishini hisobga olish koeffitsiyenti;  $K_r$  – ruda sifatsizlanishini hisobga olish koeffitsiyenti;  $K_n$  – texnologik namlikni hisobga olish koeffitsiyenti.

Foydali qazilmani qazib olish ishlarining bir maromda bo‘lishi belgilangan miqdorda ochilgan va qazishga tayyorlangan foydali qazilma zaxirasi bilan ta’minalanadi.

Ochilgan zaxira deganda, pog‘onaning qoplama jinslardan bo‘shatilgan ustki maydonidagi balans zaxira tushuniladi. Bunda, albatta, transport vositalarini harakatlanishi uchun pog‘ona ustki maydonidan ishchi gorizontgacha qiya transheya o‘tilgan bo‘lishi kerak. Ochilgan zaxira chegaralarini: chuqurlik bo‘yicha qiya transheya kesib o‘tgan gorizont, plan bo‘yicha esa, foydali qazilma pog‘onasining ochilgan ustki maydoni tashkil qiladi. Ochilgan zaxira tayyorlangan va

qazishga tayyor zaxiralarga ajratilmaydi. Tayyorlangan zaxira qoplama jinslar qoldiqlaridan himoyalangan bo‘lishi kerak, ammo ayrim hollarda qalinligi 0,8 m gacha bo‘lgan qoplama jins qatlami pog‘ona ustki maydonida qoldirishi mumkin. Ustki va yon tomonlari ochilgan pog‘onalarning zaxirasi qazishga tayyorlangan zaxira hisoblanadi. Ochilgan zaxira bo‘yicha: yil davomida ishlaydigan karyerlar uchun – kamida 3 oyga yetarli zaxira bilan; mavsumiy ishlaydigan karyerlar uchun – 6 oyga yetadigan zaxira bilan.

Qazishga tayyorlangan zaxira bo‘yicha: yil bo‘yi ishlaydigan karyerlar uchun – 4-5 oyga yetadigan zaxira bilan; mavsumiy ishlaydigan karyerlar uchun – 2-3 oyga yetadigan zaxira bilan.

**Berilgan:**  $m = 56\text{m}$  yotqiziq qalinligi;  $\beta_{og} = 70^\circ$  yotqiziq og‘ish burchagi;  $L_{tub}=2000\text{m}$  karyer tubi uzunligi;  $V_{tub}=40\text{m}$  karyer tubi kengligi;  $\beta_{qiya} = 39^\circ$  karyer borti qiyalik burchagi;  $\rho_{zich} = 2,8\text{t/m}^3$  foydali qazilma zichligi;  $h_{h.t.} = 18\text{m}$  hosildor tuproq qalinligi;  $k_{cheq} = 9,2 \text{ m}^3/\text{m}^3$  chegaraviy ochish koeffitsiyenti.

**Yechish:** 1. Yotqiziqning gorizontal qalinligini aniqlaymiz:

$$m_{gor} = \frac{m}{\sin \beta_3} = \frac{56}{\sin 70^\circ} = 60 \text{ m}$$

2. Karyer tubi parametrini aniqlaymiz:

$$P = (L_{tub} + B_{tub}) \cdot 2 = (2000 + 40) \cdot 2 = 4080 \text{ m}$$

3. Karyer tubi maydonini aniqlaymiz:

$$S = L_{tub}b + B_{tub} = 2000 \cdot 40 = 80000 \text{ m}^2$$

4. Quyidagi formula orqali karyerning chegaraviy chuqurligini aniqlaymiz:

$$H_{cheq.chuq} = \frac{\left( -P + \sqrt{P^2 4\pi [\tau - m_{gor} \cdot L_{tub}(1 + K_{cheq})]} \right)}{(2\pi \operatorname{ctg} \beta_{qiya})} =$$

$$= \frac{\left( -4080 + \sqrt{4080^2 - 4 \cdot 3,14 [80000 - 60 \cdot 2000(1 + 9,2)]} \right)}{2 \cdot 3,14 \cdot \operatorname{ctg} 39^\circ} = 203 \text{ m}$$

5. Quyidagi ifoda orqali karyer tubi bilan yotqiziqning yotish yoki o‘rtasidagi masofani aniqlaymiz:

$$x = \frac{[(m_{gor} - B_{tub})(tg\beta_3 - tg\beta_4)]}{2tg\beta_3} = \frac{(60 - 40)(tg70^0 - tg39^0)}{2tg70^0} = \frac{(60 - 40)(2,7 - 0,8)}{2 \cdot 2,7} = 7 \text{ м}$$

6. Yotqiziqning yotiqli yoni bo'yicha foydali qazilma maydonini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$S_1 = \frac{(m_{gor} - x - B_{tub})^2 \cdot tg\beta_3 \cdot tg\beta_4}{2(tg\beta_3 + tg\beta_4)} = \frac{(60 - 7 - 40)^2 \cdot 2,7 \cdot 0,8}{2(2,7 + 0,8)} = 52,7 \text{ м}^2$$

7. Quyidagi ifoda yordamida yotqiziqning ustki yonbag'ri bo'yicha foydali qazilma maydonini aniqlaymiz:

$$S_2 = \frac{x^2 \cdot tg\beta_3 \cdot tg\beta_4}{2(tg\beta_3 + tg\beta_4)} = \frac{7^2 \cdot 2,7 \cdot 0,8}{2(2,7 + 0,8)} = 28,1 \text{ м}^2$$

8. Quyidagi formula orqali foydali qazilma zaxirasi hajmini aniqlaymiz:

$$v_{f.oy.qaz} = m_2 \cdot L_{tub} (H_{cheg.chuq} - h_{h.t.}) - (S_1 - S_2) \cdot L_{tub} = \\ = 60 \cdot 2000 (203 - 18) - (52,7 - 28,1) \cdot 2000 = 22038000 \text{ м}^3$$

9. Foydali qazilmaning balans zaxirasini aniqlaymiz:

$$Zb = v_{f.q.} \cdot \rho_{zich} = 22038000 \cdot 2,8 = 61708000 \text{ т}$$

10. Foydali qazilmaning sanoat zaxirasini aniqlaymiz (ekspluatatsion yo'qotish miqdori 4%):

$$Z_{san} = 61708000 \cdot 0,96 = 59239000 \text{ т}$$

11. Quyidagi ifoda orqali karyer konturidagi kon massasi hajmini aniqlaymiz ( $\beta_{o.rt} = \beta_4$  sharti asosida):

$$v_{f.q.} = SH_{cheg.chuq} + \frac{1}{2} H_{cheg.ch}^2 ctg\beta_{o.rt} + \frac{1}{3} \pi H_{cheg.ch}^3 ctg^2\beta_{o.rt} = \\ = 80000 \cdot 203 + \frac{1}{2} 4080 \cdot 203^2 + \frac{1}{3} 3,14 \cdot 203^3 \cdot 1,24^2 = \\ 129728000 \text{ м}^3$$

12. Karyer so'nggi konturi bo'yicha qoplama jins hajmini aniqlaymiz:

$$v_{k.k.} = 129728000 - 22038000 = 107690000 \text{ м}^3$$

13. O'rtacha sanoat ochish koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$K_{o.rt} = \frac{107690000}{59239000} = 1,82 \text{ м}^3/\text{т.}$$


Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston respublikasi dunyo miqyosida nodir metallar zaxirasi bo‘yicha nechanchi o‘rinda turadi?
2. Qanday qatlamlar o‘ta qiya qatlam deyiladi?
3. Konlarni ochiq usulda qazishda ekpluatatsion konni ochish koeffitsiyenti ta’rifini ko‘rsating.

## 29 – amaliy mashg‘ulot

### ДП-9С rusumli osma maydalagichning unumdorligini va parkdagi ishchi sonini aniqlash

Karyerlarda qattiqlik darajasi o‘rtacha bo‘lgan kon jinslarini maydalashda traktorga osilgan maydalagichlardan foydalaniadi (17-rasm ).




17-rasm. Osma maydalagichning konstruktiv sxemasi: 1- baza traktori; 2 – boshqarish gidrotsilindrlari; 3- ishchi organi (tish).

Maydalagich traktorga tirkalgan, yemirilishga chidamli tishdan tashkil topgan bo‘lib, gidravlik moslama yordamida yerga botib kiradi va traktoring yurishi yo‘nalishida zaminda ariqchalar hosil qiladi. Maydalagichlar kon jinslarini tabaqalar bo‘yicha maydalashda keng qo‘llaniladi va qattiqlik koeffitsiyenti  $f \leq 8$  bo‘lgan jinslarni maydalashda ularning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Ikki ariqcha o‘rtasidagi masofa C maydalanish darajasiga qo‘ylgan talab va samarali maydalanish chuqurligi  $h_e$  asosida aniqlanadi.  $h_e < h_z$  bo‘lganligi sababli ikki ariqcha o‘rtasida maydalanmagan zona qolib ketadi.(18-rasm).

**Berilgan:** Yonuvchi slanetslar qatlami gorizontal, o‘rtacha darzdor va qalinligi 0,6 m; yillik ish hajmi  $2,4 \text{ mln.m}^3$ ;  $n_{sm} = 1$ ;  $N = 250 \text{ kun}$ .  $K_1 = 0,9$  ariqchaning ko‘ndalang kesim yuzasi shaklini hisobga olish koeffitsiyenti;  $K_2 = 0,95$  massiv holatini ariqcha buzilmagan qismiga ta’sirini hisobga olish koeffitsiyenti;  $b = 2 \div 3,5 \text{ m}$ ;  $C = 0,6$  ikki o‘zaro parallel ariqchalar o‘rtasidagi masofa,m;  $h_e \approx h_z = 0,3$  ariqcha chuqurligi,

m;  $K_{sm.v} = 0,8$  smena vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti;  $v_{mayd.} = 1,0$  maydalagichning ishchi tezligi, m/sek;  $t_{otish} = 50$  osma maydalagichning keyingi ariqchalarini hosil qilish joyiga o'tish vaqt, sekund;  $L = 100$ ,  $L' = 100$  parallel va ko'ndalang ariqchalarining uzunligi, m;  $C' = 0,9$  maydalagichning qo'shimcha yurishlari o'rtaсидagi masofa, m.



18-rasm. Maydalagichning o'zaro parallel yurishida massivning maydalash sxemasi.

**Yechish:** 1. Quyidagi formula orqali maydalagichning soatlik unumdarligini aniqlaymiz:

$$P_{mayd.} = \frac{3600 \cdot h_s \cdot K_{sm.v.}}{v_{mayd.} \left( \frac{1}{c} + \frac{1}{c'} \right) + t_{otish} \left( \frac{1}{c} + \frac{1}{c' \cdot h'} \right)} = \frac{3600 \cdot 0,6 \cdot 0,6}{\frac{1}{1} \left( \frac{1}{0,6} + \frac{1}{0,9} \right) + 50 \left( \frac{1}{0,6} + \frac{1}{0,9 \cdot 100} \right)} = 310 \text{ m}^3/\text{soat};$$

2. Maydalagich parkini aniqlaymiz:

$$N_{mayd.park} = \frac{2400000}{310 \cdot 8 \cdot 1.250} = 4 \text{ dona};$$

20% rezervni hisobga olganda:

$$N_{mayd.park} = 4 \cdot 1.2 \cong 5 \text{ dona}.$$

### 30 – amaliy mashg'ulot

**Avtomobil transportini qo'llab foydali qazilmani qazib olish tizimida ish fronti surilish tezligi va kon ishlarining chuqurlanish sur'atini aniqlash**

Zamonaviy karyerlarda avtotransport alohida transport sifatida yoki temir yo'l transporti, konveyer transporti va boshqa transport vositalari bilan birgalikda qo'llanadi.

Karyerlarda avtotransportning samaradorligi ko'p jihatdan avtomobil yo'llarining sifati va holatiga bog'liq bo'ladi. Karyer avtomobil yo'llari ekspluatatsiya qilish sharoitlari bo'yicha statsionar va vaqtinchalik yo'llarga bo'linadi. Kapital transheyalar, yer yuzi va

tutashtiruvchi bermalarda uzoq muddat ekspluatatsiya qilishga mo‘ljallangan.

Qazish tizimining asosiy parametrlari quyidagilar: pog‘ona balandligi va uning qiyalik burchagi, kirma kengligi, ish maydonining kengligi, karyer ishlaydigan yonbag‘rining qiyalik burchagi, ekskavator blokinining uzunligi, ochish va qazish ishlari frontining uzunligi va ishchi pog‘onalar soni. Quyidagilar qazish tizimining asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi: kavjoyning surilish tezligi (m/oy), ish frontining surilish tezligi (m/yil), karyerning chuqurlashish tezligi (m/yil), ish fronti uzunligi yoki ish maydoni birligidan olinadigan unumdorlik [ $m^3/(km \cdot yil)$ ;  $t/(km \cdot yil)$ ;  $m^3/(km^2 \cdot yil)$ ;  $t/(km^2 \cdot yil)$ ], foydali qazilma yo‘qotilishi (%) va foydali qazilmaning sifatsizlanishi (%).

Avtomobil transporti qo‘llanganda blok uzunligi 100-300 m (ekskavator cho‘michi hajmi  $5 m^3$  gacha) va 350-400 m (ekskavator cho‘michi hajmi  $5 m^3$  dan katta bo‘lganda). Pog‘onadagi ish fronti uzunligi ekskavator blokinining yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Ochish ishlari va foydali qazilmani qazib olish ishlari frontlarining yig‘indisi karyer ish frontini tashkil qiladi. Foydali qazilmani qazib olish fronti uzunligi qancha katta bo‘lsa, karyer unumdorligi ham shuncha katta bo‘ladi. Gorizontal va yotiqlik konlarda ish fronti surilishining tezligi  $V_f$  foydali qazilmani qazib olishdagi ekskavatorlarning unumdorligi  $Q_{yil}$  bo‘yicha aniqlanishi mumkin.

$$V_f = \frac{Q_{yil}}{h \cdot L_b}$$

Bunda:  $h$  - foydali qazilma pog‘onasi balandligi, m;  $L_b$  - foydali qazilmani qazib oladigan ekskavator blokinining uzunligi, m.

Qiya va o‘ta qiya konlarni qazib olishda ish fronti surilish tezligi  $V_f$  karyer chuqurlashib borish tezligiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$V_f = V_{pog} \cdot (ctg\gamma_{ost} + ctg\gamma_{ust}),$$

yoki

$$V_f = \frac{Q_{yil}}{h \cdot L_b}$$

Bunda:  $\gamma_{ost}$ ,  $\gamma_{ust}$  – karyer yonbag‘irlarining yotqizig‘i ustki va ostki yonlari bo‘yicha qiyalik burchaklari, gradus.

Karyer chuqurlashish tezligi kesuvchi transheyani ochilayotgan foydali qazilma gorizontidan o‘tish vaqtiga bog‘liq bo‘ladi. Kesuvchi

transheyani bir tomonlama rivojlanib borishida karyerning chuqurlashish tezligi  $V_f$  quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V_f^1 = \frac{Q_{yil}}{L_b(B_{k.t.} + B_b + L_{i,f} 3h \operatorname{ctg} \alpha)};$$

Ikki tomonlama rivojlanganda esa,

$$V_f^2 = \frac{Q_{yil}}{L_b(B_{k.t.} + 2L_{i,f} + 4h)};$$

Bunda:  $Q_{yil}$  – qiya va kesuvchi transheyalar o‘tishdagi ekskavatorlarning yillik unumdarligi,  $\text{m}^3/\text{yil}$ ;  $L_b$  – ekskavator bloki uzunligi, m;  $B_{k.t.}$  – kesuvchi transheya tubining kengligi, m;  $B_b$  – blok kengligi, m;  $L_{i,f}$  – ish fronti kengligi, m;  $h$  – ochilayotgan gorizont balandligi, m;  $\sigma$  – pog‘ona qiyalik burchagi, gradus.

Konchilik amaliyotida karyerning yillik chuqurlashish tezligi avtotransportdan foydalanilganda 15-20 m/yil tashkil qiladi.

**Berilgan:** Karyerning ishlab chiqarish quvvati  $P = 3 \cdot 10^6 \text{ m}^3/\text{yil}$ . Ish frontining uzunligi  $L_f = 2 \text{ km}$ ; pog‘ona balandligi;  $h_{pog'} = 10 \text{ m}$ ; kon tayyorlov ishlari hajmi  $V_{k.m.} = 2 \cdot 10^6 \text{ m}^3$ ; kesuvchi transheyani o‘tish bo‘yicha ekskavatorning yillik unumdarligi  $Q_{yil} = 2 \cdot 10^6 \text{ m}^3/\text{yil}$ ; transheya ishlarini bajarishdagi ekskavatorlar soni,  $n = 2$ .

**Yechish:** 1. Qazish ishlari davomiyligini hisoblaymiz:

$$t = \frac{V_{kon.mas.}}{n \cdot Q_{yil}} = \frac{2 \cdot 10^6}{2 \cdot 2 \cdot 10^6} = 0,5$$

0,5 yil davomida  $h_{pog'} = 10 \text{ m}$  bo‘lgan bitta pog‘ona qazib olinadi, bunda ish zonasining chuqurlashish sur’ati ni aniqlaymiz:

$$V = \frac{h_{pog'}}{t} = \frac{10}{0,5} = 20 \text{ m/yil};$$

2. Ish fronti surilish tezligini aniqlaymiz:

$$V = \frac{\Pi}{L_f \cdot h_{pog'}} = \frac{3 \cdot 10^6}{2000 \cdot 10} = 150 \text{ m/yil}.$$

## **Adabiyotlar**

- 1 Анистратов Ю.И. Технология открытых горных работ. Учебник. –М.: Недра, 2002.
- 2 Ржевский В.А. Открытые горные работы. Учебник. –М.: Недра, 2002.
- 3 Sagatov N.X., Aripova L.T., Petrosov Yu.E., Djabarov M.N. Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash. O‘quv qo‘llanma. –Т.: Kamalak press, 2015.
- 4 Томаков П.И., Наумов И.К. Технология, механизация и организация открытых горных работ. – М.: Недра, 2004
- 5 Ялтанец Н.М., Шадов М.И. Практикум по открытым горным работам. Учебное пособие.- М.: МГГУ, 2002.
- 6 Internet saytlar:  
<http://www.rusmet.ru/minijournal/4-98htm>- Горный журнал.  
<http://www.elibraru.ru/journ-main.asp code=520100> -  
Электронные научные журналы горного направления  
<http://www.mggu.ru> – Москва Государственный горный университет  
<http://www.rusmet.ru/minjornal/> - «Горный журнал».  
<http://www.neva.ru> – библиотека Санкт-Петербургского государственного технического университета.

## Mundarija

Kirish	3
1- amaliy mashg‘ulot	
Karyerning ishchi va ishlamaydigan yonbag‘ri qiyalik burchaklarini aniqlash .....	4
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	6
2- amaliy mashg‘ulot	
O‘ta qiya kon yotqiziqlarini ochiq usulda qazib olishda ishchi zonaning maksimal balandligi – $H_{i.z.}$ ni aniqlash .....	7
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	9
3 – amaliy mashg‘ulot	
Karyerda kon ishlarining chuqurlashish tezligi ( $V_{chuq.}$ ) ni aniqlash...	9
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	12
4 – amaliy mashg‘ulot	
Geometrik to‘g‘ri shakldagi konlar uchun chuqurligini analitik usulda aniqlash .....	13
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	14
5 – amaliy mashg‘ulot	
Geometrik to‘g‘ri shakldagi konlar uchun karyerning chegaraviy chuqurligini aniqlash (akad. V.V. Rjevskiy bo‘yicha) ..	15
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	17
6 – amaliy mashg‘ulot	
Qatlamsimon konlarni ochiq usulda qazib olishda karyerning chegaraviy chuqurligini aniqlash .....	17
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	19
7 – amaliy mashg‘ulot	
Karyerning o‘rtacha ochish koeffitsiyentini aniqlash .....	20
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	21
8 – amaliy mashg‘ulot	
Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda joriy ochish koeffitsiyentini aniqlash .....	22
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	23
9 – amaliy mashg‘ulot	
Foydali qazilma konlarini ochiq uchulda qazib olishda chegaraviy ochish koeffitsiyentini aniqlash .....	24
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar .....	25
10 – amaliy mashg‘ulot	

Karyerlarda bajariladigan jarayonlarning asosiy parametrlarini hisoblash . . . . .	26
11 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	29
Burg‘ilab-portlatish ishlari parametrlarini hisoblash . . . . .	33
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	33
12 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
Berilgan kon-texnik sharoitlar uchun burg‘ilash uskunai rusumini tanlash, burg‘ilab-portlatish ishlarini parametrlari va burg‘ilash stanoklarining zaruriu soni (parkini) hisoblash . . . . .	34
13 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
Qazib - yuklash ishlari parametrlarini aniqlash . . . . .	37
14 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
O‘rtacha qalilikka ega bo‘lgan jinslar bo‘yicha qoplama jinslarni ЭКГ 8и rusumli ekskavator bilan qazishda ekskavatorlar sonini aniqlash . . . . .	40
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	42
15 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
Ochish (qoplama) jinslarni temir yo‘l transporti bilan ag‘darmalarga tashishda lokomotiv sostavidagi vagonlar sonini, ishlaydigan va inventar lokomotiv sostavlari sonini hisoblash . . . . .	43
16 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
Foydali qazilmani qazish uchun avtoag‘dargich tipini tanlash, inventar parki va kapital transheyadagi harakatlanish yo‘llari sonini aniqlash . . . . .	47
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	51
17 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
Kon jinsini qazish uchun temir yo‘l transasporti tipini tanlash, inventar parki sonini aniqlash . . . . .	52
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	53
18 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
Temir yo‘l transporti va mexanik cho‘michli ekskavator yordamida ag‘darma hosil qilinganda temir yo‘lni surilish qadamini va ag‘darma tupigi qabul qilish qobiliyatini aniqlash . . . . .	54
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	56
19 – amaliy mashg‘ulot . . . . .	
Buldozer ag‘darmasi fronti uzunligini aniqlash . . . . .	57

20 – amaliy mashg‘ulot	
Ag‘darma hosil qilishda ishchi va umumiyl temir yo‘l tupiklari sonini aniqlash . . . . .	60
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	63
21 – amaliy mashg‘ulot	
Balandligi $h_p = 15$ m pog‘onani ekskavator bilan temir yo‘l transporti va burg‘ilab-portlatish ishlarini qo‘llab qazishda pog‘ona ishchi maydoni kengligini hisoblash . . . . .	64
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	66
22 – amaliy mashg‘ulot	
ЭВГ - 6 mexanik cho‘michli ekskavatordan foydalanganda qoplama jinslarni Oddiy transportsiz qazish tizimini qo‘llash mumkin ekanligini tekshirish . . . . .	66
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	67
23 – amaliy mashg‘ulot	
Oraliq gorizontida joylashgan ЭШ-10/60 draglayn bilan Oddiy transportsiz sxemada qoplama jinslarni qazishda pog‘ona maksimal balandligini aniqlash . . . . .	68
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	69
24 – amaliy mashg‘ulot	
Qayta ekskavatsiya qilishda draglaynning ishchi parametrlarini belgilash. Jinslarni qazishdan bo‘shagan maydonga (ishchi ag‘darmaga) joylashtirishni ЭВГ-100/70 rusumli ekskavator yordamida bajarishni hisoblash . . . . .	70
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	73
25 – amaliy mashg‘ulot	
Gorizontni panel (pol) usulida qazib olishda pol kengligini aniqlash . . . . .	73
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	76
26 – amaliy mashg‘ulot	
Tekis yerda joylashgan o‘ta qiyali rangli metall ruda konini ochiq usulda qazib olishda chegaraviy ochish koeffitsiyentini aniqlash. . .	76
Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar . . . . .	77
27 – amaliy mashg‘ulot	
Qoplama jins pog‘onasini ЭШ-125/125 draglayni bilan qayta ekskavatsiyalamasdan qazib olib, foydali qazilmani qazib olishdan bo‘shagan maydonga (ichki ag‘darmaga) joylashtirish parametr-	

larini hisoblash .....	78
Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar .....	79
28 – amaliy mashg‘ulot	
Qatlamsimon konlarni qazib olishda karyer chegaraviy chuqurligi, foyDALI qazilmaning balans va sanoat zaxirasi, qoplama jinslar hajmi va o‘rtacha sanoat ochish koeffitsiyentini aniqlash .....	81
29 – amaliy mashg‘ulot	
ДП-9С rusumli osma maydalagichning unumdorligini va parkdagi ishchi sonini aniqlash .....	84
30 – amaliy mashg‘ulot	
Avtomobil transportini qo‘llab foydali qazilmani qazib olish tizimida ish fronti surilish tezligi va kon ishlarini chuqurlanish sur’atini aniqlash .....	85
Adabiyotlar .....	88

Muharrir:

Sadikova K.A.

Musahhih:

Miryusupova Z.